

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

“METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA MAHSULOT SIFATI
MENEJMENTI (tarmoqlar bo'yicha)” yo'nalishi

“ZAMONAVIY O'LCHASH, SINASH VA NAZORAT QILISH USULLARI
VA VOSITALARI TAHLILI”
moduli bo'yicha

O' Q U V – U S L U B I Y M A J M U A

Mazkur o‘quv – uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021yil 25 dekabrdagi №-538 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlandi

Tuzuvchi: TDTU “Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasi dosenti, t.f.f.d. PhD. G‘.G‘.Boboyev,

Taqrizchi: TDTU “Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasi professori R.K.Azimov

O‘quv – uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2021 yil 29 dekabrdagi 4-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	21
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	10
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	55
V. KEYSLAR BANKI.....	12929
VI. GLOSSARIY.....	1322
VII. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR	13535

ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-sonli, 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmonlari, shuningdek 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi. Dastur mazmuni sertifikatlashtirish milliy tizimi, halqaro sertifikatlashtirish, sifat ta’minoti, sertifikatlashtirish sxemalari bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ushbu dasturda iqtisodiyotda zarur bo‘ladigan zamonaviy o‘lchash, sinash va nazorat usullari va vositalari, ularni ishslash tamoyillari, o‘lchash nazariyasini, o‘lchash vositalari, nazorat, sinash va tekshirish, aniq ishlab chiqarish jarayonlari va sinash tartib qoidalari va tegishli texnik, uslubiy va me’yoriy qo‘llab- quvvatlash uchun metrologik ta’midot tuzilishini tanlash va o‘rganishni o‘zida qamrab olgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Zamonaviy o‘lchash, sinash va nazorat qilish usullari va vositalari tahlili” modulining maqsadi:

Zamonaviy o‘lchash, sinash va nazorat usullari va vositalari, ularni ishslash tamoyillari, o‘lchash nazariyasini, o‘lchash vositalari, nazorat, sinash va tekshirish, aniq ishlab chiqarish jarayonlari va sinash tartib qoidalari va tegishli texnik, uslubiy va me’yoriy qo‘llab- quvvatlash uchun metrologik ta’midot tuzilishini tanlash, mikroprosessorli, dasturli o‘lchash, sinash va nazorat vositalarining ishslash prinsipi,

strukturasi va dasturiy ta'minotidan amaliyotda foydalanish bo'yicha yo'nalish xususiyatiga mos nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

"Zamonaviy o'lhash, sinash va nazorat qilish usullari va vositalari tahlili" modulning vazifasi:

- ishlab chiqarish, ilmiy faoliyat va boshqa jarayonlardagi o'lhash, sinash va nazorat qilish usullari va vositalari tahlil qilish, shuningdek, turli sohalardagi o'lhash, sinash va nazorat qilish usullari va vositalarini ishlatish, ularni natijalarini tahlil qilish va ulardan amaliyotda foydalanishni o'rgatish.

- tinglovchilarga mavjud va zamonaviy o'lhash, sinash va nazorat qilish usullari va vositalari bo'yicha bilimlarni shakllantirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarining bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

"Zamonaviy o'lhash, sinash va nazorat qilish usullari va vositalari tahlili" modulni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- zamonaviy o'lhash, sinash va nazorat usullari va vositalari, ularni ishlash tamoyillari, o'lhash nazariyasini;
- asosiy o'lhash xatoliklari nazariyasini, o'lhashlardagi muammolarni **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- o'lhash natijalarini qayta ishlash qoidalarini qo'llash;
- o'lhash vositalari, nazorat, sinash va tekshirish, aniq ishlab chiqarish jarayonlari va sinash tartib qoidalari va tegishli texnik, uslubiy va me'yoriy qo'llab-quvvatlash uchun metrologik ta'minot tuzilishini tanlash va tavsiya etish bo'yicha **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- o'lhash, sinash va nazorat qilish usullari va vositalaridan foydalanish;
- ishlab chiqarish, ilmiy faoliyat va boshqa jarayonlardagi o'lhash, sinash va nazorat qilish usullari va vositalari loyihalashtirish bosqichlarini ketma-ket bajarish bo'yicha **malakalarga** ega bo'lishi zarur.

- **Tinglovchi:**
- zamonaviy mikroprosessorli, dasturli o‘lchash, sinash va nazorat vositalarining ishlash prinsipi, strukturasi va dasturiy ta’minotidan amaliyotda foydalanish;
- yuqori darajada avtomatlashgan ishlab chiqarishda sun’iy intellektni amalda sinashda loyihalashtirish ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Zamonaviy o‘lchash, sinash va nazorat qilish usullari va vositalari tahlili” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlari, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Zamonaviy o‘lchash, sinash va nazorat qilish usullari va vositalari tahlili” moduli o‘quv rejadagi quyidagi fanlar bilan bog‘liq: “Mahsulot va xizmatlarda halqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish, ekspertiza qilish va me’yoriy nazorat”, “Ishlab chiqarish va sifat tizimini sertifikatlashtirish”, “Metrologik ta’minotning asosiy vazifalari, muammolari va ularni hal qilish yo‘llari”.

Modulning oliv ta’limdagisi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatni boshqarish va sifatni ta’minlashda sertifikatlashtirish faoliyati ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifatini kafolatlanishi, muvofiqligini xolisona baholash va raqobatbardoshligi ta’minlash,

ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlanishi bilan mahsulotlarni sertifikatlashtirishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modullar bo‘yicha soatlar taqsimoti

<i>Nº</i>	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	Metrologiya sohasidagi asosiy tushuncha va atamalar, usullar va o‘lhash, sinash va nazorat vositalari.	4	2	2	
2.	O‘lhash nazariyasi, asosiy o‘lhash xatoliklari nazariyasi	4	2	2	
3.	O‘lhash usullari va vositalari, o‘lhash natijalarini qayta ishlash qoidalari, o‘lhash xatoliklarni baholash.	6		2	4
4.	O‘lhash usullari, sinash va nazorat qilish.	2	2		
5.	Intellektual va virtual o‘lhash vositalari, ularning ishslash tamoyillari	2	2		
	Jami:	18	8	6	4

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Metrologiya sohasidagi asosiy tushuncha va atamalar, usullar va o‘lhash, sinash va nazorat vositalari.

O‘lhash, sinash va nazorat vositalari umumiy tushunchalar. Metrologiya sohasidagi O‘zbekiston respublikasi qonunchiligi. O‘lhash usullari. O‘lhash ob’yeqtleri va sub’yeqtleri.

2-mavzu: O‘lhash nazariyasi, asosiy o‘lhash xatoliklari nazariyasi.

O‘lhash, o‘lhash xatoliklari va ularning kelib chiqish sabablari. O‘lhash xatoliklari va ularning turlari. O‘lhash xatoliklari va ularni bartaraf etish yo‘llari. O‘lhash noaniqligi to‘g‘risida qisqacha tushuncha.

3-mavzu: O‘lhash usullari, sinash va nazorat qilish.

O‘lhash usullari. Sinash va nazorat qilish haqida tushuncha. Sifatni nazorta qilish usullari tahlili. O‘lhashlardagi muammolar. Zamonaviy o‘lhash vositalari, sinash va nazorat qilish usullari

4-mavzu: Intellektual va virtual o‘lhash vositalari, ularning ishlash tamoyillari.

O‘lhash o‘zgartichlari, datchiklar va ularning turlari. Intellektual va virtual o‘lhash vositalari, ularni ishlash prinsiplari bilan tanishish. Intellektual o‘lhash vositalarini amaliyotda qo‘llash ahamiyati tahlili.

AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: Metrologiya sohasidagi asosiy tushuncha va atamalar, usullar va o‘lhash, sinash va nazorat vositalari.

Metrologiya sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiliginin o‘rganish. Metrologiya sohasidagi asosiy tushuncha va atamalar bilan tanishish.

2- amaliy mashg‘ulot: O‘lhash nazariyasi, asosiy o‘lhash xatoliklari nazariyasi.

O‘lhash jarayoni tahlili. O‘lhashda xatoliklarni kelib chiqishi va ularni bartaraf etish yo‘llari. Xatoliklarni hisoblash.

3- amaliy mashg‘ulot: O‘lhash usullari va vositalari, o‘lhash natijalarini qayta ishlash qoidalari, o‘lhash xatoliklarni baholash

O‘lhash natijalarini qayta ishlash. Xatoliklar bo‘yicha xisoblash ishlarini olib borish. Noaniqlik tushunchasi tahlili. Qiyoslash va kalibrlash.

Ko‘chma mashg‘ulotlar mazmuni

Mavzu: O‘lhash usullari va vositalari, o‘lhash natijalarini qayta ishlash qoidalari, o‘lhash xatoliklarni baholash

Kuchma mashg‘ulotda tinglovchilarni “O‘zstandart” agentligiga olib borish ko‘zda tutilgan.

Ta’limni tashkil etish shakllari

Ta’limni tashkil etish shakllari aniq o‘quv materiali mazmuni ustida ishlayotganda o‘qituvchini tinglovchilar bilan o‘zaro harakatini tartiblashtirishni, yo‘lga qo‘yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

Modulni o‘qitish jarayonida quyidagi ta’limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruza;
- amaliy mashg‘ulot;
- mustaqil ta’lim.

O‘quv ishini tashkil etish usuliga ko‘ra:

- jamoaviy;
- guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- yakka tartibda.

Jamoaviy ishlash – Bunda o‘qituvchi guruhlarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o‘quv maqsadiga erishish uchun o‘zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

Guruhlarda ishlash – bu o‘quv topshirig‘ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o‘quv jarayonida kichik guruxlarda ishlashda (3 tadan – 7 tagacha ishtirokchi) faol rol o‘ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta’limni tashkil etish shaklidir. O‘qitish metodiga ko‘ra guruhni kichik guruhlarga, juftliklarga va guruhlarora shaklga bo‘lish mumkin.

Bir turdagи guruhli ish o‘quv guruhlari uchun bir turdagи topshiriq bajarishni nazarda tutadi.

Tabaqalashgan guruhli ish guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

Yakka tartibdagi shaklda - har bir ta’lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL

TA’LIM METODLARI


“Venn diagramma” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiylari va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birqalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yoxud tushunchalarning umumiylari jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Transport vositalarida qo‘llaniladiganyonilg‘i turlari bo‘yicha



“AJIL” (“AMALIY JAMOAVIY IJODIY LOYIHALAR”) METODI

Metod talabalarda ijodiy faoliyat malakalarini shaklantirish, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy loyihalarning shakllari to‘g‘risidagi tushunchani hosil qilishga ko‘maklashishga xizmat qiladi.

Metodni qo‘llashda quyidagi taxlitda ish ko‘riladi:

O‘qituvchi metod haqida ma’lumot berib, u asosida muhokama qilinadigan mavzuni e’lon qiladi

O‘qituvchi talabalarga topshiriqlarni berib, ularni bajarish rejasini tuzishni aytadi

Shundan so‘ng talabalar kichik guruhlarda ishlaydi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

O‘qituvchi “Aqliy hujum” metodi yordamida har bir talabaning topshiriq borasidagi fikrlarini yozuv taxtasi yoki vatmonqog‘ozga yozib boradi.

Birgalikdagi muhokamadan so‘ng talabalar yagona loyiha-rejani tasdiqlashadi. (uni “Og‘zaki jurnal” deb nomlab, uning har bir sahifasiga alohida nom qo‘yish ham可能)

Talabalar kichik guruhlarga biriktiriladi

O‘qituvchi kichik guruhlarga “Og‘zaki jurnal”ning har bir sahifasi bilan tanishib chiqib, aniq bir sahifa mazmunini puxta o‘zlashtirish va uning mohiyatini yoritishga doir topshiriqni beradi

Topshiriqni bajarish uchun vaqt belgilanadi (maksimal vaqt 10 daqiqa)

Kichik guruhlar topshiriqni bajarish ustida ishlaydi (bu vaqtda kichik guruhlar o‘zlarini tanlagan sahifa mazmunini yoritish usullari, shakllari, ijrosi va uni taqdim qilish yo‘llarini aniqlagan holda topshiriqni bajaradi)

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, guruhlar o‘z yechimlarini navbatma-navbat namoyish etadi (yechimlar namoyishida imkon qadar barcha talabalar faol ishtirok etishlari talab qilinadi)

Butun jamoa o‘qituvchi rahbarligida kichik guruhlarning chiqishlarini muhokama qiladi (muhokamada guruhlarning yutuq va kamchiliklari, guruh bilan ishlashda har bir talaba o‘zlashtirgan ko‘nikmalar tahlil qilinadi; o‘qituvchi guruhlarga zarur tavsiya va tushunchalar berib, mashg‘ulotni yakunlaydi).

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. Metrologiya sohasidagi asosiy tushuncha va atamalar, usullar va o'lchash, sinash va nazorat vositalari

Reja:

1. O'lchash, sinash va nazorat vositalari umumiy tushunchalar.
2. Metrologiya sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi.
3. O'lchash usullari. O'lchash ob'yektlari va sub'yektlari.

Tayanch so'z va iboralar: metrologiya, o'lchash, sinash, o'lchash vositasi, o'lchash usuli, o'lchash ob'yekti va sub'yekti.

1. O'lchash, sinash va nazorat vositalari umumiy tushunchalar.

XX asrning ikkinchi yarmida xalq xo'jaligining barcha sohalaridagi ilm-fan, madaniyatning gurkirab rivojlanishini bejiz ilmiy-texnikaviy inqilob deb atalmaydi. Ilg'or ilmiy yutuqlar fanga, bizning kundalik hayotimizga kirib kelib, shu darajada odatiy bo'lib qolganki, aksariyat hollarda biz ularga e'tibor bermaymiz yoki sezmaymiz. Ba'zan esa, bizga, korxona yoki laboratoriya ga yetib kelguncha ularning qanchalik murakkab, notekis yo'llardan o'tganligini ko'z oldimizga keltirmasdan, fikr yuritmagan holda ulardan foydalanamiz. Yuqoridagilarning hammasi to'la ma'noda zamonaviy axborotli o'lchash texnikalariga ham tegishlidir.

O'lhashlar haqidagi fanning tarixi minglab yillarni tashkil etadi. O'lhashlarga bo'lgan ehtiyoj qadim zamonlarda yuzaga kelgan. Inson kundalik hayotida har xil kattaliklarni: masofalarni, yer maydonlarining yuzalarini, jismlarning o'lchamlari va massalarini, vaqtini va hokazolarni bu jarayonlarning yuzaga kelish sabablarini, manbalarini bilmasdan, o'zining sezgisi va tajribasi asosida o'lchay boshlagan.

Eng qadimgi o'lchash birliklari - antropometrik, ya'ni insonning muayyan a'zolariga muvofiqlikka yoki moyillikka asoslangan holda kelib chiqqan o'lchash birliklari hisoblanadi. Masalan: Ladon - bosh barmoqni hisobga olmaganda qolgan to'rttasining kengligi; fut - oyoq tagining uzunligi; pyad - yozilgan bosh va ko'rsatkich barmoqlar orasidagi masofa, qarich, quloch, qadam va hokazolar.

Asrlar o'ta bizga yetib kelgan ba'zi o'lchov birliklari xozirda xam ishlataladi. Masalan, qadimgi janubi-sharqda "loviya doni", "no'xotcha" ma'nosini bildirgan,

turli qimmatbaho toshlarning o‘lchov birligi sifatida ishlatilgan - KARAT: dorishunoslikda og‘irlik birligi qilib qo‘llanilayotgan, ingliz, fransuz, lotin va ispan tillarida “bug‘doy doni” ma’nosi bildiruvchi -GRAN va hokazolar.

Ba’zi bir tabiiy o‘lchovlar ham uzoq o‘tmishga ega. Ularning dastlabkilaridan biri, hamma yerda ishlatiladigan vaqt o‘lchovlaridir. Munajjimlarning ko‘p yillik kuzatishlari natijasida qadimgi Vavilonda vaqt birligi sifatida yil, oy, soat tushunchalari ishlatilgan. Keyinchalik yerning o‘z o‘qi atrofida to‘la aylanishiga ketgan vaqtning 1/86400 qismi sekund nomini olgan. Qadimgi Vavilonliklar bizning eramizgacha bo‘lgan II asrdayoq vaqtini Minalarda o‘lhashgan. Mina taxminan ikki astronomik soat vaqt oralig‘iga teng bo‘lib, bu vaqt mobaynida Vavilonda rasm bo‘lgan suv soatidan massasi taxminan 500 grammga teng bo‘lgan “mina suv” oqib ketgan. Keyinchalik mina o‘zgarib, biz o‘rganib qolgan minutga aylandi.

Vaqlar o‘tishi bilan suv soatlari o‘z o‘rnini qum soatlariga, ular ham vaqt kelib mayatnikli mexanizmlarga bo‘shatib berdilar.

Insoniyat taraqqiyoti rivojlanishining ilk davrlaridanoq “moddiy” o‘lhashlar va o‘lchov birliklarining katta ahamiyatini tushunib bilganlar.

Fan va texnikaning rivojlanishi har xil fizikaviy kattaliklarning o‘lchamlarini muayyan o‘lchovlarga qiyoslab kiritishni taqozo eta boshladi. Bunday faoliyat jarayoni va rivojlanishi davomida o‘lhashlar haqidagi fan, ya’ni **metrologiya** yuzaga keldi.

Ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi o‘lhash vositalari va usullarini mukammallashtirishni talab eta boshladi. O‘lhashlar nazariyasi hamda vositalarining rivojini aniqlab bergen texnika yutuqlarining uchta asosiy bosqichini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan va stanoklarga biriktirilgan o‘lhash vositalarining yaratilishini talab qiluvchi texnologik bosqich (manufakturna va mashina ishlab chiqarishning yuzaga kelishi);
- ishlab chiqarish jarayonlarini kuchaytirish sharoitida foydalaniayotgan o‘lhash vositalarining aniqligi, ishonchliligi va unumdorligini keskin oshirishni

talab qiluvchi energetik bosqich (bug‘ energiyasini ishlatish, ichki yonuv dvigatellarining yuzaga kelishi, elektr energiyasini ishlab chiqarish va ishlatish);

- zamonaviy fan yutuqlarining barchasini o‘lhash vositalarining tarkibiga kiritishni talab qilgan ilmiy-texnikaviy inqilob (fanni ishlab chiqarish bilan bog‘lash va uni bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylantirish) bosqichi. Bu bosqichning alohida xususiyatlardan biri ob’yektlar va jarayonlar holatini muayyan parametrlar yordamida umumiy baholovchi o‘lhash tizimlarini yaratish bo‘lib, olingan natijalarni bevosita texnik tizimlarni avtomatik boshqarish uchun foydalanishdan iboratdir.

Amaliyat juda keng ko‘lamdagи fizikaviy kattaliklar qiymatini, ko‘pincha juda tez (sekundning milliarddan bir ulushlarida), yuqori aniqliqda (xatolik o‘lchanayotgan qiymatning 10 % idan kichik) va nafaqat inson sezgi organlari to‘g‘ri ilg‘ay olmaydigan, balki hayot uchun sharoit bo‘lmagan holatlarda ham aniqlashni talab qiladi. Shu kunlarda fanga yuzdan ortiq har xil fizikaviy kattaliklar ma’lum bo‘lib, ularning 70 dan ortig‘ini o‘lhash mumkin. Hozirgi kunlarda fan va texnikaning rivojlanishi tufayli ilgari o‘lhab bo‘lmaydi deb hisoblangan kattaliklarni o‘lhash va baholash imkon yaratilmoqda. Masalan Sankt Peterburg aloqa instituti olimlari hidni o‘lhash borasida birmuncha yutuqlarni qo‘lga kiritganlar. Bu xususda buyuk italiyalik olim Galileo Galileyning quyidagi so‘zlarini eslab o‘tish o‘rinli bo‘ladi: - “O‘lhash mumkin bo‘lganini o‘lchang, mumkin bo‘lmaganiga esa imkon yarating”. Kondensatorning elektr sig‘imi, nurlanish oqimi, erigan metallning temperaturasi va atomning magnit maydoni kuchlanganligi kabi kattaliklarni maxsus texnikaviy vositalar - o‘lhash o‘zgartkichlari, asboblari va tizimlaridan foydalanmasdan o‘lhashni amalga oshirish mumkin emas. Bularning hammasi ongimizga, hayotimizga shunchalik singib ketganki, aksariyat hollarda biz ularning atrofimizda mayjud ekanligini sezmaymiz. Hamma joyda: uy-ro‘zg‘or va ishlab chiqarishda, dalada va kasalxonada, avtomobilda va ilmiy laboratoriyyada ular bizning beg‘araz va tengsiz yordamchilarimizdir.

Shundan kelib chiqib, biz o‘lhash, sinash, sinov va o‘lhash vositalariga qo‘yidagicha ta’rif berdik.

O'lhash deb, shunday solishtirish, anglash, aniqlash jarayoniga aytildiki, unda o'lchanadigan kattalik fizik eksperiment yordamida, xuddi shu turdag'i, birlik sifatida qabul qilingan miqdori bilan o'zaro solishtiriladi.

Sinash - o'rnatilgan proseduraga muvofiq bir yoki bir nechta tafsilotlar (xarakteristikalar) ni aniqlash.

Sinov - buyumning xususiyatlarini miqdoriy va (yoki) sifat xarakteristikalarini uni ishlashi, ta'sir qilishi sifatida tajriba yo'li bilan aniqlashga aytildi [GOST 16 504-81]. o'rnatilgan jarayonga mos holda mahsulot, jarayon yoki xizmatni bir yoki bir necha xarakteristikasini aniqlash yo'lidagi texnik operasiyadir.

O'lhash vositasi – metrologik tavsiflari me'yorlangan (MTM), o'lchami (belgilangan xatolik chegarasi) ma'lum vaqt oraliq'ida o'zgarmas deb qabul qilinadigan, kattalikning o'lchov birligini qayta tiklaydigan va (yoki) saqlaydigan, o'lhashlar uchun mo'ljallangan texnik vosita.

«TSt-45.025:2000 Metrologiya. Atamalar va ta'riflar» da o'lhash texnikasiga oid bo'lgan quyidagi ta'riflar berilgan.

O'lchovshunoslik – o'lhash, usul va vositalarning birliklarning birligini va talab qilingan aniqlikka erishish yo'llarini ta'minlaydigan fan.

Bir qiymatli o'lchovlar bir xil o'lchamli fizik kattalikni qayta o'lchaydi. Masalan: o'zgarmas sig'imli kondensatorlar, qadoq toshlar.

Bir qiymatli o'lchovlardan to'plamlar va magazinlar tashkil topadi. Ko'p qiymatli o'lchovlarga bo'linmali chizg'ichlar, induktivlik variometr iva o'zgaruvchan sig'imli kondensator misol bo'ladi.

O'lchovlar to'plami deb, maxsus tanlangan, faqat alohidagina emas, balki turli birikmalardan turli birikmalarda turli o'lchamli qator bir nomli kattaliklarni qayta o'lhash maqsadida qo'llaniladigan o'lchovlar majmuiga aytildi.

O'lhash asbobi deb, kuzatuvchi idrok qilish uchun qulay shakldagi o'lchov informatsiyasi signalini ishlab chiqishga xizmat qiladigan o'lhash vositasiga aytildi.

O'lhash asbobida kuzatuvchi o'lchanayotgan kattalikning shuqt qiyomatini o'qishi yoki sanashi mumkin. O'lhash asboblari analog (ko'rsatuvchi) yoki raqamli

bo‘lishi mumkin. Analog o‘lhash asboblarida asbobning ko‘rsatishi o‘lchanayotgan kattalik o‘zgarishining uzluksiz funksiyasidan iborat bo‘ladi, raqamli o‘lhash asboblarida esa ko‘rsatishlar o‘lchov informatsiyasi signalini diskret o‘zgartirish natijasidan iborat bo‘lgan raqamli shaklda ifodalangan bo‘ladi.

O‘lhash asboblari ko‘rsatuvchi; qayd qiluvchi; kombinatsiyalangan; integrallovchi va jamlovchi asboblarga bo‘linadi. Ko‘rsatuvchi asboblarda raqamli qiymatlar shkala yoki raqamli tablodan o‘qiladi.

Qayd qiluvchi asboblarda ko‘rsatuvlardan diagramma qog‘oziga yozib olinadi yoki raqamli tarzda chop etiladi. Kombinatsiyalangan asboblar o‘lchanayotgan kattalikni bir vaqtning o‘zida ko‘rsatadi xamda qayd qiladi.

Integrallovchi asboblarda o‘lchanayotgan kattalik vaqt bo‘yicha yoki boshqa arkli o‘zgaruvchi bo‘yicha qayd qiladi.

Namuna o‘lhash vositalari ish o‘lhash asboblarini tekshirish va ularni o‘zlarini bo‘yicha darajalashga xizmat qiladi.

Etalon deb, fan va texnikaning eng yuksak saviyasida aniqlik bilan ishlangan namunaviy o‘lchovlarga aytildi.

O‘lchov birligi o‘lhash natijasi ko‘rsatilgan birlikda ifodalangan va o‘lhash xatoligi berilgan extimollikda ma’lum bo‘lgan o‘lhash xolatidir.

O‘lhash aniqligi o‘lhash kattaligining xaqiqiy qiymatlariga o‘lhash natijalarining yaqinligini aks ettiruvchi o‘lhash sifatidir.

O‘lhash xatoligi o‘lhash natijasining o‘lchanayotgan kattalikning asl qiymatidan farqlanishidir.

Fizikaviy kattalikning asl qiymati xatoliklardan xoli bo‘lgan qiymatdir.

Fizikaviy kattalikning xaqiqiy qiymati tajriba yo‘li bilan topiladi va u kattalikning asl qiymatiga yaqin bo‘lagan son qiymatiga ega.

O‘lchanayotgan kattalikning xaqiqiy qiymati yo‘l qo‘yilgan xatoliklar ta’sirida olingan natijalar qiymatidir.

O‘lchanayotgan ob’yekti yoki bu fizik kattalikdir.

O‘lchanayotgan kattalik u bilan fizikaviy jixatdan bir jinsli bo‘lgan ma’lum o‘lchamli kattalik bilan taqqoslanadi.

Taqqoslash natijasini miqdoran keltirish uchun o‘lchov birliklaridan foydalaniladi.

Taqqoslash natijasini quyidagi ifoda ko‘rinishida yozish mumkin:

$$Q / [q] = a \quad (1)$$

Bu yerda Q -o‘lchanayotgan kattalik; $[q]$ -o‘lchov birligi; a -o‘lchanayotgan kattalikning qabul qilingan birlikdagi son qiymati.

Quyidagi ifoda o‘lhashning asosiy tenglamasi deyiladi:

$$Q = a[q] \quad (2)$$

Masalan: $I = 0,1A$;

Informatsion-o‘lhash tizimlari-ular ko‘plab nuqtalarda avtomatik o‘lhashni amalga oshirishni ta’minlab qolmay (o‘lhash kanallarining soni ming-minglab bo‘lishi mumkin), balki o‘lhash natijalarini berilgan algoritmlar bo‘yicha zaruriy qayta ishslashni ham bajaradi.

2. Metrologiya sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi.

Ma’lumki, 1993 yilning 28 dekabrida Prezidentimiz tomonidan ketma-ket uchta, ya’ni “Standartlashtirish to‘g‘risida”, “Metrologiya to‘g‘risida” va “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish” Qonunlari imzolangan edi. Bu qonunlarning hayotga tadbiq etilishi respublikamizdagi mavjud metrologiya xizmatini yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarilishiga asos bo‘ldi. Shulardan biri, ya’ni “Metrologiya to‘g‘risida” gi qonun ustida biroz to‘xtalib o‘tamiz.

Bu qonun respublikamizda metrologiyaning rivojlanishiga va metrologik ta’milot masalalarini hal etishning mutlaqo yangi bosqichiga olib kirdi.

“Metrologiya to‘g‘risida” gi qonun 5 bo‘limdan iborat bo‘lib, bu bo‘limlar 21 muddani o‘z ichiga olgan. Respublikamizda metrologiya xizmatini yo‘lga qo‘yish va bunda jismoniy va yuridik shaxslarning ishtiropi va funksiyalari, bu boradagi javobgarliklar bo‘yicha keng ma’lumotlar berilgan.

Qonunda ko‘rsatilganidek, o‘lhash vositalarining davlat sinovlarini o‘tkazish, ularning turlarini tasdiqlash va davlat ro‘yxatiga kiritish “O‘zstandart” agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunda yana bir masala - davlat ro‘yxati belgisini qo‘yish to‘g‘risida ham bayon etilgan. “Metrologiya to‘g‘risida” gi qonunda aytishicha, tasdiqlangan o‘lhash vositalariga yoki ularning foydalanish hujjatlariga ishlab chiqaruvchi davlat ro‘yxati belgisi qo‘yilishi shart.

Ma’lumki, ishlab chiqarishdagi o‘lhash vositalarining holati va ularni vaqtiga bilan qiyoslashdan o‘tkazib turish har doim e’tiborda bo‘lmoqligi lozim. Ular bo‘yicha ro‘yxatlar tuziladi va o‘lhash vositalari turkumlarining ro‘yxati “O‘zstandart” agentligi tomonidan tasdiqlanadi. Ilmiy-tadqiqotlar bilan bog‘liq o‘lhash vositalari, asboblari, qurilmalari hamda o‘lchovlari “Metrologiya to‘g‘risida”gi qonunning 17-moddasi asosida “O‘zstandart” agentligining davriy ravishda qiyoslashdan o‘tkazilib turilishi lozim bo‘lgan o‘lhash vositalari guruhining ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, shu qonunning 7-moddasiga binoan, amaliy foydalanishda bo‘lgan o‘lhash vositalari belgilangan aniqlikda va foydalanish shartlariga mos holda, qonuniy birliklardagi o‘lhash natijalari bilan ta’minlashlari lozimligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

3. O‘lhash usullari. O‘lhash ob’yektlari va sub’yektlari.

Kattalikning sonli qiymatini odatda o‘lhash amali bilangina topish mumkin, ya’ni bunda ushbu kattalik miqdori birga teng deb qabul qilingan shu turdag'i kattalikdan necha marta katta yoki kichik ekanligi aniqlanadi.

O‘lhash deb, shunday solishtirish, anglash, aniqlash jarayoniga aytildiki, unda o‘lchanadigan kattalik fizik eksperiment yordamida, xuddi shu turdag'i, birlik sifatida qabul qilingan miqdori bilan o‘zaro solishtiriladi.

Bu ta’rifdan shunday xulosaga kelish mumkinki: birinchidan, o‘lhash bu har xil kattaliklar to‘g‘risida informasiya hosil qilishdir; ikkinchidan, bu fizik eksperimentdir; uchinchidan - o‘lhash jarayonida o‘lchanadigan kattalikning o‘lchov birligining ishlatilishidir. Demak, o‘lhashdan maqsad, o‘lchanadigan kattalik bilan uning o‘lchov birligi sifatida qabul qilingan miqdori orasidagi (tafovutni) nisbatni topishdir. Ya’ni, o‘lhash jarayonida o‘lhashdan ko‘zda tutiladigan maqsad, ya’ni izlanuvchi kattalik (bu shunday asosiy kattalikki uni aniqlash butun izlanishni, tekshirishni vazifasi, maqsadi hisoblanadi) va **o‘lhash ob’yekti** ishtirok etadi.

O'lhash ob'yekti (o'lchanadigan kattalik) shunday yordamchi kattalikki, uning yordamida asosiy izlanuvchi kattalik aniqlanadi, yoki bu shunday qurilmaki, uning yordamida o'lchanadigan kattalik solishtiriladi. **O'lhash sub'yekti** deganda, o'lhashlarni amalga oshirayotgan shaxs tushuniladi.

Shunday qilib, uchta tushunchani bir-biridan ajrata bilish kerak; o'lhash, o'lhash jarayoni va o'lhash usuli.

O'lhash - bu umuman har xil kattaliklar to'g'risida informasiya qabul qilish, o'zgartirish demakdir. Bundan maqsad izlanayotgan kattalikni son qiymatini qo'llash, ishlatish uchun qulay formada aniqlashdir.

O'lhash jarayoni - bu solishtirish eksperimentini o'tkazish jarayonidir (solishtirish qanday usulda bo'lmasin).

O'lhash usuli esa - bu fizik eksperimentning aniq ma'lum struktura yordamida, o'lhash vositalari yordamida va eksperiment o'tkazishning aniq yo'li, algoritmi yordamida bajarilishi, amalga oshirilishi usulidir.

O'lhash odatda o'lhashdan ko'zlangan maqsadni (izlanayotgan kattalikni) aniqlashdan boshlanadi, keyin esa shu kattalikning xarakterini analiz qilish asosida bevosita o'lhash ob'yekti (o'lchanadigan kattalik) aniqlanadi. O'lhash jarayeni yordamida esa shu o'lhash ob'yekti to'g'risida informasiya hosil qilinadi va nihoyat ba'zi matematik qayta ishlash yo'li bilan o'lhash maqsadi haqida yoki izlanayotgan kattalik haqida informasiya (o'lhash natijasi) olinadi.

O'lhash natijasi - o'lchanayotgan kattalikning son qiymatini o'lhash birligiga ko'paytmasi tariqasida ifodalanadi.

X=n[x], bu yerda X - o'lchanadigan kattalik;

n - o'lchanayotgan kattalikning qabul qilingan o'lchov birligidagi son qiymati;
[x] - o'lhash birligi

O'lhash jarayonini avtomatlashtirish munosabati bilan o'lhash natijalari o'zgarmasdan to'g'ridan-to'g'ri elektron hisoblash mashinalariga yoki avtomatik boshqarish tizimlariga berilishi mumkin. Shuning uchun, keyingi paytlarda, ayniqsa, kibernetika sohasidagi mutaxassislarda o'lhash haqidagi tushuncha quyidagicha ta'riflanadi.

O'lhash – bu izlanayotgan kattalik haqida informasiya qabul qilish va o'zgartirish jarayonidir. Bundan ko'zda tutilgan maqsad shu o'lchanayotgan kattalikning ishlatish, o'zgartirish, uzatish yoki qayta ishlashlar uchun qulay formadagi ifodasini ishlab chiqishdir.

Turkumlash o'lchanadigan turli kattaliklar uchun turlicha bo'lgan umumiyl belgilar bo'yicha amalga oshiriladi.

- Xarakter bo'yicha;
- O'lhash usullari bo'yicha;
- O'lhash natijalarini ifodalash usullari bo'yicha;
- Foydalanilgan o'lhash usuli bo'yicha.


O'lchanayotgan kattalikning vaqtga bog'liqligi xarakteri bo'yicha o'lhashlar statik va dinamik bo'ladi.

Statik o'lhash bunda o'lchanaytgan kattalik o'zgarmas bo'ladi. M:termostat

Dinamik o'lhash, bunda o'lchanayotgan kattalik vaqtga bog'liq bo'ladi.

Masalan:


Elektr kuchlanishining vaqtga bog'liqligi.



1-rasm. Kattalikning vaqtga bog'liqligi

O'lhash turi bo'yicha: bevosita, bilvosita, birgalikda va birlashtirib

O'lhash usullari bo'yicha esa quyidagicha:



2-rasm. O'lhash usullarining tavsifi

O'lchanayotgan kattalikning son qiymati bevosita, bilvosita, birlashtirish va birgalikda o'lhash turlari yordamida topiladi.

Laboratoriya amaliyotida va ilmiy tekshirishlarda birlashtirib va birgalikda o'lhash usullaridan foydalaniladi.

Bevosita o'lhash deb shunday o'lhashga aytiladiki, unda o'lchanayotgan kattalikning izlanayotgan qiymati tajriba ma'lumotlaridan bevosita aniqlanadi.

Bilvosita o'lhash deb shunday o'lhashga aytiladiki, unda o'lhash natijasi o'lchanayotgan kattalik bilan ma'lum munosabat yordamida bog'langan kattaliklarni bevosita o'lhashga asoslangan bo'ladi. Bilvosita o'lhashda o'lchanayotgan kattalikning qiymat quyidagi tenglamani yechish yuo'li bilan topiladi.

$$X=F(x_1, x_2, x_3, \dots, x_n) \quad (1)$$

$X_1, X_2, X_3, \dots, X_n$ – bevosita o'lhash bilan olingan kattaliklar qiymati.
Masalan: R prezistorning qarshiligi ushbu tenglamadan topiladi.

$$R_X=U_X/I_X \quad (2)$$

Unga rezistordagi kuchlanishning tushgan qiymati va rezistordan o'tgan tokning qiymati qo'yiladi. Birlashtirib o'lhash bir nechata bir nomli kattaliklarni bir vaqtda o'lhashdan iborat bo'lib, unda izlangan kattaliklarning qiymatlari bevosita o'lhashda xosil qilingan tenglamalar tizimidan topiladi.

Masalan: Uchburchak usulida ulangan rezistorlarning qarshiligini o‘lhash – bunda uchburchakning turli uchlaridagi qarshiliklar o‘lchanadi va uch o‘lchov natijalari asosida rezistorlarning qarshiliklari aniqlanadi.

Birgalikda o‘lhash deb, bir vaqtda ikki yoki bir necha turli nomli kattaliklarni ularning orasidagi funksional bog‘lanishlarni, munosabatlarni topish uchun olib borilgan o‘lhashlarga aytildi va bunda tenglamalar sistemasi yechiladi.

$$\begin{aligned} F(x_1, x_2, x_3, \dots, x_n', x_1', x_2', xz', \dots, x_m') &= 0 \\ F(x_1, x_2, x_3, \dots, x_n'', x_1'', x_2'', xz'', \dots, x_m'') &= 0 \\ F(x_1, x_2, xz, \dots, x_n, x^{(n)}, x_2^{(n)}, x_3^{(n)}, \dots, x_m^{(n)}) &= 0 \end{aligned} \quad (3)$$

x_1, x_2, x_z, x_n – noma’lum kattaliklar

$x_1', x_2', x_3', \dots, x_m'$; $x_1'', x_2'', x_3'', \dots, x_m''$; $x_1^{(n)}, x_2^{(n)}, x_3^{(n)}, \dots, x_m^{(n)}$ – o‘lchangan kattalik qiymati. Birgalikda o‘lhashga misol: Rezistor qarshiligining xaroratga bog‘liqligini aniqlash.

$$R_t = R_o(l + At + Bt^2) \quad (4)$$

3 ta turli xaroratda rezistor qarshiligi o‘lchanadi va 3 ta tenglamali sistema tuziladi, ulardan R , A va V bog‘lanish parametrlari topiladi.

R_o – 20 S dagi qarshilik;

A , V - temperatura koyeffitsiyenti;

t – atrof-muxit harorati.

O‘lhash prinsipini va vositasini belgilab beradigan usullar o‘lhash usul deb ataladi.

O‘lhashlarda quyidagi usullardan foydalaniladi.

1-bevosita, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri baxolash usuli.

2-o‘lchov bilan taqqoslash quyidagi usullarni o‘z ichiga oladi.

a-differensial (ayirmali) usul

b-nol (kompensatsion) usul

v-o‘rniga qo‘yish usul


g-moslashtirish usuli

Bevosita baxolash usuli - bu usulda kattalikning qiymati o‘lchov asbobining sanoq qurilmasidan bevosita aniqlanadi.

Masalan: Tok kuchi ampermetr bilan, kuchlanish voltmetr bilan o'lchanadi, lekin aniqligi yuqori emas. Ko'rsatkichli asboblar shu usul asosida ko'rildi.

O'lchov bilan taqqoslash usuli:

A) differensial usu lyoki ayirmali usul – bu- usul o'lchanayotgan va ma'lum kattaliklarning ayirmasini o'lhashni xarakterlaydi, ya'ni kattaliklar orasidagi farq o'lhash asbobiga ta'sir ko'rsatadi.



3-rasm. Differensial usul chizmasi

Agar $X = X_0 + \Delta$ va $\Delta=0$ bo'lsa differensial usul «nol» usulga aylanadi.


Bu usul o'lchov asboblarini tekshirishda keng qo'llaniladi. Uncha aniq bo'limgan o'lhash asboblaridan foydalanilganda ham yuqori aniqlikda natijalar olish imkonи mavjud.

Masalan: Tok kuchlanish o'lchov transformatorlarida. Elektr o'lchov texnikasida keng foydalaniladigan o'zgaruvchan va o'zgarmas tok ko'priklarining ishi shu usulga asoslangandir.

b) nol usuli o'lhashlarda yuqori aniqlikni ta'minlaydi.

Masalan: Elektr qarshilikni ko'rik yordamida o'lhash.

Nol muvozanatlash usulida o'lchanayotgan kattalik o'lchov bilan taqqoslanadi, ammo ular orasidagi ayirma qiymati ma'lum bo'lgan kattalikni o'zgartirish usuli bilan nolga keltiriladi.




4-rasm. «0» Usul chizmasi



5-rasm. Qarshilik qo'yish usuli

v) qarshi-qo'yish usuli

O'lchanayotgan va qiymat ma'lum kattalik bir vaqtda taqqoslash asbobiga ta'sir ko'rsatadi va ta'sir yordamida bu kattaliklar orasidagi munosabat tiklanadi.



6-rasm. O‘rniga qo‘yish usuli bilan to‘rtqutblining parametrlarini o‘lchash chizmasi

g) o‘rniga qo‘yish usuli-dastlab o‘lchash qurilmasiga parametri noma’lum bo‘lgan o‘lchanayotgan element o‘lchanadi va asbobning ko‘rsatishi yozib olinadi. Keyin esa bu element o‘rniga boshqa ma’lum parametrli element ulanadi va uning qiymati o‘lchash asbobining dastlabki ko‘rsatkichiga tenglashguncha o‘zgartiriladi. Bu xolda o‘lchangan va ma’lum kattalik qiymatlari bir-birig teng bo‘ladi.

d) moslashtirish yoki keltirish usulida – o‘lchangan kattalikning qiymati signal belgi va boshqa xususiyatlarning mos kelishi bilan aniqlanadi.

Barcha o‘lchashlar analog uzlucksiz va uzlukli o‘lchashlarga bo‘linadi.

Analog-uzluksiz o‘lchashda o‘lchanayotgan kattalikning qiymati uzlucksiz ravishda qayd qilinadi.

Uzlucksiz-diskret o‘lchashida esa o‘lchashlar natijasi faqat ayrim vaqt momentlarda qayd qilinadi.

Nazorat savollari

1. O‘lchash nima?
2. O‘lchash vositasi nima?
3. O‘lchashning qanday turlarini bilasiz?
4. O‘lchash usuli nima?
5. Qanday o‘lchash usullarini bilasiz?

Foydalilanigan adabiyotlar

- 1.Peregudov L.V., Saidov M.X., Fayziyev R.R., Ismatullayev F.R., Abidov O.S. Upravleniye kachestvom i konkurentosposobnostyu produksii. Tashkent, 2001.
- 2.Demina L.N. Metody i sredstva izmereniy, ispytaniy i kontrolya:Uchebnoye posobiye. - M.: NIYAU MIFI, 2010. - 292 s.
3. Turayyev Sh.A., Boboyyev G‘.G‘., Byekmurotov Ch.A. “Mahsulot sifat nazorati va sinov qurilmalari” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun uslubiy ko‘rsatmalar. –Toshkent: ToshDTU, 2014. 122 b.
4. Sudarikova Ye. V. Nerazrushayushchiy kontrol v proizvodstve: ucheb. posobiye. Ch. 1.; GUAP. - SPb., 2007. - 137 s.: il.

2-mavzu: O‘lchash nazariyasi, asosiy o‘lchash xatoliklari nazariyasi.

Reja:

1. O‘lchash, o‘lchash xatoliklari va ularning kelib chiqish sabablari.
2. O‘lchash xatoliklari va ularning turlari.
3. O‘lchash xatoliklari va ularni bartaraf etish yo‘llari.
4. O‘lchash noaniqligi to‘g‘risida qisqacha tushuncha

Tayanch so‘z va iboralar: o‘lchash, o‘lchash xatoligi, noaniqlik, muntazzam xatolik, mutloq, nisbiy, statik, dinamik, qo‘pol xatoliklar.

1. O‘lchash, o‘lchash xatoliklari va ularning kelib chiqish sabablari

O‘lchash xatoliklari turli sabablarga ko‘ra turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Bu sabablar qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- o‘lchash vositasidan foydalanishda uni sozlashdan yoki sozlash darajasini siljishidan kelib chiquvchi sabablar;
- o‘lchash ob’yektini o‘lchash joyiga (pozisiyasiga) o‘rnatishdan kelib chiquvchi sabablar;
- o‘lchash vositalarining zanjirida o‘lchash ma’lumotini olish, saqlash, o‘zgartirish va tavsiya etish bilan bog‘liq sabablar;
- o‘lchash vositasi va ob’yektiga nisbatan tashqi ta’sirlar (temperatura yoki bosimning o‘zgarishi, elektr va magnit maydonlarining ta’siri, turli tebranishlar va hokazolar) dan kelib chiquvchi sabablar;
- o‘lchash ob’yektining xususiyatlaridan kelib chiquvchi sabablar;
- operatorning malakasi va holatiga bog‘liq sabablar va shu kabilar.

O‘lchash xatoliklarini kelib chiqish sabablarini tahlil qilishda eng avvalo o‘lchash natijasiga salmoqli ta’sir etuvchilarini aniqlash lozim bo‘ladi.

2. O‘lchash xatoliklari va ularning turlari.

O‘lchash xatoliklari quyidagicha klassifikasiyasiyalanadi.

1.Xatoliklar namoyon bo‘lishi xarakteriga ko‘ra; (muntazam, tasodifiy va qo‘pol xatoliklar).

2.Sonli ifodalanish usuliga ko‘ra; (absolyut, nisbiy va keltirilgan xatoliklar).

3.Kirish kattaligining vaqt bo'yicha o'zgarish xarakteriga ko'ra; (statik va dinamik).

4.O'lchanayotgan kattalikka bog'liqligiga ko'ra; (additiv va multiplikativ).

5.Atrof-muhit parametrlarining ta'siriga ko'ra (asosiy va qo'shimcha).

1.Muntazam xatolik deyilganda, faqat bita kattalikni qayta-qayta o'lchanganda o'zgarmas bo'lib qoladigan yoki biror qonun bo'yicha o'zgaradigan o'lhash xatoligi tushuniladi. Ular aniq qiymat va ishoraga ega bo'ladi, ularni tuzatmalar kiritish yo'li bilan yo'qotish mumkin.

Kattalikni o'lhash natijasida olingan qiymatga muntazam xatolikni yo'qotish maqsadida qo'shiladigan qiymat tuzatma deb ataladi.

Xatoliklar:

- a) instrumental (o'lhash asboblari);
- b) o'lhash usuli;
- v) sub'yektiv (noaniq o'qish);
- d) o'rnatish;
- g) uslubiy xatoliklarga bo'linadi.

Instrumental xatolik deyilganda, qo'llanilayotgan o'lhash asboblari xatoliklarga bog'liq bo'lgan o'lhash xatoliklari tushuniladi, bu xatolik tuzatma kiritish usuli bilan yo'qotiladi. Texnik o'lhash asboblarining instrumental xatoliklarini yo'qotib bo'lmaydi, chunki bu asboblar tuzatmalar bilan ta'minlanmaydi.

O'lhash usuli xatoligi - usulning takomillashmaganligi natijasida kelib chiqadigan xatolik tushuniladi. Bu xatolik o'lhash vositasi, xususan, o'lhash qurilmasi, ba'zida esa, o'lhash natijasi xatoliklarini baxolashda e'tiborga olinishi lozim.

Sub'yektiv xatoliklar – kuzatuvchining shaxsiy xususiyatlaridan masalan biror signal berilgan paytni qayd qilishda kechikish yoki shoshilishdan, shkala bir bo'limi chegarasida ko'rsatuvni notog'ri yozib olishdan, paralaksdan va boshqalar.

O'rnatish hatoligi – o'lhash asbobi ko'rsatkichining shkala boshlang'ich belgisiga noto'g'ri o'rnatilishi natijasida yoki o'lhash vositasini e'tiborsizlik bilan,

masalan: vertikal yoki gorizontal bo'yicha o'rnatilmasligi natijasida kelib chiqadi. O'lchash metodikasi xatoliklari kattaliklarni o'lchash shartlari metodikasi bilan bog'liq bo'lgan va qo'llanayotgan o'lchash asboblariga bog'liq bo'limgan xatoliklardan iborat. Ayniqsa, aniq o'lchashlarni bajarishda o'lchash natijasini muntazam xatoliklar anchagina buzishi mumkin.

Tasodifiy xatolik deyilganda, faqat, bitta kattalikni qayta-qayta o'lchash movaynida tasodifiy o'zgaruvchi o'lchash tushuniladi. Bu xatolik borligini faqat bita kattalikni bir xil sinchkovlik bilan qayta-qayta o'lchangandangina sezish mumkin.

Agar har bir o'lchash natijasi boshqalaridan farq qilsa, u holda tasodifiy hatolik mavjud bo'ladi. shu xatoliklarni baholash yextimollar nazariyasi va matematik statistika nazariyasiga asoslangan bo'lib, ular o'lchash natijasi o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatiga yaqinlashish darajasini baholash metodlarini, xatolik extimoliy chegarasini baxolash imkonini bera, ya'ni natijani aniqlash, boshqacha aytganda, o'lchanayotganda kattalikning haqiqiy qiymatiga anchaginayaqin qiyatini topi shva bir karali kuzatish natijasini topish imkonini beradi.

O'lhashning qo'pol xatoligi deyilganda, berilgan shartlar bajarilganda kutilgan natijadan tubdan farq qiladigan o'lchash xatoligi tushiniladi.

Yuqorida aytilgandek, o'lchash natijasi xech qachon absolyut aniq yoki fizik kattalikning asl qiymatiga teng bo'lmaydi. Bunga ko'p omillar sabab bo'ladi.

2. Agar xatolik o'lchanayotgan kattalikning o'lchov birliklarda ifodalangan bo'lsa, bunday xatolik absolyut mutloq xatolik deyiladi.

$$\Delta A = A_{o'lch} - A_{xaq}; \quad (5)$$

Amalda o'lhashning nisbiy xatoligidan ko'p foydalilaniladi. Nisbiy xatolik – absolyut xatolikning o'lchanayotgan kattaning haqiqiy yoki o'lchanayotgan qiymatga nisbatidir.

$$\delta = \frac{\Delta A}{A_{xaq}} * 100\% = \frac{A_{o'lch} - A_{xaq}}{A_{xaq}} * 100\% \quad (6)$$

O'lchash vositalarining xatoliklari quyidagilardir:

1. Absolyut xatolik.
2. Nisbiy xatolik.

3.Keltirilgan xatolik.

O'lhash asbobining absolyut xatoligi deb, asbobning ko'rsatishi bilan o'lchanayotgan kattalikning xaqiqiy qiymati orasidagi farqqa aytildi.

$$\Delta A = A_{o'lch} - A_{xaq} = \pm \Delta A ; (7)$$

Bunda xatoliklar musbat yoki manfiy ishora bilan kattalikning birliklarida ifodalanadi.

Absolyut xatolikning kattalikning haqiqiy qiymatiga nisbatan nisbiy xatolik deb ataladi va %larda ifodalanadi.

$$\delta = \frac{\Delta A}{A_{xaq}} * 100\%; \quad (8)$$

Amalda keltirilgan hatolik deb, nomlangan ya'ni absolyut xatolik asbobining o'lhash chegarasiga natijasini ham xarakterlaydi.

$$\gamma = \frac{\Delta A}{A_{nno}} * 100\%; \quad (9)$$

O'lhashlar aniq bo'lishi uchun xatosi kichik asboblardan foydalaniladi. Ba'zan kattalikning haqiqiy qiymatini topish uchun asbob ko'rsatishi tuzatish koyeffitsiyentiga ko'paytiriladi.

$$A_{XAQ} = K A_{nom}; \quad (9a)$$

Keltirilgan xatolik γ_{kel} asbobning aniqlik klassini $K_{a.k}$ xarakterlaydi.

GOST 22261-82;8.009-84 binoan aniqlik klasining quyidagi qator mavjuddir:

$$(1.0; 1.5; 2.0; 2.5; 4.0; 5.0; 6.0) * 10^n \quad n=(1-0; 0; -1; -2)$$

Aniqlik klass iva keltirilgan xatolik orasidagi ush bu munosabat o'rinnlidir:

$$K_{a.k} \geq |\gamma_{kel}|; \quad (10)$$

Masalan: keltirilgan xatolik $\gamma_{kel} \sim 0.22$ bo'lsa, bu o'lhash vositasiga $K_{an}=0.25$ aniqlik klassi beriladi.

3.O'lchanayotgan kattalikka bog'liqligi hisobga olingan holda xatoliklar additiv (absolyut) xatolik va multiplikativ xatoliklarga ajratiladi.


Additiv xatolik o‘lchanayotgan kattalikka bog‘liq emas, multiplikativ xatolik esa o‘lchangan kattalikka proporsionaldir.

Additiv xatolik «O» ning xatoligi, multiplikativ xatolik esa sezgirlik xatosi deb aytiladi. Amalda o‘lhash vositasi ikala xatolikni o‘z ichiga oladi.

Agar xatolikning qiymati diapazon bo‘yicha doimiy bo‘lsa (1-chiziq), o‘lhash vositasining bo‘nday xatosi additiv deyiladi. Agar o‘lhash vositasi faqat additiv xatolikka ega bo‘lsa, unda asbobning xatoligi absolyut xatolik bilan normalanadi. Multiplikativ xatolik o‘lchanayotgan kattalikka bog‘liq holda chiziqli ravishda o‘sib boradi, shunga ko‘ra, nisbiy qiymat (2-3 to‘g‘ri chiziq) diapazonda doimiy bo‘lib qoladi. Shuning uchun bu xatolik nisbiy xatolik tarzida normalashtiriladi. (6-rasm)

Multiplikativ xatolik nochiziqli elementli qurilmalarda paydo bo‘ladi. Masalan: ACHT ning o‘lhashida multiplikativ xatolik paydo bo‘ladi.

Ko‘rsatkichli asboblar uchun nisbiy xatolik 0,5-6% foizni tashkil qiladi.




- 1) Δ - conzt
- 2) $\Delta = \delta x$ (δ -conzt)
- 3) $\Delta = \Delta_0 + \delta x$

4.O‘lhash vositalari yoki dinamik ish tartibida ishlatilishi mumkin.

Statik tartibida o‘lchanayotgan kattalik vaqt bo‘yicha o‘zgarmaydi. Dinamik rejimida o‘lchanayotgan kattalik vaqt bo‘yicha o‘zgaradi. Shunga ko‘ra, ular o‘lhash vositalarining statik xatoligi va dinamik tartibidagi xatoligi deb yuritiladi.

5.GOST 22261-82 (Xarorat, bosim, namlik)

(Xaroratni taminlash kuchlanishi. Elektr tarmoq kuchlanishi va xalaqitlar. Magnit maydoni kuchlanganligi, atmosfera bosim, hamvoning nisbiy namligi). O'lhash vositasi o'lhash o'tkazilayotgan zanjir bilan o'zaro ta'sirlashadi. O'lhash vositasi va elektr zanjirining bir-biriga ta'sir usuliy xatoliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.



a_1 – asbob shovqini va uning elementlarining eskirishi
 a_2 – ishlab chiqarishda parametrlarning chetlanishi
 a_3 – atrof-muhit parametrlarning ta'siri

3. O'lhash xatoliklari va ularni bartaraf etish yo'llari.

Umuman, muntazam xatolikni yo'qotish yo'li bir aniq ishlab chiqilmagan. Lekin, shunga qaramay, muntazam xatolikni kamaytirishni ba'zi bir usullari mavjud.

1. *Xatoliklar chegarasini nazariy jihatdan baholash*, bu uslub o'lhash uslubini, o'lhash vositalarining xarakteristikalarini, o'lhash tenglamasini va o'lhash sharoitlarini analiz qilishga asoslanadi. Masalan: o'lhash asbobining parametrlari yoki tekshirilayotgan zanjirning ish rejimini bilgan holda biz uning tuzatmasini (xatoligi) topishimiz mumkin. Xatolik, bunda, asbobning iste'mol qiluvchi quvvatidan, o'lchanayotgan kuchlanishning chastotasini oshishidan hosil bo'lishi mumkin.

2. *Xatolikni o'lhash natijalari bo'yicha baholash*. Bunda o'lhash natijalari har xil prinsipdagi usul va o'lhash apparaturasidan (vositalaridan) olinadi. O'lhash

natijalari orasidagi farq - muntazam xatolikni xarakterlaydi. Bu uslub yuqori aniqlikdagi o'lhashlarda ishlatiladi.

3. *Har xil xarakteristikaga ega bo'lgan, lekin bir xil fizikaviy prinsipda ishlaydigan apparatura yordamida o'lhash usuli.* Bunda o'lhash ko'p marotaba takrorlanib, o'lhash natijalari muntazam statistika usuli yordamida ham ishlanadi.

4. *O'lhash apparaturasini ishlatishdan oldin sinovdan o'tkazish.* Bu usul ham aniq o'lhashlarda ishlatiladi.

5. *Muntazam xatoliklarni keltirib chikaruvchi sabablarni yo'qotish yo'li.* Masalan: tashqi muhit temperaturasi o'zgarmas qilib saqlansa, o'lhash vositasini tashqi maydon ta'siridan himoyalash maqsadida ekranlashtirilsa, manba kuchlanishi turg'unlashtirilsa (stabillashtirilsa) va h.k.

6. *Muntazam xatolikni yo'qotishning maxsus usulini qo'llash:* o'rindoshlik), differensial usuli, simmetrik kuzatishlardagi xatoliklarni kompensasiyalash usuli.

Tasodify xatoliklar va ularning taqsimlanishi

Tasodify xatolik biror fizikaviy kattalikni takror o'lchaganda hosil bo'ladigan, o'zgaruvchan, ya'ni ma'lum qonuniyatga bo'ysinmagan holda kelib chiqadigan xatolikdir. Bu xatolik ayni paytda nima sababga ko'ra kelib chiqqanligi noaniqligicha qoladi, shuning uchun ham uni yo'qotish mumkin emas. Haqiqatda o'lhash natijasida tasodify xatolikni mavjudligi takror o'lhashlar natijasida ko'rinadi va uni hisobga olish, o'lhash natijasiga uni ta'siri (yoki o'lhash aniqligini baholash) matematik statistika usuli yordamida amalga oshiriladi.

Bevosita o'lhashlar natijasining xatoliklarini baholashda quyidagi funksiyadan foydalilanildi:

$$y=f(x_1, x_2, \dots, x_n),$$

bu yerda f - aniq funksiyadir, x_1, x_2, \dots, x_n - bevosita o'lhash natijasi.

Xatolikni baholash uchun esa xatolikning taxminiy formulasidan foydalilanildi.

Absolyut (mutlaq) xatolikning maksimal qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$\Delta y = \sum_{i=1}^m \left| \frac{\partial y}{\partial x_i} \right|_{x_i=x_0} \cdot \Delta x_i$$

Xatolikning nisbiy qiymati esa quyidagi formuladan topiladi:

$$\delta_y = \frac{\Delta y}{y} = \sum_{i=1}^m \left| \frac{\partial y}{\partial x_i} \right|_{x_i=x_m} \cdot \frac{x_i}{y} \cdot \delta_{x_i}$$

Tasodifiy xatolik esa (uning dispersiyasi) quyidagicha hisoblanadi:


$$\sigma_y^2 = \sum_{i=1}^m \left(\frac{\partial y}{\partial x_i} \right)_{x_i=x_m}^2 \cdot \sigma_i^2$$

O'lhash vositalarini aniqligini, qanchalik aniq o'lhashini baholash uchun o'lhash vositalarining aniqlik klassi (sinf) degan tushuncha kiritilgan. **Aniqlik klassi** - bu o'lhash vositalarini shunday umumlashgan xarakteristikasi bo'lib, ularning yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan asosiy va qo'shimcha xatoliklari chegarasi (doirasi) bilan aniqlanadi. Demak aniqlik klassi o'lhash vositasining aniqlik ko'rsatkichi emas, balki uning hususiyatlari bilan belgilanadi, aniqlanadi.

O'lhash vositalarining absolyut xatoligi o'lchanadigan kattalikning o'zgarishiga bog'liq, shuning uchun ham absolyut xatolik ifodasi ikki tashkil etuvchidan iborat deb qaraladi. Masalan: absolyut xatolikning maksimal qiymati quyidagicha ifodalanadi:

$$|\Delta|_{max} = |a| + |b \cdot x|$$

Xatolikning birinchi tashkil etuvchisi o'lchanadigan kattalikning qiymatiga bog'liq bo'lmaydi va u additiv xatolik deyiladi. Ikkinci tashkil etuvchisi esa o'lchanadigan kattalikning qiymatiga (o'zgarishiga) bog'liq bo'lib, **muliplikativ xatolik** deb ataladi.



O'lchash aniqligining ehtimoliy baholanishi

O'lchash natijalarini qayta ishlash usullarini o'rganishdan maqsad, o'lchash natijasini o'lchanadigan kattalikni asli (chinakam) qiymatiga qanchalik yaqin ekanligini aniqlash, yoki uning haqiqiy qiymatini topish, o'lchashda hosil bo'ladigan xatolikning o'zgarish xarakterini aniqlash va o'lchash aniqligini baholashdir.

Bir narsaga alohida ahamiyat berishga to'g'ri keladi. Yuqorida oldingi ma'ruzalarda aytilganidek, muntazam xatoliklarni chuqur tahlili asosida aniqlashimiz va maxsus choralarни ko'rib, so'ngra ularni bartaraf etishimiz, yoki kamaytirishimiz mumkin ekan. Tasodifiy xatoliklarda esa bu jumla o'rinli emas. Bu turdagи xatoliklarni faqat baholashimiz mumkin.

Har kanday fizikaviy kattalik o'lchanganda, uning taxminiy qiymati aniqlanadi. Bu qiymatni esa tasodifiy kattalik deb hisoblash kerak va u ikki tashkil etuvchidan iborat bo'ladi. Birinchi tashkil etuvchisi takror o'lchashlarda o'zgarmaydigan yoki ma'lum qonun bo'yicha o'zgaradigan (ko'payadigan yoki kamayuvchi) bo'lib, uni muntazam (sistematik) xatolik deyiladi. Bu tashkil etuvchini - **matematik kutilish** deb yuritish mumkin. Ikkinci tashkil etuvchi esa, **tasodifiy xatolik** bo'ladi.

Agar o'lchashda hosil bo'ladigan xatolik normal qonun bo'yicha (Gauss qonuni) taqsimlanadi desak, u holda uni matematik tarzda quyidagicha yozish mumkin:

$$y(\Delta) = \frac{I}{\sigma \sqrt{2\pi}} e^{-\frac{\Delta^2}{2\sigma^2}},$$

bu yerda $y(\Delta)$ - tasodifiy xatolikning o‘zgarish ehtimolligi; σ - o‘rtacha kvadratik xatolik; $\Delta(\delta)$ - tuzatma yoki $\Delta = \bar{X} - X_i$ bo‘lib, X_i - alohida o‘lchashlar natijasi, \bar{X} - esa o‘lchanadigan kattalikning ehtimoliy qiymati, yoki uning o‘rtacha arifmetik qiymatidir.

O‘lchanadigan kattalikning o‘rtacha arifmetik qiymati quyidagicha topiladi:

$$\bar{x} = \frac{x_1 + x_2 + x_3 + \dots + x_n}{n},$$


bu yerda x_1, x_2, \dots, x_n - alohida o‘lchashlar natijasi; n - o‘lchashlar soni.

O‘rtacha kvadratik xatolik (o‘zgarish) quyidagicha topiladi:

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (\bar{x} - x_i)^2}{n-1}}$$

Quyida keltirilgan chizmada o‘rtacha kvadratik xatoliklarning har xil qiymatlarida xatolikning o‘zgarish egri chiziqlari ko‘rsatilgan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, o‘rtacha kvadratik xatolik qanchalik kichik bo‘lsa, xatolikning kichik qiymatlari shunchalik ko‘p uchraydi, demak, o‘lhash shunchalik yuqori aniqlikda olib borilgan hisoblanadi. O‘lhash aniqligini baholash, ehtimollik nazariyasining qonun va qoidalariga asoslanib baholanadi; ya’ni ishonchli interval va uni xarakterlovchi ishonchli ehtimollik qabul qilinadi.

Odatda, ishonchli interval ham, ishonchli ehtimollik ham konkret o‘lchashlar sharoitiga qarab tanlanadi.



Masalan: tasodifiy xatolikning normal qonuni bo'yicha taqsimlanishida (σ -zgarishida) ishonchli interval $+3\sigma \div -3\sigma$ gacha, ishonchli ehtimollik esa 0,9973 qabul qilinishi mumkin. Bu degan so'z 370 tasodifiy xatolikdan bittasi o'zining absolyut qiymati bo'yicha 3σ dan katta bo'ladi va uni qo'pol xatolik deb hisoblab, o'lhash natijalarini qayta ishlashda hisobga olinmaydi.

O'lhash natijasining aniqligini baholashda ehtimoliy xatolikdan foydalaniladi. Ehtimoliy xatolik esa, shunday xatolikki, unga nisbatan, qandaydir kattalikni qayta o'lchaganda tasodifiy xatolikning bir qismi absolyut qiymati bo'yicha ehtimoliy xatolikdan ko'p, ikkinchi qismi esa undan shuncha kam bo'ladi.

Bundan chiqadiki, ehtimoliy xatolik, ishonchli intervalga teng bo'lib, bunda ishonchli ehtimollik $R=0,5$ ga teng bo'ladi

Tasodifiy xatolik normal qonun bo'yicha taqsimlanganda ehtimoliy xatolik quyidagicha topilishi mumkin

$$\varepsilon = \frac{2}{3} \sigma_n = \frac{2}{3} \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (\bar{x} - x_i)^2}{n(n-1)}},$$

bu yerda $\sigma_n = \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$ - o'rtacha arifmetik qiymat bo'yicha kvadratik xatolikdir.

Ehtimoliy xatolik bu usulda, ko'pincha o'lhashni bir necha o'n, xattoki yuz marotaba takrorlash imkoniyati bo'lgandagina aniqlanadi.

Ba'zida o'lhashni juda ko'p marotaba takrorlash imkoniyati bo'lmaydi, bunday holda ehtimoliy xatolik St'yudent koeffisiyenti yordamida aniqlanadi. Bunda, koeffisiyent o'lhashlar soni va qabul qilingan ishonchli ehtimollik qiymati bo'yicha maxsus jadvaldan olinadi. Bu holda, o'lchanadigan kattalikning haqiqiy qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblab topiladi

$$\chi = \bar{x} \pm t_n \sigma_n,$$

bu yerda, t_n - Ct'yudent koeffisiyenti.

Shunday qilib, o'rtacha kvadratik xatolik o'lchanadigan kattalikning xaqiqiy qiymati istalgan uning o'rtacha arifmetik qiymati atrofida bo'lish ehtimolini topishga

imkon beradi, $n \rightarrow \infty$, bo‘lganda $\sigma_n \rightarrow 0$ yoki o‘lchash sonini ko‘paytirish bilan $\sigma_n \rightarrow 0$ ga intilib boradi. Bu esa o‘z navbatida o‘lchash aniqligini oshiradi.

Albatta, bundan o‘lchash aniqligini istalgancha oshirish (ko‘tarish) mumkin degan xulosaga kelmaslik kerak, chunki o‘lchash aniqligi, tasodifiy xatolik to muntazam xatolikka tenglashguncha oshadi.

Shuning uchun, tanlab olingan ishonchli interval va ishonchli ehtimolik qiymatlari bo‘yicha kerakli o‘lchashlar sonini aniqlash mumkinki, bu esa tasodifiy xatolikning o‘lchash natijasiga ham ta’sir ko‘rsatishini ta’minlasin.

Uning nisbiy birlikdagi qiymati

$$\varepsilon = \frac{\Delta \chi}{\chi} \cdot 100\% ,$$

bu yerda $\Delta \chi = t_n \sigma_n$

4. O‘lchash noaniqligi to‘g‘risida qisqacha tushuncha

5.

Atamalar va ta’riflar. O‘z Dst 8.010.1, O‘z DSt 8.010.2, O‘z DSt 8.010.3, O‘zDSt 8.010.4 ga muvofiq o‘lchashlar noaniqligi bo‘yicha quyidagi atamalar va tushunchalar qo‘llaniladi:

o‘lchashlar noaniqligi: o‘lchash natijalari bilan bog‘liq bo‘lgan va o‘lchanayotgan kattalikka yetarli asos bilan qo‘shib yozilishi mumkin bo‘lgan qiymatlar tarqoqligini (sochilishini) tavsiflovchi parametr.

Izohlar

1. Parametr, masalan, standart og‘ish (yoki unga karrali son) yoki ishonch intervali (oralig‘i) kengligi bo‘lishi mumkin.

2. O‘lchash noaniqligi odatda ko‘plab tashkil etuvchilarni o‘z ichiga oladi. Bu tashkil etuvchilarning ba’zilari qator o‘lchashlar natijalarining statistik taqsimlanishidan baholanishi mumkin va eksperimental standart og‘ishlar bilan tavsiflanishi mumkin. Standart og‘ishlar bilan tavsiflanishi mumkin bo‘lgan boshqa tashkil etuvchilar ham tajribaga yoki boshqa axborotlarga asoslangan ehtimolliklarning taxmin qilingan taqsimlanishidan baholanadi.

3. Shubhasiz, o'lhash natijasi o'lchanayotgan kattalik qiymatining eng yaxshi bahosi bo'lib hisoblanadi va tuzatishlar va taqqoslash etalonlari bilan bog'liq bo'lgan, tartibli (sistematik) ta'sirlardan yuzaga keladigan tashkil etuvchilarni o'z ichiga olgan holda noaniqlikning tashkil etuvchilari dispersiyaga hissa qo'shamdi.

Standart noaniqligi: standart og'ish sifatida ifoda etilgan o'lhash natijasining noaniqligi.

A xil bo'yicha (noaniqlikni) baholash: Qator kuzatuvlarni statistik tahlil qilish yo'li bilan noaniqlikni baholash metodi.

V xil bo'yicha (noaniqlikni) baholash: Qator kuzatuvlarni statistik taxlil qilishdan farq qiluvchi usullar bilan noaniqlikni baholash metodi .

To'liq noaniklik: Chegarasida o'lchanayotgan kattalikka yetarli asos bilan qo'shib yozilishi mumkin bo'lgan qiymatlar taqsimotining katta qismi joylashgan o'lhash natijasi atrofidagi oraliqni aniqlovchi kattalik.

Izohlar

1. Taqsimotning bu qismiga qamrov ehtimoli yoki oraliq uchun ishonch darajasi sifatida qaralishi mumkin.

2. To'liq noaniqlik, shuningdek, **umumiyoq noaniqlik** deb ham atalishi mumkin.

qamrov ko'effisiyenti: To'liq noaniqlikka erishish uchun yakuniy standart noaniqlikning ko'paytiruvchisi sifatida foydalaniladigan son bilan ifodalangan ko'effisiyent.

kuzatib borish: Belgilangan noaniqliklarga ega bo'lgan solishtirishlar-ning ajralmas zanjiri vositasida muvofiq etalonlar, ko'pincha milliy va xalqaro etalonlar bilan aloqa o'rnatish imkoniyatidan iborat bo'lgan o'lhash natijalari yoki etalon qiymatlarining xossalari

presisionlik: Sinovlarning kelishilgan sharoitlarda olingan mustaqil natijalarining bir biriga yaqinligi.

Izohlar

1. Presisionlik faqatgina tasodifiy xatoliklarning taqsimlanishiga bog'liq va o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy yoki qabul qilingan qiymatiga bog'liq emas.

2. Miqdoriy presisionlik ko'pincha noaniqlik sifatida ifodalanadi va sinov

natijalarining standart og‘ishi ko‘rinishida hisoblanadi. Kamroq presizionlikka ko‘proq standart og‘ish muvofiq keladi.

3. «Sinovlarning mustaqil natijalari» ifodasi, bu natijalar xuddi shu yoki aynan o‘xshash sinov ob’yektlaridan olingan qandaydir avvalgi natijalar ta’sir ko‘rsatmaydigan tarzda olinganligini bildiradi. Presizionlikning miqdoriy tavsiflari hal qiluvchi tarzda kelishilgan shartlarga bog‘liq.

SI: Xalqaro birliklar tizimi

SO: Standart namuna

MVI: O‘lchashlarni bajarish metodikasi

Umumiy qoidalar

Metodlar yaroqliliginibaholash

Izoh - Bu yerda va bundan keyin metod (metodlar) deyilganda o‘lchashlarni bajarish metodikalari va sinovlar metodikalari tushuniladi.

Amaliyotda eskirgan o‘lchashlar uchun qo‘llaniladigan aniq maqsadning metodlarini ko‘proq ularning yaroqliliginibaholash bo‘yicha tadqiqotlar jarayonida belgilanadi.

Bunday tadqiqotlarning natijalari metodlarning umumiy tavsifnomalarini bo‘yicha ham, unga ta’sir etuvchi alohida faktorlar bo‘yicha ham axborot beradi va bu axborotdan noaniqlikni baholashda foydalanish mumkin.

Izoh - Metodlar yaroqliliginibaholash (validation of methods) chet elda qabul qilingan o‘lchashlar sifatini ta’minalash tizimining muhim tashkil etuvchisi bo‘lib hisoblanadi. «Validation» atamasi tegishli tushunchalarning turli mazmuni sababli milliy metrologiyada qabul qilingan «attestatlash» atamasi bilan teng ma’noga ega emas. Qonuniy metrologiya prosedurasi sifatida amalga oshiriladigan metodikalarni attestatlash metodikaning unga qo‘yilgan metrologik talablarga muvofiqligini o‘rnatishni maqsad qilib qo‘yadi. Bunda diqqat markazida olingan natijalar xatoliklarining tavsifnomalari bo‘ladi. Metodning yaroqliliginibaholash odatda samaradorlikning qator ko‘rsatkich-larini belgilashdan (topish va aniqlash chegarasi, selektivlik/spesifiklik, yaqinlashish va qayta ishlab chiqarish, barqarorlik va boshqalar) va

ular asosida aniq o'lhash masalasini yechish uchun metodning yaroqliligin muhokama qilishdan iborat bo'ladi. Yaroqlilikni baholash bo'yicha tadqiqotlar natijalaridan noaniqlikni (xatolik tavsifnomalarini) topishda foydalanish mumkin.

Metodning yaroqliligin baholash bo'yicha tadqiqotlar samaradorlikning umumiy ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadiga egadir. Ularni metodni ishlab chiqish va uning laboratoriyalararo tadqiqoti jarayonida yoki ichki laboratoriya tadqiqoti dasturiga rioya etgan holda belgilaydilar. Xatolikning yoki noaniqlikning alohida manbalari odatda presizionlikning umumiy tavsiflari bilan solishtirilganda ahamiyatliroq bo'lganidagina ko'rib chiqiladi. Bunda tirkak tahlil natijalariga tegishli tuzatishlarni kiritishdan ko'ra, muhim samaralarning aniqlanishi va yo'qotilishiga qilinadi. Bu potensial muhim ta'sir o'tkazuvchi faktorlar umumiy presizionlik bilan solishtirilganda ahamiyatlilikka belgilanganda, tekshirilganda bu faktorlarga e'toborsizlik bilan qarash holatiga olib keladi. Bu sharoitlarda tadqiqotchilar ko'pchilik tartibli samaralarning ahamiyatsizligi isboti va qolgan ahamiyatli samaralarning ba'zi baholanishlari bilan bir qatorda umumiy samaradorlik ko'rsatkichlariga erishadilar.

Metodlar yaroqliligin baholash bo'yicha tadqiqotlar odatda quyida-gi tavsifnomalarning ba'zilari yoki barchasining aniqlanishini o'z ichiga oladi:

Presizionlik

Presizionlikning asosiy tavsifnomalari yaqinlashish va qayta ishlab chiqarishning standart og'ishlarini (GOST ISO 3534-1 va GOST ISO 5725-2), shuningdek oraliq presizionlikni (GOST ISO 3534-3) o'z ichiga oladi. Yaqinlashish laboratoriyada, qisqa vaqt oralig'ida bitta operator tomonidan, bir nushadagi uskunada kuzatilgan o'zgaruvchanlikni tavsiflaydi va uni ushbu laboratoriya chegarasida yoki laboratoriyalararo tadqiqotlar doirasida baholash mumkin. Muayyan metod uchun qayta ishlab chiqarishning standart og'ishini bevosita laboratoriyalararo tadqiqotlar yordamida baholash mumkin va u xuddi shu namunani bir necha laboratoriyalarda tahlil qilinganda natijalar o'zgaruvchanligini tavsiflaydi. Oraliq presizionlik bir yoki ko'prok faktorlar, jumladan vaqt, uskuna yoki bitta laboratoriya chegarasidagi operator o'zgarganida kuzatiladigan natijalar variasiyasini tavsiflaydi; bunda qaysi faktorlar muttasil turishidan qat'iy nazar turli ko'rsatkichlarga erishadilar. Oraliq

presizionlikni ko‘proq bitta laboratoriya doirasida baholaydilar, lekin uni laboratoriyalararo tadqiqotlar yordamida belgilash mumkin. Analitik metodikaning presizionligi u alohida dispersiyalarni jamlash orqali yoki metodikani to‘liq tadqiqot qilish yo‘li bilan aniqlanishidan kat’iy nazar umumiy noaniqlikning muhim tashkil etuvchisi bo‘lib hisoblanadi.

Siljish

Qo‘llanilayotgan metodga bog‘liq bo‘lgan siljish odatda solishtirishning munosib namunalarini yoki ma’lum qo‘sishchali namunalarni o‘lchash yordamida belgilanadi. Muvofiq tayanch qiymatlarga tegishli umumiy siljishni aniklash qabul qilingan etalonlarga kuzatib borishni belgilashda muhimdir. Siljishni ajratib olish (kutilgan qiymatga bo‘lingan kuzatilgan qiymat) ko‘rinishida ifodalanishi mumkin. Analitikning vazifasi siljishga e’tibor bermasdan qarash yoki unga tuzatish kiritishni ko‘rsatishdan iboratdir, lekin har qanday holda ham siljishni belgilash bilan bog‘liq noaniqlik umumiy noaniqlikning ajralmas tashkil etuvchisi bo‘lib qoladi.

Chiziqlilik (To ‘g‘ri mutanosiblik)

Chiziqlilik ba’zi diapazonda o‘lchash uchun foydalilanidigan metodlarning muhim xossasi bo‘lib hisoblanadi. Javob chiziqlilagini toza moddalarda va real namunalarda aniqlash mumkin. Odatda chiziqlilikni miqdoriy aniqlanmaydi, uni ko‘z bilan yoki nochiziqlilik ahamiyatliligining mezonlari yordamida tekshiriladi. Ahamiyatli nochiziqlilikni odatda nochiziqli darajalovchi tavsifnomalar yordamida hisobga olinadi yoki torroq ishchi diapazonni tanlash yo‘li bilan bartaraf etiladi. Chiziqlilikdan qolgan har qanday og‘ishlar odatda bir qancha o‘lchanayotgan qiymatlarni qamrovchi umumiy presizionlik bahosiga kiradi yoki darajalash bilan bog‘liq bo‘lgan noaniqlik chegarasida qoladi.

Topish chegarasi

Metodning yaroqlilagini baholash jarayonida topish chegarasi odatda ishchi diapazonning quyi chegarasini belgilash uchungina aniqlanadi. Ammo topish chegarasi yaqinidagi noaniqliklar alohida ko‘rib chiqishni va maxsus talqin etilishni talab etishi mumkin, topish chegarasi qanday aniqlanganidan qat’iy nazar uning noaniqlikni baholashga to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqasi yo‘q.

Barqarorlik

Ko‘p hujjatlar tahlil metodlarining yaroqlilagini baholash va ishlab chiqish bo‘yicha aniq parametrlarni o‘zgartirishga natijalar sezuvchanligini bevosita tadqiqot qilishni talab etadi. Odatda bu bir yoki bir necha faktorlarni o‘zgartirish bilan chaqirilgan ta’sirlar tadqiqot qilinadigan «mustahkamlikka sinash» yordamida amalga oshiriladi. Agar bunday sinov ahamiyatli bo‘lsa (o‘z presizionligi bilan solishtirganda) u holda bu ta’sirning kengligini aniqlash va muvofiq yo‘l qo‘yilgan ishchi diapazonni tanlash uchun mufassalroq tadqiqot olib boriladi. Barqarorlik bo‘yicha ma’lumotlar muhim faktorlarning o‘zgarish natijalariga ta’siri haqida axborot berish mumkin.

Selektivlik/ spesifiklik

Qandaydir o‘lhash metodi aniq o‘lhash parametrlariga bir ma’noda javob beradigan daraja. Selektivlik tadqiqotlarida odatda mumkin bo‘lgan halal beruvchi komponentlar ta’sirini bu moddalarni bo‘s sh namunalarga ham, ishchi namunalarga ham qo‘sghan holda va javobni kuzatgan holda o‘rganiladi. Olingan natijalar odatda haqiqiy halal beruvchi ta’sirlar unchalik ahamiyatga ega emasligini ko‘rsatish uchun foydalilaniladi. Bunday tadqiqotlarda bevosita javob o‘zgarishi aniqlanganligi uchun bu ma’lumotlardan potensial halaqitlar bilan bog‘liq noaniqlikni baholash uchun foydalanish mumkin, bundan tashqari bunda halaqit beruvchi moddalar konsentrasiyalari diapazoni haqida axborot olinadi.

Kuzatib borish

Turli laboratoriyalarda yoki har xil vaqtda olingan natijalarni ishonch bilan solishtirish imkoniga ega bo‘lish muhim. Bu barcha laboratoriylar bir xil o‘lhash shkalasi yoki bir xil «sanash nuqtasi» dan foydalanishlari bilan ta’milanadi. Ko‘p hollarda bunga dastlabki milliy yoki xalqaro etalonlarga, mukammal hollarda esa (uzoq muddatli kelishuv maqsadida). Xalqaro birliklar tizimi (SI) ga olib boruvchi kalibrlash zanjirini o‘rnatish bilan erishiladi. Yaxshi misol bo‘lib analistik tarozilar hisoblanadi. Har bir tarozi etalon toshlari yordamida kalibrланади, ular esa o‘z navbatida (oqibatda) milliy etalonlarga nisbatan kalibrланади, shu tarzda kilogrammning dastlabki etaloni bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Ma’lum boshlang‘ich qiymatga olib boruvchi taqqoslashlarning uzilmas zanjiri umumiyl sanash

nuqtasiga «kuzatib borish»ni ta'minlaydi va bu turli insonlarning bir xil o'lhash vositalaridan foydalanishlarini kafolatlaydi. Oddiy o'lhashlarda turli laboratoriylar o'rtasidagi o'lhashlarning kelishilganligiga (yoki bir vaqtda o'lhashlarning kelishilganligi) o'lhashlar natijasini olish yoki tekshirish uchun foydalilaniladigan, bunga tegishli bo'lgan barcha oraliq o'lhashlarni kuzatib borishni belgilash tufayli erishiladi. Shuning uchun kuzatib borish o'lhashlarning barcha sohalarida muhim tushuncha bo'lib hisoblanadi.

Kuzatib borish noaniqlik bilan chambarchas bog'liq va kuzatib borish o'zaro bog'liq bo'lgan barcha o'lhashlarni kelishilgan o'lhash shkalasida joylashtirishga yo'l qo'yadi, bunda noaniqlik bu zanjir xalqalarining «chidamliligi» ni va o'xshash o'lhashlarni bajaruvchi laboratoriylar o'rtasidagi kutilgan kelishuv darajasini tavsiflaydi.

Umuman, aniq etalonga kuzatib boriladigan bo'lib hisoblanuvchi natija noaniqligi bu etalon noaniqligi va bu etalonga tegishli o'lhash noaniqligi sifatida ifodalanadi.

Analitik metodika natijasining kuzatib borilishi umuman quyidagi proseduralarning (muolajalarning) qo'shilishi bilan belgilanishi lozim:

- kuzatib borilayotgan etalonlardan o'lhash uskunasini kalibrlash uchun foydalilanadi;
- dastlabki metodni realizasiya qilish yoki dastlabki metod natijalari bilan solishtirish;
- taqqoslash namunalaridan toza moddalar sifatida foydalanish;
- matrisa jihatidan mos keluvchi standart namunalardan foydalanish;
- ma'lum, yaxshi aniqlangan metodika bilan solishtirish.

O'lhash uskunasini kalibrlash

Barcha hollarda foydalilanilayotgan o'lhash uskunasini kalibrlash muvofik etalonga kuzatib borilishi lozim. Metodning o'lhash bosqichi ko'pincha mikdoriy tavsifnomasi SI ga kuzatib boriladigan taqqoslash namunasi yordamida darajalanadi. Bunday amaliyot metodikaning bu qismi uchun natijalarning SI ga kuzatib borilishini ta'minlaydi. Biroq, o'lhash bosqichidan oldin bo'ladigan operasiyalar uchun kuzatib borishni belgilash ham zarurdir.

Taqqoslash namunalaridan toza moddalar sifatida foydalanish

Kuzatib borishni ma'lum mikdordagi toza moddani tarkibiga oluvchi toza modda yoki namuna ko'rinishidagi taqqoslash namunasi yordamida ko'rsatish mumkin. Buni, masalan, ma'lum qo'shimchalarni bo'sh namunalarga yoki tahlil qilinayotgan namunaga qo'shish bilan qilish mumkin. Biroq, har doim foydalanilgan etalon va tahlil qilinayotgan namuna uchun o'lhash tizimi javobidagi farqni baholash zarur. Afsuski, ko'p hollarda, xususan, ma'lum ko'shimchalarni qo'shishda, javoblardagi bu farqni tuzatish bu tuzatishning noaniqligidek katta bo'lishi mumkin. Bu tarzda, natijaning kuzatib borilishi umuman olganda SI birliklariga o'rnatilishi mumkin bo'lsa ham amaliyotda eng oddiy holatlardan tashqari natija noaniqligi nomaqbul bo'lishi yoki miqdoriy aniqlanmagan bo'lishi mumkin. Agar noaniqlikni miqdoriy aniqlash mumkin bo'lmasa, u holda kuzatib borish o'rnatilmaydi.

Standart namunani qo'llash

Kuzatib borishni matrisa jihatdan yaqin bo'lган standart namuna (SN) da, bu SN ning attestatlangan qiymati (qiymatlari) bilan olingan o'lhash natijalarini solishtirish yo'li bilan ko'rsatiladi. Bu mos keluvchi «matrisa» SN mavjud bo'lganda, taqqoslash namunasini toza modda ko'rinishida qo'llash bilan taqqoslaganda noaniqlikni kamaytirishi mumkin. Agar SN qiymati SI ga kuzatib borilgan bo'lsa, u holda bu o'lhashlar SI birliklariga kuzatib borishni ta'minlaydi. Biroq xatto shu holda ham natija noaniqligi ayniqsa namuna tarkibi va SN tarkibi o'rtasida yetarli muvofiqlik bo'lмаган hollarda nomaqbul katta yoki xatto mikdoriy aniqlab bo'lmaydigan bo'lishi mumkin.

Ma'lum metodika bilan solishtirish

Natijalarning aynan bir xil taqqoslana olinishiga ko'pincha faqatgina yaxshi aniqlangan va umum qabul qilingan metodikaga nisbatan erishilishi mumkin. Odatda bu metodika kirish parametrlari atamalarida aniqlanadi; masalan, ekstraksiyaning aniq vaqtining, zarralar o'lchovining vazifalari va boshqalar. Bunday metodikani qo'llash natijalari ushbu kirish parametrlarining qiymatlari muvofiq etalonlarga kuzatib borilganda kuzatib boriladigan bo'lib hisoblanadi. Natija noaniqligi me'yorlangan kirish parametrlarining noaniqliklaridan ham, me'yorlanishning to'liq

emasligidan ham, shuningdek metodikani bajarishda o‘zgaruvchanlikdan ham yuzaga kelishi mumkin. Agar, kutilayotganidek, alternativ metodika natijalari umum qabul qilingan metodika natijalari bilan taqqoslansa, u holda qabul qilingan qiymatlarga kuzatib borishga umum qabul qilingan va alternativ metodikalar bo‘yicha olingan natijalarni taqqoslash yo‘li bilan erishiladi.

O‘lchash noaniqligini baholash

Umuman olganda noaniqliklarni baholash oddiy bo‘lib hisoblanadi. Qandaydir o‘lchash natijasiga xos bo‘lgan noaniqlikni baholash uchun quyidagi amallarni bajarish zarur.

1-bosqich. O‘lchanayotgan kattalikni tasvirlash.

O‘lchash kattaligi va u bilan bog‘liq bo‘lgan parametrlar o‘rtasidagi nisbatni kiritgan holda aynan nima o‘lchanayotganligini aniq ifodalash zarur (masalan, o‘lchash kattaliklari, konstantalar, darajalash uchun etalonlar qiymatlari va boshqalar). Mumkin bo‘lgan joyda ma’lum sistematik effektlarga tuzatishlar kiritiladi. Bunday tasviriy axborot odatda muvofiq hujjatda metodikaga yoki metodning boshqa tasvirida keltiriladi.

2-bosqich. Noaniqlik manbalarini aniqlash.

Noaniqlik manbalarining ro‘yxati tuziladi. U 1 bosqichda belgilangan xuddi o‘sha nisbatda parametrlar noaniqligiga hissa qo‘sadigan manbalarни o‘z ichiga oladi, lekin noaniqlikning boshqa manbalarini, masalan, ximiyaviy taxminlardan kelib chiqadigan manbalarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

3-bosqich. Noaniqlikni tashkil etuvchilarining miqdoriy tasvirlanishi.

Har bir aniqlangan potensial manbaga xos bo‘lgan noaniqlik qiymati aniqlanadi va baholanadi. Ko‘pincha noaniqlikning bir qancha manbalar bilan bog‘liq bo‘lgan yagona hissasini baholash yoki aniqlash mumkin. Shuningdek mavjud ma’lumotlar noaniqlikning barcha manbalarini yetarli darajada hisobga olayotganligini ko‘rib chiqish muhim va noaniqlikning barcha manbalarining adekvat hisobga olinishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan qo‘sishimcha eksperimentlar va tadqiqotlarni puxta rejallashtirish zarur.

4-bosqich. Yakuniy noaniqlikni hisoblash.

3-bosqichda olingan axborot umumiylar noaniqlikka bo‘lgan yoki alohida manbalar bilan yoki bir qancha manbalarning yakuniy effektlari (samaralari) bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha mikdoriy tasvirlangan xossalardan iboratdir. Bu xossalarni standart og‘ishlar ko‘rinishida ifodalash va mavjud qoidalarga muvofiq yakuniy standart noaniqlikni olish uchun ularni jamlash zarur. Kengaytirilgan noaniqlikni olish uchun tegishli qamrov koeffisiyentidan foydalanish zarur.

O‘lchanayotgan kattalikning tasvirlanishi

Noaniqlikni baholash kontekstida “o‘lchash kattaligini tasvirlash” aynan o‘lchanayotgan nafaqat bir ma’noli narsaning ifoda qilinishini, balki o‘lchash kattaligini u bog‘liq bo‘lgan parametrlar bilan bog‘lovchi mikdoriy ifodalanishini taqdim etishni ham talab etadi. Bu parametrlar boshqa o‘lchash kattaliklari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchanmaydigan kattaliklar yoki konstantalar bo‘lishi mumkin. Shuningdek namuna tanlash bosqichi metodikaga kiritilganmi yoki yo‘qmi aniq belgilanishi lozim. Agar u kiritilgan bo‘lsa, u holda namuna tanlash metodikasi bilan bog‘liq bo‘lgan noaniqlikni baholash ham zarur. Bu barcha axborotlar metodikaga hujjatda bo‘lishi lozim.

Analitik o‘lchashlarda ayniqsa foydalanilayotgan metodga bog‘liq bo‘lmagan natijalarni olish uchun mo‘ljallangan va bunga mo‘ljallanmagan o‘lchashlar o‘rtasidagi farqni o‘tkazish muhim. Oxirgilar ko‘pincha empirik metodlar kontekstida ko‘rib chiqiladi.

Noaniqlik manbalarining namoyon bo‘lishi

Eng avvalo, noaniqlikning mumkin bo‘lgan manbalari ro‘yxatini tuzish zarur. Bu bosqichda mikdoriy aspektlarni hisobga olishga zarurat yo‘q; faqatgina aynan ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan narsaga nisbatan to‘liq aniqlikni ta’minlash maqsad bo‘lib hisoblanadi.

Noaniqlik manbalarining ro‘yxatini tuzishda odatda oralik kattaliklardan natijalarni hisoblash uchun foydalaniladigan asosiy ifodalardan boshlash qulaydir. Bu ifodadagi barcha parametrlar o‘z noaniqliklariga ega bo‘lishlari mumkin va shuning uchun ular noaniqlikning potensial manbalari bo‘lib hisoblanadi. Bundan

tashqari, aniq ko‘rinishda o‘lchanayotgan kattalik qiymatini topish uchun foydalilaniladigan ifodaga kirmaydigan, lekin shunga karamay natijaga (masalan, ekstraksiya vakti yoki temperatura) ta’sir qiladigan boshqa parametrlar ham bo‘lishi mumkin. Noaniqlikning yashirin manbalari ham bo‘lishi mumkin. Bu barcha manbalar ro‘yxatga kiritilishi lozim.

Noaniqlik manbalari ro‘yxati tuzilgandan so‘ng ularning natijaga ta’sirini asosan xar bir ta’sir ba’zi bir parametrlar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘lchashlarning rasmiy modeli deb yoki tenglamada o‘zgaruvchan deb tasvirlash mumkin. Bunday tenglama natijaga ta’sir etuvchi individual omillar atamalarida ifodalangan o‘lchash jarayonining to‘liq modelini tashkil etadi. Bu funksiya juda murakkab bo‘lishi mumkin va uni ko‘pincha aniq ko‘rinishda yozish mumkin emas. Biroq, u mumkin bo‘lgan joyda bunday ifodalinish shakli umumiy holda noaniqlikning individual tashkil etuvchilarini jamlash usulini aniqlaganligi sababli uni bajarish zarur.

Noaniqlikning muvofiq bahosini olish uchun ulardan har birini alohida baholash mumkin bo‘lganda o‘lchash metodikasini operasiyalarning muntazamligi ko‘rinishida ko‘rib chiqish (ba’zida ayrim operasiyalar deb ataladigan) foydali bo‘lishi mumkin. Bu ayniqsa o‘lchashlarning bir xildagi metodikalari bitta ayrim operasiyalarni o‘z ichiga olganda foydali yondashuv bo‘ladi. Har bir operasiyaning alohida noaniqliklari u holda umumiy noaniqlikka hissa qo‘sadi.

Amaliyotda tahliliy o‘lchashlarda ko‘proq odatiy bo‘lib kuzatilayotgan presizionlik va solishtiruvning mos keluvchi namunalariga nisbatan siljish kabi metodning umumiy effektivligi elementlari hisoblanadi. Bu tashkil etuvchilar odatda noaniqlik bahosiga ortiqroq hissa qo‘sadi va natijaga ta’sir etuvchi alohida effektlar ko‘rinishida yaxshiroq tuziladi. Bunday holda boshqa mumkin bo‘lgan hissalarni faqatgina ularni ahamiyatliliginи tekshirish uchun, ulardan faqatgina ahamiyatlilarini miqdoriy aniqlab baholash lozim,

Noaniqlikning tipik manbalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

Namuna tanlash

Laboratoriya yoki bevosita tahlil ob’yektida bajariladigan namuna tanlash operasiyalari taxliliy metodika qismi bo‘lgan hollarda namunalar o‘rtasidagi tasodifiy

farqlar va namuna tanlash prosedurasida siljish (sistematik xatolikning) yuzaga kelishi uchun har qanday imkoniyatlar kabi effektlar so‘nggi natija noaniqligining tashkil etuvchilarini shakllantiradi.

Namunalarni saqlash shartlari

O‘lchanayotgan (sinalayotgan) namunalar o‘lchashlar bajarilgunga qadar qandaydir vaqt davomida saqlansa, saqlash shartlari natijaga ta’sir etishi mumkin. Shuning uchun, saqlash davomiyligi, shuningdek saqlash shartlari noaniqlik manbalari sifatida ko‘riliши lozim.

Apparatura effektlari

Bunday effektlar, masalan, analitik tarozilar aniqlik chegaralarini; ro‘yxatga olinganlaridan farq qiluvchi (berilgan chegaralarda) o‘rtacha temperaturani ushlab turaoladigan temperatura rostlagichining mavjudligini; ortiqcha yuklash effektlariga duchor qilinishi mumkin bo‘lgan avtomatik analizatorni o‘z ichiga olishi mumkin.

Reaktivlar tozaligi

Hattoki boshlang‘ich reaktiv tekshirilgan bo‘lsa ham bu tekshiruv metodikasi bilan bog‘liq bo‘lgan qandaydir noaniqlik qolganligi sababli titrlash uchun eritma konsentrasiyasi absolyut aniqlikda belgilanishi mumkin emas. Ko‘p reaktivlar, masalan, organik bo‘yoqlar 100 % ga toza bo‘lib hisoblanmaydi va tarkibida izomerlar va anorganik tuzlar bo‘lishi mumkin. Bunday moddalar tozaligi tayyorlovchi tomonidan kamida o‘shanday darajada ko‘rsatiladi. Tozalik darajasiga tegishli bo‘lgan har qanday taxminlar noaniqlik elementini kiritadi.

Taxmin qilingan stexiometriya

Tahliliy jarayon aniqlangan stexiometriyaga bo‘ysunadi deb taxmin qilingan hollarda kutilayotgan stexiometriyadan og‘ishlarni yoki reaksiyaning to‘liq emasligini yoki yordamchi reaksiyalarni hisobga olish zarur bo‘lishi mumkin.

O‘lchashlar shartlari

O‘lchovli shisha idish, masalan, u kalibrangan temperaturadan farq qiluvchi temperaturada qo‘llanilishi mumkin. Katta temperatura effektlari tuzatishlar kiritish bilan hisobga olinishi lozim, biroq bu holda ham suyuqlik va shisha temperaturasi

qiymatlaridagi har qanday noaniqlik ko‘rib chiqilishi lozim. Shunga o‘xhash, agar qo‘llanilayotgan materiallar namlikning mumkin bo‘lgan o‘zgarishlariga sezuvchan bo‘lsa atrofdagi havoning namligi ahamiyatga eta bo‘lishi mumkin.

Namunaning ta’siri

Murakkab matrisa tarkibi aniqlanayotgan komponentning chiqarib olinishiga yoki asbobning javobiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aniqlanayotgan komponentni topish shakliga sezuvchanlik bu ta’sirni yanada kuchaytirish mumkin.

Namuna yoki aniqlanayotgan komponent barqarorligi tahlil jarayonida issiqlik rejimining yoki fotolitik effektning o‘zgarishi sababli o‘zgarishi mumkin.

Chiqarib olish darajasini baholash uchun ba’zi «mashhur qo‘s Shimcha» ishlatilganda aniqlanayotgan komponentning namunadan aniq chiqishi qo‘s Shimchani chiqarib olish darasidan farq qilishi mumkin, bu esa baholash lozim bo‘lgan qo‘s Shimcha noaniqlikni kiritadi.

Hisoblash effektlari

Darajalash vaqtida mos kelmaydigan modelni tanlash, masalan, nochiziq javobda chiziqli darajalashdan foydalanish juda yomon moslashtirishga va ko‘proq noaniqlikka olib keladi.

Raqamlarni olib tashlash va yaxlitlash oxirgi natijaning noto‘g‘riligiga olib kelishi mumkin. Modomiki bu vaziyatlarni oldindan aytish qiyin ekan ba’zi bir noaniqlikka joizlik to‘g‘ri deb topilishi mumkin.

Bo‘sh namunaga tuzatish

Bo‘sh namunaga tuzatish qiymatining ba’zi bir noaniqligi bu tuzatishning zarurligiga shubha bilan barobar o‘ringa ega bo‘ladi. Bu ayniqsa izlarni tahlil qilishda muhimdir.

Operatorning ta’siri

O‘lchash asboblarining pasaytirilgan yoki ko‘tarilgan ko‘rsatkichlarini ro‘yxatga olish mumkinligi.

Metodika interpretasiyasida ahamiyatga ega bo‘lmagan farqlarning mumkinligi.

Tasodifiy effektlar

Tasodifiy effektlar barcha aniqlashlarda noaniqliklarga hissa qo'shadi. Bu bandni o'z-o'zidan ma'lum narsa sifatida noaniqlik manbalari ro'yxatiga kiritish lozim.

Noaniqlikni taqdim etish

Umumiy qoidalar

O'lchash natijasi bilan birga taqdim etiladigan axborot uning keyingi foydalanish maqsadiga bog'liq. Bunda quyidagi prinsiplarni qo'llash lozim:

- agar yangi axborot yoki yangi ma'lumotlar paydo bo'lsa noaniqlik bahosini aniqlashtirishni o'tkazish uchun yetarli axborotni taqdim etish;
- yetarli bo'limgan axborotga qaraganda keragidan ortiq axborotni taqdim etish afzalroqdir.

Agar o'lchash tafsilotlari, noaniqlik qanday baholanganligini o'z ichiga olib, chop etilgan hujjatlarga tavsiyalar ko'rinishida berilgan bo'lsa bu hujjatlar dolzarblashtirilishi va laboratoriyada qo'llanilayotgan metodga muvofiq bo'lishi lozim.

Talab qilinayotgan axborot

O'lchash natijasining to'liq taqdim etilishi quyidagi axborotni yoki bunday axborotni o'z ichiga olgan hujjatlarga tavsiyani o'z ichiga olishi lozim:

- o'lchash natijasini va uning noaniqligini eksperimental kuzatishlar va kirish kattaliklari haqidagi ma'lumotlar asosida hisoblash uchun foydalaniladigan metodlarni tasvirlash;
- hisoblashda ham, noaniqliklarni tahlil qilishda ham foydalaniladigan barcha tuzatishlar va doimiyliklarning qiymatlari va manbalari;
- noaniqlikning barcha tashkil etuvchilarining ularning xar biriga tegishli to'liq hujjatlari bilan ro'yxati.

Ma'lumotlar va ularning tahlili barcha muhim bosqichlarni oson kuzatib turish va zaruriyat bo'lganda so'nggi natijani hisoblashni qaytarish mumkin bo'ladigan tarzda taqdim etilishi lozim. Oraliq qiymatlarni o'z ichiga olgan natijani batafsil taqdim etish talab etilgan hollarda hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- har bir kirish kattaligining qiymati, uning standart noaniqligi va uning qanday olinganligining ta'rifi;
- natija va kirish kattaliklari, shuningdek, bu effektlarni hisobga olish uchun

foydalaniqgan ayrim hosilalar, kovariasiyalar yoki korrelyasiya koeffisiyentlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat;

- har bir kirish kattaligining standart noaniqligi uchun erkinlik darajalari soni.

Izoh - Funksional bog‘liqlik juda murakkab bo‘lgan yoki aniq ko‘rinishda mavjud bo‘lmagan hollarda (masalan, u faqatgina komp’yuter dasturi sifatida mavjud bo‘lishi mumkin) u umumiyo ko‘rinishda yoki muvofiq manbaga tavsiya yo‘li bilan ifodalanishi mumkin. Bunday hollarda kimyoviy taxlil natijasi va uning noaniqligi qanday qilib olinganligi har doim aniq bo‘lishi lozim.

Oddiy tahlillar natijalarini taqdim etishda faqatgina kengaytirilgan noaniqlik qiymatini va *k* qiymatni ko‘rsatish yetarli bo‘lishi mumkin.

Standart noaniqlikni taqdim etish

1. Noaniqlikni *i_s* yakuniy standart noaniqlik ko‘rinishida ifodalanangiz (ya’ni, bitta standart og‘ish ko‘rinishida) yozuvning quyidagi shakli tavsiya etiladi:

«(Natija): *i_s* (birliklar) standart noaniqlikda X (birliklar), [standart noaniqlik Metrologiya sohasidagi asosiy va umumiyo atamalar Xalqaro lug‘ati, 2-nashr, ISO, 1993y. ga muvofiq aniqlanadigan va bir standart og‘ishga muvofiq keladigan joy]».

Standart namunalar noaniqligi

Ko‘pchilik SN lar uchun, ayniqlsa laboratoriyalararo eksperiment metodi bilan attestatlanayotgan SN lar uchun metrologik tavsifnomalar sifatida xatolik tushunchasidan ko‘ra noaniqlik tushunchasidan foydalanish mantiqiyoqdir. Shu sababli SN ishlab chiquvchilar, ayniqlsa G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining SN ishlab chiquvchilari SN ga sertifikatda ko‘rsatilganidek ularning attestatlangan qiymatlarini belgilash noaniqligi tavsifnomalarini keltiradilar.

SN ning attestatlangan qiymatlarining noaniqligi quyidagi tarzda ifodalanishi mumkin:

Sertifikatda «kengaytirilgan» yoki «jamlangan» sifatlarsiz noaniqlik belgilangan. Masalan, «MVN Analytical Ltl» (Angliya) firmasi chiqargan O‘z DSN 03.0305:2004 SN «Noaniqlik» tavsifnomasiga ega.

Sertifikatda qandaydir (*R*) ishonchli ehtimolligida va (*K*) qamrov koeffisiyentida kengaytirilgan noaniqlik belgilangan. Masalan, «Raragon Scientific

Ltd» (Angliya) firmasi chiqargan O`z DSN 03.0241:2004 SN «R=95% ishonchli ehtimolligida va $K=2$ qamrov koeffisiyentida (U) kengaytirilgan noaniqliq tavsifnomasiga ega.

Sertifikatda qandaydir (R) ishonchli ehtimolligida qamrov koeffisiyentini ko`rsatmasdan kengaytirilgan noaniqlik belgilangan. Masalan, «Petrolet Analyzer Corporation Gmbn» (Germaniya) firmasining SN « $(S_{(p)})$ o`rtacha kvadrat og`ishga ega bo`lgan metodika bo`yicha (R) ishonchli ehtimolligi laboratoriylar (n) ishtirokida olingan $U = (t \cdot S_{(p)}) / \sqrt{n}$ o`rtacha qiymatning kengaytirilgan noaniqligi».

Xatolik va noaniqlik tavsifnomalarining to`g`ridan-to`g`ri taqqoslanishi to`g`ri emas, shuning uchun qoidaga ko`ra bu metrologik asboblarning statistik baholari taqqoslanadi.

Agar standart yoki yakuniy noaniqlik berilgan bo`lsa, u holda ularning baholariga o`rtacha kvadratik og`ishlar mos bo`ladi:

$$\sigma(A) = u(A),$$

yoki

$$\sigma(A) = u_c(A),$$

bu yerda $u(A)$ va $u_c(A)$ - SN ning attestatlangan qiymatini belgilashning mos standart va yakuniy noaniqligi;

A - SN ning attestatlangan qiymati;

$\sigma(A)$ - SN ning attestatlangan qiymatining o`rtacha kvadratik og`ishi.

Agar (R) ishonchli ehtimolligi va (k) qamrov koeffisiyentida kengaytirilgan noaniqlik berilgan bo`lsa yoki (U_p) ishonchli ehtimolliligini ko`rsatish bilan va (k_p) ishonchli ehtimolligini ko`rsatib qamrov koeffisiyentini ko`rsatish bilan kengaytirilgan noaniqlik berilgan bo`lsa, u holda uning bahosiga o`rtacha kvadratik og`ish mos bo`ladi:

$$\sigma(A) = U(A) / k,$$

yoki

$$\sigma(A) = U_p(A) / k_p,$$

bu yerda $U(A)$ va $U_p(A)$ - SN ning attestatlangan qiymatini belgilashning muvofiq kengaytirilgan va belgilangan ishonchli ehtimolligi bilan kengaytirilgan noaniqlik.

Agar qandaydir (R) ishonchli ehtimolligida qamrov koeffisiyentini ko'rsatmasdan kengaytirilgan noaniqlik berilgan bo'lsa va bunda yoki laboratoriylar, standart namunalarning metrologik tavsifnomalarini baholash bo'yicha laboratoriylararo eksperiment qatnashchilari soni yoki erkinlik darajasining muvofiq soni bilan (t-kriteriy) St'yudent kriteriysi ko'rsatilgan bo'lsa, u holda uning bahosiga o'rtacha kvadratik og'ish mos keladi:

$$\sigma(A) = [U(A)\sqrt{n},]/t.$$

Noaniqliknin o'rtacha kvadratik og'ish ko'rinishida ifodalangandan so'ng SN tanlash xuddi o'lhash vositalari (SN) xatoligi teng ehtimolliklar qonuni bo'yicha taqsimlanganidek o'lhash vositalari uchun amalga oshirilganidek aniqlik bo'yicha amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. O'lhash, o'lhash xatoliklari va ularning kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
2. O'lhash xatoliklari va ularning turlari to'g'risida ma'lumot bering?
3. O'lhash xatoliklari va ularni bartaraf etish yo'llari nimalardan iborat?
4. O'lhash ob'yektlari va sub'yektlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. O'lhash noaniqligi to'g'risida qisqacha tushuncha bering?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Peregudov L.V., Saidov M.X., Fayziyev R.R., Ismatullayev F.R., Abidov O.S. Upravleniye kachestvom i konkurentosposobnostyu produksii. Tashkent, 2001.
2. Demina L.N. Metodы i sredstva izmereniy, ispytaniy i kontrolya: Uchebnoye posobiye. - M.: NIYAU MIFI, 2010. - 292 s.
3. Turayyev Sh.A., Boboyev G.G., Byekmurotov Ch.A. "Mahsulot sifat nazorati va sinov qurilmalari" fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun uslubiy ko'rsatmalar. -Toshkent: ToshDTU, 2014. 122 b.

4. Sudarikova Ye. V. Nerazrushayuçiy kontrol v proizvodstve: ucheb. posobiye. Ch. 1.; GUAP. - SPb., 2007. - 137 s.: il.

5. Gissin V.I. Upravleniye kachestvom produksii: Uchebn. posobiye Rostov n/D: Feniks, 2000. – 256 s.

6. Varakuta S.A. Upravleniye kachestvom produksii.- M.Izdatelstvo RIOR. 2004. -109 s.

7. Aristov O.B. Upravleniye kachestvom. Uchebnoye posobiye dlya VUZov- M.: INFRA, 2004. -240 s.

3-mavzu. O'lhash usullari, sinash va nazorat qilish

Reja:

1. O'lhash usullari. Sinash va nazorat qilish haqida tushuncha.
2. Sifatni nazorat qilish usullari tahlili. O'lhashlardagi muammolar.
3. Zamonaviy o'lhash vositalari, sinash va nazorat qilish usullari

Tayanch so'zlar va iboralar: o'lhash, o'lhash usuli, sinash, nazorat qilish, sifat, nazorat vositalari .

1. O'lhash usullari. Sinash va nazorat qilish haqida tushuncha.

O'lhash - bu umuman har xil kattaliklar to‘g‘risida informasiya qabul qilish, o‘zgartirish demakdir. Bundan maqsad izlanayotgan kattalikni son qiymatini qo‘llash, ishlatish uchun qulay formada aniqlashdir.

O'lhash usuli esa - bu fizik eksperimentning aniq ma’lum struktura yordamida, o'lhash vositalari yordamida va eksperiment o’tkazishning aniq yo‘li, algoritmi yordamida bajarilishi, amalga oshirilishi usulidir.


O'lhash odatda o'lhashdan ko‘zlangan maqsadni (izlanayotgan kattalikni) aniqlashdan boshlanadi, keyin esa shu kattalikning xarakterini analiz qilish asosida bevosita o'lhash ob'yekti (o'lchanadigan kattalik) aniqlanadi. O'lhash jarayeni yordamida esa shu o'lhash ob'yekti to‘g‘risida informasiya hosil qilinadi va nihoyat ba’zi matematik qayta ishlash yo‘li bilan o'lhash maqsadi haqida yoki izlanayotgan kattalik haqida informasiya (o'lhash natijasi) olinadi.

O'lhash – bu izlanayotgan kattalik haqida informasiya qabul qilish va o‘zgartirish jarayonidir. Bundan ko‘zda tutilgan maqsad shu o'lchanayotgan

kattalikning ishlatish, o'zgartirish, uzatish yoki qayta ishlashlar uchun qulay formadagi ifodasini ishlab chiqishdir.

O'lhash fan va texnikaning qaysi sohasida ishlatilishiga qarab u aniq nomi bilan yuritiladi: elektrik, mexaniq, issiqlik, akustik va x.k.

O'lchanayotgan kattalikning sonli qiymatini topishning bir necha xil turlari (yo'llari) mavjuddir. Quyida shu yo'llar bilan tanishib chiqamiz.



Bevosita o'lhash - O'lchanayotgan kattalikning qiymatini tajriba ma'lumotlaridan bevosita topish. Masalan, oddiy simobli termometrda yoki lineyka yordamida o'lhash.

$$u = s \cdot x;$$

Bunda: u - muayyan birlikda ifodalanyotgan o'lchanayotgan kattalikning qiymati;

s - shkalaning bo'lim qiymati;

x - shkaladan olingan qaydnoma.

Bilvosita o'lhash - bevosita o'lchangan kattaliklar bilan o'lchanayotgan kattalik orasida bo'lgan ma'lum bog'lanish asosida katalikning qiymatini topish. Masalan, tezlikni o'lhash.

$$u = f(x_1 x_2 \dots x_n).$$

Majmuyl o'lhash - bir necha nomdosh kattaliklarning birikmasini bir vaqta bevosita o'lhashdan kelib chiqqan tenglamalar tizimini yechib, izlanayotgan

qiymatlarni topish. Masalan, har xil tarozi toshlarining massasini solishtirib, bir toshning ma'lum massasidan boshqasining massasini topish uchun o'tkaziladigan o'lhashlar, haroratni qarshilik termometri orqali o'lhash.

Birgalikdagi o'lhash - turli nomli ikki va undan ortiq kattaliklar orasidagi munosabatni topish uchun bir vaqtida o'tkaziladigan o'lhashlar. Misol, rezistorning 20°S dagi elektr qarshiligi qiymatini turli temperaturalarda o'lhab topish.

Mutlaq o'lhash - bir yoki bir necha asosiy kattaliklarni bevosita o'lchanishini va (yoki) fizikaviy doimiylikning qiymatlarini qo'llash asosida o'tkaziladigan o'lhash.

Nisbiy o'lhash - kattalik bilan birlik o'rnida olingen nomdosh kattalikning nisbatini yoki asos qilib olingen kattalikka nisbatan nomdosh kattalikning o'zgarishini o'lhash.

O'lhash usuli – deganda o'lhash qonun-qoidalari va o'lhash vositalaridan foydalaniib, kattalikni uning birligi bilan solishtirish usullarini tushunamiz.

O'lhashning quyidagi usullari mavjud:

Bevosita baholash usuli - bevosita o'lhash asbobining sanash qurilmasi yordamida to'g'ridan to'g'ri o'lchanayotgan kattalikning qiymatini topish. Masalan, prujinali manometr bilan bosimni o'lhash yoki ampermetr yordamida tok kuchini topish.


O'lchov bilan taqqoslash (solishtirish) usuli - o'lchanayotgan kattalikni o'lchov orqali yaratilgan kattalik bilan taqqoslash (solishtirish) usuli. Masalan tarozi toshi yordamida massani aniqlash. O'lchov bilan taqqoslash usulining o'zini bir nechta turlari mavjud:

Ayirmali o'lhash (differensial) usuli - o'lchov bilan taqqoslash usulining turi hisoblanib, o'lchanayotgan kattalikning va o'lchov orqali yaratilgan kattalikning ayirmasini (farqini) o'lhash asbobiga ta'sir qilish usuli. Misol qilib uzunlik o'lchovini qiyoslashda uni komparatorda namunaviy o'lchov bilan taqqoslab o'tkaziladigan o'lhash. Yoki, voltmetr yordamida ikki kuchlanish orasidagi farjni o'lhash, bunda kuchlanishlardan biri juda yuqori aniqlikda ma'lum, ikkinchisi esa izlanayotgan kattalik hisoblanadi.


$$\Delta U = U_0 - U_x; \quad U_x = U_0 - \Delta U$$

U_x bilan U_0 qanchalik yaqin bo'lsa, o'lchash natijasi ham shunchalik aniq bo'ladi.

Nolga keltirish usuli - bu ham o'lchov bilan taqqoslash usulining bir turi hisoblanadi. Bunda kattalikning taqqoslash asbobiga ta'siri natijasini nolga keltirish lozim bo'ladi. Masalan, elektr qarshiligidagi qarshiliklar ko'prigi bilan to'la muvozanatlashtirib o'lchash.



Almashlash usuli - o'lchov bilan taqqoslash usulining turi hisoblanib, o'lchanayotgan kattalikning o'lchov orqali yaratilgan ma'lum qiymatli kattalik bilan o'rin almashishiga asoslangan. Misol, o'lchanadigan massa bilan tarozi toshini bir pallaga galma-gal qo'yib o'lchash yoki qarshiliklar magazini yordamida tekshirilayotgan rezistorning qarshiligidagi topish:



Bunda "K" ni ikkala holatda (1,2) qo'yganda $\alpha_1 = \alpha_2$ shart bajarilishi kerak.

$$I_1 = U / R_0 \rightarrow \alpha_1$$

$$I_2 = U / R_k \rightarrow \alpha_2$$


Mos kelish usuli - o'lchov bilan taqqoslash usulining turi. O'lchanayotgan kattalik bilan o'lchov orqali yaratilgan kattalikning ayirmasini shkaladagi belgilar yoki davriy signallarni mos keltirish orqali o'tkaziladigan o'lchash. Masalan, kalibr yordamida val diametrini moslash.

Har bir tanlangan usul o‘z usuliyatiga, ya’ni o‘lchashni bajarish usuliyatiga ega bo‘lishi lozim. O‘lchashni bajarish usuliyati deganda, ma’lum usul bo‘yicha o‘lchash natijalarini olish uchun belgilangan tadbir, qoida va sharoitlar tushuniladi.

O‘lchanadigan kattalikning o‘lchash jarayonida o‘zgarish xarakteriga ko‘ra **statik** va **dinamik** o‘lchashlarga ajratiladi. **Statik o‘lchash** deganda qiymati o‘lchash jarayoni mobaynida o‘zgarmaydigan kattalikni o‘lchash tushuniladi. Bundan tashqari, davriy o‘zgaruvchan kattaliklarning turg‘un rejimidagi o‘lchashlar ham kiradi. Masalan, o‘zgaruvchan kattalikning amplituda, effektiv va boshqa qiymatlarini turg‘un rejimida o‘lchash.

Dinamik o‘lchashlarga qiymatlari o‘lchash jarayonida o‘zgarib turadigan kattaliklarni o‘lchashlar kiradi. Dinamik o‘lchashga vaqt bo‘yicha o‘zgaradigan kattalikning oniy qiymatini o‘lchash misol bo‘la oladi.

Yuqorida ko‘rilgan o‘lchash usullaridan tubdan farq qiluvchi **diskret** o‘lchash usuli ham mavjud. Diskret o‘lchash usuli shundan iboratki, unda vaqt bo‘yicha uzluksiz o‘zgaradigan kattalik vaqt bo‘yicha diskretlanadi, miqdor bo‘yicha esa kvantlanadi yoki boshqacha qilib aytganda vaqt bo‘yicha uzluksiz o‘zgaradigan kattalik vaqtning ayrim momentlariga tegishli uzuq qiymatlariga o‘zgartiriladi.




$X(t)$ – vaqt bo‘yicha uzluksiz o‘zgaradigan kattalikning o‘zgarish grafigi; X_k – kvant miqdorlari ya’ni o‘lchanadigan $X=f(t)$ kattaligining $t_1, t_2, t_3, \dots, t_n$ momentlariga tegishli uzuq qiymatlari. Demak, diskret o‘lchash usuli bo‘yicha o‘lchanadigan kattalikning hamma qiymati ($0 \div t$) emas, balki, ayrim momentlarga

tegishli qiymatigina ma'lum bo'ladi. Diskretlash bu muayyan diskret (juda qisqa) vaqt oralig'ida qadnomalarni olishdir. $t_1, t_2, t_3, \dots, t_n$ – diskretlash momentlari deyiladi va $t_1 \div t_2$ gacha oraliq diskretlash momentlari deyiladi. Kvantlash esa, $X(t)$ kattalikning uzlusiz qiymatlarini X_k diskret qiymatlarining to'plami (nabori) bilan almashtirishdir. O'lchanadigan kattalikning uzlusiz qiymatlari muayyan tartiblar asosida kvantlash darajalarining qiymatlari bilan almashtiriladi. Kodlashtirish esa, muayyan ketma-ketlikda ifodalangan sonli qiymatlarni tavsiya etishdan iborat.

Uzlusiz o'zgaruvchan kattalikning diskret usuli asosida uzuk diskret qiymatlariga, kodlarga o'zgartirilishi asosan 3 xil usulda amalga oshiriladi. (1-rasm. a, b, v):

- a) ketma-ket hisob usuli;
- b) taqqoslash (solishtirish) usuli;
- v) sanoq usuli;



1-РАСМ. а, б, в

Mahsulot sifati haqida ob'yektiv ma'lumot, uning haqiqiy xususiyatlari, ishlash va nosozliklari sabablari haqida ob'yektiv ma'lumot olishning asosiy yo'li uni tajribada tadbiq qilish, sinash va ekspluatasiya natijalaridan foydalanishdir.

Sinov deb buyumning xususiyatlarini miqdoriy va (yoki) sifat xarakteristikalarini uni ishlashi, ta'sir qilishi sifatida tajriba yo'li bilan aniqlashga aytiladi [GOST 16 504-81].

Sinov - o'rnatilgan jarayonga mos holda mahsulot, jarayon yoki xizmatni bir yoki bir necha xarakteristikasini aniqlash yo'lidagi texnik operasiyadir. Ma'lum sinov vositalarini va prinsiplarini qo'llash qoidasi – sinov usuli deyiladi.

Sinov ob'yektlari quyidagidek sinovdan o'tkaziladi:

1. Mahsulot (bir butun mahsulot yoki mahsulot qismlari) namunalari - bular tabiiy sinovlar bo'lib, ya'ni sinov haqiqiy mahsulot ustida amalga oshiriladi. Materiallar mashina detallari uzellar mashinalar va ko'plab mashina va asboblardan tashkil topganda to'liq texnik tizimlar sinov ob'yekti bo'lishi mumkin. Mashina detallari ba'zi qismlarini sinash ko'p qo'llaniladigan holat bo'lib, masalan: tishlig'ildirak tishini edirilishiga sinash.

2. Sinovlarni maketlarda amalga oshirish. Mahsulotni sinashning soddalashtirilgan ko'rinishi bo'lib xuddi shu materiallarni yoki haqiqiy qiymatga teng yoki o'xhashlik nazariyasi masshtablariga mos boshqa maxsus materiallarda amalga oshiriladi. Masalan: Aerodinamik quvorda shamol berish uchun samalyot maketlari, basseynda sinash uchun suv osti kemalarning maketlari.

3. Mahsulotni yoki sinov vaqtida unda bo'ladigan jarayonlarni o'rni bosuvchi (mahsulot jarayonlarda) modellarda sinovni amalga oshirish.

Mahsulot, jarayon, hodisa matematik model sinov ob'yekti bilan ma'lum muvofiqlikda bo'lgan va (yoki) mahsulotga ta'sir etib turuvchi va sinov jarayonida mahsulot o'rnini bosadigan boshqa ob'yektlar sinov uchun model bo'lishi mumkin. Masalan, detalni yedirilish jarayonining matematik modeli shu detalni istalgan vaqt momentidagi yedirilganlik qiymatini ma'lum aniqlikda hisoblash imkonini beradi. Elektr zanjirining kompyuter modeli uni ish rejimini tadqiq qilish imkonini beradi.

Mexanik tebranishlar generator ob'yektga ta'sir qiluvchi tashqi vibrasiya modellarini loyihalash imkonini beradi.

Sinovlar ob'yekti foydalanishda bo'lganida ham o'tkazilishi mumkin, ekspluatasiya sharoitini sun'iy hosil qilib ham o'tkazilishi mumkin, hamda belgilangan ta'sirlarni amalga oshirib ham bajarilishi mumkin. Sinov natijasida mahsulot xususiyatlari sifatini xarakterlovchi ma'lumotlarga ega bo'ladi. Masalan, ko'zlangan xususiyatlari (aniqlik quvvati, tezkorligi, ta'sirlarga chidamliligi) yoki

loyihaviy xususiyatlari (yuk ko‘tara oluvchanligi, harakat tezligi) va boshqa xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar olinadi. Mahsulot sifat ko‘rsatkichlari baholanadi va nazorat qilinadi.

Sinovlarga qo‘yiladigan umumiylab shuki, sinov natijalarini solishtirish imkoniyati mavjud bo‘lishi kerak. Shu shart bajarilgandagina sinov natijalaridan umumiylab xarakteristika qonuniyatlarini olish uchun foydalanish mumkin. Shuning uchun sinovlar yagona usuliyat bo‘yicha va yagona meyorlarga rioya qilgan holda o‘tkazilishi mumkin.

Sinov jarayonida sinov ob’yekti (buyum, mahsulot)ga bir yoki bir necha tashqi ta’sir (kuch ta’siri, vibrasiya, issiqlik ta’siri, radiasiya, hamda kimyoviy ta’sirlar va boshqalar) ta’sir ettiriladi. Shu orqali tadqiqodchini qiziqtirayotgan mahsulot sifat ko‘rsatkichining parametrini yoki xarakteristikalarini va xususiyatlari o‘lchanadi. Mashina va asboblarni uzoq muddatliligi (dolgavechnost), shovqinga chidamliligi, karroziya-zanglashga chidamliligi sinovlari; materiallarda esa mustahkamlik, qattiqlik, agresiv muhitlar ta’siriga chidamlilik, zarbaga qovushqoqlik, yedirilib o‘chib ketishlik, eksperimental sinovlari keng qo‘llaniladi.

Sinovning qo‘llash turlariga sinovlar ishlab chiqilgan bo‘lib, sinov sharoiti, sinov qayd etilishi kerak bo‘lgan aparatlar ro‘yxati va boshqa zarur mablumotlar belgilanib qo‘yilgan.

Sinovlar uzluksiz va siklli bo‘lishi mumkin. Uzluksiz sinovlarda namuna sinov vaqtida uzluksiz turg‘un kuchlanish ostida bo‘ladi va sinov namuna sinov uchun yaroqsiz holga kelguncha davom etadi, chunki, (davriy) sinovlarda namuna davriy ravishda barcha asosiy tur yuklanishlari – harakat, vibrasiya, namlik elektr kuchlanishi ta’sirida sinovdan o‘tkaziladi. Amalda bu barcha yuklanishlarni birdaniga hosil qilish mumkinligi sababli sinalayotgan buyum turli faktorlar ta’siriga ketme-ket sinaladi. Shunda ham har bir siklda barcha faktorlar qatnashadi.

2. Sifatni nazorat qilish usullari tahlili. O‘lchashlardagi muammolar.

Mahsulotlar sifat ko'rsatkichlarini aniqlashning organoleptik, tajriba, sosiologik, ruyxatga olish, hisob-kitob, ekspert (7 kishidan kam bo'lmagan) usullari mavjud.

Organoleptik usulda – mahsulot sifati xid, ko'rish, eshitish, ta'm orqali aniqlanadi. Bu usul vositasida mahsulotning tashqi ko'rinishi, ta'mi, hidi, rangi (tusi), tarkibi, konsistensiyasi, maydalanish darajasi aniqlanadi. Usul oddiy va ko'p vaqt talab etmaydi. Usulning kamchiligi – kishilar fiziologik xususiyatlariga bog'liq bo'lgan sub'yektivlikdir. Baholash natijalari baholovchilarning tajribalariga, qobiliyatlariga, mahoratlariga, degustasiya shart-sharoitlari va texnikasiga bog'liq.

Tajriba usulda – ko'rsatkichlarni asboblar yordamida o'lhash va tahlil qilishga asoslangan bo'lib, miqdoriy ko'rsatkichlardan foydalaniadi. Tajriba usullari fizik, kimyoviy, kimyoviy-fizik, mikroskopik, biologik, fiziologik va texnologik usullarga ajratiladi. Bu usllarda mahsulotning kimyoviy tarkibi, fizikaviy, mikrobiologik, texnologik xususiyatlarini aniqlanadi. Natija raqamlarda ifodalanadi, lekin vaqt uzoqdir.

Fizik usullar mahsulotning fizik xossalariaga asoalanadi. Fizik usullarga poliyarimetrik, ayefraktometrik, realogik, dielektrik usullar kiritiladi. Poliyarimetrik usuldan optik faol moddalar (saxaroza, glyukoza, fruktonza)ni miqdoriy aniqlashda foydalilanadi. Eriydigan quruq moddalar, shakar va yog'ni aniqlashda refraktometrik usuldan foydalilanadi.

Referaktometrik usul oziq-ovqat mahsulotining tarkibiy-mexanik xususiyatlarini aniqlash, donning me'yorlarini, cho'zinchoqligi, yirikligi, to'laligi, puchligi, tekisligi, yaltiroqligi va naturasini aniqlash, to'kiluvchanlikni, g'alviraklikni, tola massasi hajmini, uning mexanik xususiyatlarini (pishiqlik va moslashuvchanlik)ni aniqlash qo'llanadi.

Dielektrik usul bilan namlik aniqlanadi.

Kimyoviy usulda mahsulotlarning kimyoviy tarkibi aniqlanadi.

Fizik-kimyoviy usulda – xromatografik (xushbo'y va bo'yoq moddalar tabiatini va miqdorini, oqsillardagi aminokislota tarkibini, ayrim organik kislotalar mavjudligini aniqlash), potensiometrik (LPU-1 potensiometr yordamida tadqiq

qilinayotgan eritmada vodorod ionlari yo‘nalishini va boshqalarni aniqlash), konduktometrik (eritmaning elektr o‘tkazuvchanligini tadqiq qilish), kolorimetrik (eritmada yorug‘likni yutish bo‘yicha moddalar to‘planishini aniqlash), shuningdek, bu usul vositasida meva va rezavorlardagi vitaminlar tarkibi, mahsulotning rN miqdori aniqlanadi.

Mikroskopik usulda mahsulotning anatomik tuzilishi, tarkibini aniqlashda foydalilanadi.

Biologik usulda asosan qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larining unuvchanligi, mahsulotlarda toksik moddalar mavjudligi, mikroorganizmlar aralashganligi, hashorat va kanalar bilan zararlanganligini aniqlashda foydalilanadi.

Fiziologik usulda oziq moddalarning singuvchanlik koeffisenti, fiziologik kaloriyaliliqi (energitik qobiliyati), biologik qiymati va zararsizligi aniqlanadi.

Texnologik usulda mahsulotlarini xom ashyolarning mahsulot sifati to‘g‘risida tasavvur beruvchi texnologik yaroqliligi va texnologik xususiyatlarini aniqlashda foydalilanadi.

Sosiologik usulda – xaridorlar fikriga qarab aniqlanadi. Mahsulotlarni sifati sotish ko‘rgazmalari, xaridorlar konferensiyalari anketalar tarqatish yo‘li bilan aniqlanadi.

Ro‘yxatga olish usuli. Bu usul orqali muayyan xodisalar, narsalar yoki xarajatlarni kuzatib va hisobga olib boriladi. Ro‘yxatga olish usuli muayyan hodisalarni hisobga olish (masalan, sinovlar vaqtida buyumning ishdan chiqishi, turkumdagi nuqsonli buyumlar miqdori) bo‘yicha olingan axborotlarga asoslanadi.

Hisob-kitob usuli. Bu usulga ko‘ra mahsulot sifati ko‘rsatkichlarini uning parametrlariga nazariy va empirik bog‘lanishidan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Hisob-kitob usulida mahsulot sifati ko‘rsatkichlari boshqa usullar vositasida olingan parametrlar qiymatidan foydalanilagan hisoblashlar yordamida aniqlanadi (bashorat qilinadi).

Ekspert usulda – 7 kishidan kam bo‘lmagan yuqori malakali mutaxassis-ekspertlardan-mahsulotshunos, dizayner, konstruktorlardan tashkil topadi va ularning fikri bo‘yicha sifatga baho beriladi.

Ekspert komissiyasi 2 guruhdan iborat bo‘lib, ekspert va ishchi guruhi hisoblanadi. Ekspert guruh mahsulotlarga baho beradi, ishchi guruhi esa texnik-tashkiliy ishlari: so‘rov ishini tashkil ettish, anketalarni tarqatish va yig‘ish, ekspert baholarni qayta ishslash va analiz qilish ishlari bajaradi. Mahsulotlarga baho berishda komissiya a’zolarini 2/3 ovozi qabul qilindi deb ataladi.

Ekspert baholashda 5; 10; 40 yoki 100 balli sistemalar qo‘llaniladi. Ballar baholash davrida yoki muhokama davrida qo‘yiladi.

Mahsulotlar sifat darajasini aniqlash usullari – differensial, kompleks va aralash usullar yordamida aniqlanadi.

Differensial usulda sifat ko‘rsatkichlari etalonga solishtirib aniqlanadi.

Kompleks yoki umumlashtirilgan usulda ballar umumlashtirishda va bu bal hamma ko‘rsatgichlar uchun umumiylis hisoblanadi.

Aralash usul – ikkala usuldan ham foydalanadi.

Mahsulotlar sifati ustidan davlat nazorati – Viloyat standartlash va metrologiya markazlari orqali amalga oshiriladi. Ular sifatsiz mahsulotlar chiqarishni ta’qiqlashlari, aniqlangan sifatsiz mahsulotlar xajmini korxona rejasidan chiqarish va sotilgan qismidan kelgan daromadni davlat byudjetiga o‘tkazish, maxsus qabul qilish tartibi o‘rnatish huquqiga egadirlar.

Yana davlat savdo inspeksiysi – ishlab chiqarishi, sotuv va sotib oluvchi korxonalar mahsulotlarini sifatini tekshiradi.

Davlat qabuli – ularni tamg‘asi bo‘lgan mahsulotlar savdo bazalarida tekshirilmasdan qabul qilinsa ham bo‘ladi (tashishdagi nuqsonlardan tashqari).


Mahsulotlar sifatini tekshirish – mahsulotlarning sifat va morfologik ko‘rsatgichlarini normativ-texnik xujjalarga to‘g‘ri kelishiga aytildi.

Mahsulotlar ishlab chiqishidan oluvchiga yetib borguncha bir necha bor tekshiriladi: operasion, qabul, daromad tekshiruvlari mavjud.

Oprerasion – har bir bosqichdan keyin tekshiriladi.

Qabul tekshiruvi – ishlab chiqarishni oxirida bajariladi. Sifatni boshqarish bo‘limi tamg‘asi bosilishi mahsulotni sifatlilagini bildiradi.

Daromad tekshiruvi – sanoat korxonalariga kelgan xom-ashyolarni va savdoga kelgan mahsulotlarni sifati bo'yicha qabul qilish jarayoniga aytildi.



3. Zamonaviy o'lchash vositalari, sinash va nazorat qilish usullari

Mahsulotlarni sinash va sinovlar turlari GOST 16 504-81 ga muvofiq sinflarga ajratiladi (10.1- rasm)

1. Sinovlar mo'ljallanganligiga qarab: tadqiqod uchun, nazorat uchun, solishtirish uchun, qiymatini aniqlash uchun amalgam oshirilishi mumkin.

Tadqiqod qilish sinovlari namunaviy buyumni tajribaviy qayta ishslash jarayonida konstruktorlik hujjatiga muvofiq amalga oshiriladi. Bu sinovning maqsadi – ob'yekt xususiyatinig malum xarakteristikalarini (parametrlarini, xususiyatlarini va sifat ko'rsatkichlarini) o'rGANISHdan iborat bo'ladi. Sinov ob'yekti sifatida haqiqiy namuna ham ishlatilishi mumkin. Shu sinovlarda material yoki buyum xususiyatlari haqida ma'lumot olinadi. Bu ma'lumot aniqlangan xususiyatdan yanada samarali foydalanish uchun zarur hisoblanadi.

Nazorat sinovlari mahsulot sifatini nazorat qilish, ya'ni amalda erishilgan sifat ko'rsatkichini belgilangan qiymatga muvofiqligini nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi. Bu sinovlar mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarida

o‘tkaziladi. Bu sinovlar natijasida aniqlangan nomuvofiqlik sabablari aniqlanadi va bartaraf etilib hamda sifatini yanada yaxshilash bo‘yicha tavsiyanoma ishlab chiqiladi. Bu xil sinovlar faqat haqiqiy namunalarda amalga oshiriladi.

Nazorat sinovlari mahsulot mustahkamligi haqida yetarlicha ma’lumot berilmaydi. Mustahkamligini aniqlash uchun qo‘sishimcha ravishda maxsus sinovlar masalan – zahiraviy (uzoq muddatlilik), buzulmasdan ishlash, saqlanuvchanlik va boshqa sinovlardan o‘tkazilishi kerak.

Nazorat sinovlari natijalari mahsulotni yaroqsizliliginu aniqlash uchungina emas, balki nazorat sinovining statistik qayta ishlangan natijasi – texnologik jarayonlar sifatini aniqlash va uni yanada yaxshilash yo‘llarini topish imkonini beradi. Nazorat sinovining har bir parametrlari texnologik jarayoninig maъlum qismi holatini xarakterlaydi.

1.3. Solishtirish sinovlari – xarakteristikalari bo‘yicha o‘xhash yoki bir xil ob’yektlarini ularning xususiyatlarini sinash maqsadida bir xil sharoitda sinash.

1.4. Aniqlash sinovi – obekt xarakteristikasini avval maъlum bo‘lmagan qiymatlarini belgilangan aniqlik va (yoki) ishonchlilik bilan, zarurat bo‘lganda esa tasodifiy kattalik taqsimlanish qonuniy qiymati bilan aniqlash sinovi.

2. Mahsulotni ishlab chiqish bosqichlari bo‘yicha: - o‘lchamiga yetkazish, dastlabki, qabul qilish va topshirish sinovlariga sinflanadi.

2.1. O‘lchamga yetkazish sinovlari – mahsulotni ishlab chiqish jarayonida unga kiritilayotgan o‘zgarishlar uni belgilangan sifat ko‘rsatkichi qiymatlariga yetishi uchun qanday ta’sir qilganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan sinovlar.

2.2. Dastlabki sinov – tajribaviy ilk namunalarni va (yoki) ilk partiya mahsulotni qabul qilib olish sinovlariga topshirish mumkinligini aniqlash maqsadida sinashdir.

2.3. Qabul qilish va topshirish sinovlari – ilk namunani mahsulotni seriyali ishlab chiqarishga qo‘yishga va (yoki) mo‘ljallanganligi bo‘yicha qo‘llashga yaroqliliginu aniqlash maqsadida sinash.

3. Tayyor mahsulotni sinash quyidagicha sinflanadi.

3.1. Malakaviy sinov – korxonani muayyan mahsulotni belgilangan hajmda ishlab chiqarishga tayyorligini baholash maqsadida mahsulotning birinchi sanoat ishlab chiqarish partiyasini sinash (ya’ni, yangi mahsulot ishlab chiqilgan va u ishlab chiqarishga qo‘yiladimi yo‘qmi shu hal qilinmoqda).

3.2. Taqdim etishdan oldingi sinov – ishlab chiqaruvchi korxona texnik xizmati tomonidan mahsulotni buyurtmachiga, istemolchiga yoki boshqa qabul qilib olish idorasiga taqdim etishdan oldin o‘tkaziladigan sinov.

3.3. Qabul qilish – topshirish sinovni qabul qilib olish sinovida mahsulotning nazorat sinovidir.

3.4. Davriy sinov – me’yoriy texnik hujjatda belgilangan hajm va vaqtida ishlab chiqarilayotgan mahsulotni nazorat sinovi, bunda mahsulot sifatining turg‘unligi va uni ishlab chiqarish mumkinligi tekshiriladi.

3.5. Inspeksion sinov – maxsus vakolatki idora tomonidan belgilangan turdag'i ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni tanlab sinovdan o‘tkazish, bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining turg‘unligi nazorat qilinadi.

3.6. Mahsulot turi sinovi – ishlab chiqarilayotgan mahsulot konstruksiyasiga, xususiyatiga, yoki texnologik jarayoniga kiritilgan o‘zgarishni samarali va maqsadga muvofiq bo‘lganligini tekshirish maqsadida sinash.

3.7. Attestasion sinov – mahsulot sifat darajasi bo‘yicha attestasiyadan o‘tayotgan paytdagi sinov.

3.8. Sertifikasiya sinovi.


4. Sinov sharoiti va joyi bo‘yicha:

4.1. Laboratoriya (tajriba xonasi) – laboratoriya sharoitida amalga oshiriluvchi sinov.

4.2. Sinov stendida sinash – sinov qurilmasida o‘tkaziladigan sinash.

4.3. Poligon sinash – ob’yektni sinov poligonida sinash.

4.4. Tabiiy sinov – ob’yektni uni qo‘llanish sharoitiga muvofiq sharoitda sinash, bunda bir vaqtning xarakteristikalari baholanadi yoki nazorat qilinadi. Bu (mahkamaviy, davlat) sinovlar yakunlovchi hisoblanib, bu



10.1 mahsulotnisinash turlarinig sinflanishi

sinov seriyali ishlab chiqarishga taqdim etiladigan hujjat bo‘yicha tayyorlangan namunalar ustida o‘tkaziladi. Bu sinovlarni o‘tkazish sharoitiga maksimal darajaga yaqinlashtirilgan bo‘lishi kerak. Bu sinovlar texnik tizimni yoki uning elementlarini puxtaligi va ishga yaroqliligi haqida eng to‘liq ma’lumot olish imkonini beradi.

4.5. Modellar yordamida sinash.

4.6. Ekspluatasion sinov – tayyor mahsulotni ekspluatasiya vaqtida sinash. Bu sinovlar o‘tkazilish maqsadiga ko‘ra tadqiqod olib borish sinovlariga taalluqli bo‘ladi.

Laboratoriya sharoitida mahsulot sinovi qanchalik batafsil rejalahtirilmasin, real ekspluatasiya sharoitidagi tashqi ta’sirlar, rejimlar va sharoitlar turli tuman birikmasini hamda turli qiymatlilagini amalga oshirib bo‘lmaydi. Shuning uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi uchun sinalayotgan mahsulotni ekspluatasiya vaqtida kuzatishlar natija sifatida belgilangan ma’lumot juda zarur hisoblanadi. Mahsulotni ekspluatasiya sharoitida ishlashi to‘g‘risida tezkor ma’lumot yig‘ish va qayta ishlashni tashkil qilish ishlab chiqaruvchi mahsulotning kelgusi partiyasiga zarur o‘zgartirish kiritishi, texnologik jarayonni takomillashtirilishi va yangi yaxshilangan model ishlab chiqish imkoniyatlarini beradi.

Biroq ekspluatasiya ma’lumoti bir qator kamchiliklarga ega. Ulardan biri shuki – mahsulotga u yoki bu alohida tashqi faktor – harorat, tezlik, yuklanish va boshqalarni ta’sirini alohida ajratib ko‘rsatish imkoniyati mavjud emas. Tashqi faktor ta’sirini bunday alohida o‘rganish analitik hisoblash usullarini ishlab chiqish uchun zarur bo‘ladi.

Bu sinovning keyingi kamchiligi – ma’lumot olishni juda uzoq vaqt davom etishdir. Nisbatan qimmat va murakkab texnik tizimlar (stanoklar, energetik qurilmalar va boshqalar)ning xizmat muddati bir necha o‘n yilgacha davom etishi mumkin. Bu muddat o‘tkandan so‘ng bu mahsulotni ishlab chiqarish to‘xtatilgan bo‘lishi ham mumkin va shu sababli yig‘ilgan ma’lumot qadirsizlanib qoladi.

Mahsulot xususiyatlari xarakteristikalari haqida maʼlumot olish vaqtini qisqartirish maqsadida qisqa muddatli yoki tezlashtirilgan sinovlardan foydalaniladi.

5.Sinovni davom etish vaqt boʻyicha sinovlar uch xil: normal sinov, qisqartirilgan sinov va tezlashtirilgan sinov turlariga ajratiladi.

5.1 Normal sinovni oʻtkazish usuli va sharoiti obʼyekt xususiyatining xarakteristikasi haqida zarur hajmdagi maʼlumotni ekspluatasiya sharoiti nazarda tutilgan vaqt davomida olish imkonini beradi. Mahsulotga tushayotgan yuklanish nominal qiymatga yaqin boʻlgan hollarda normal sinov amalga oshiriladi. Bu sinov jarayonida mohiyatan mahsulotning ekspluatasiya sharoiti hosil qilinadi. Shuning uchun ham natija juda ishonchli boʼladi. Sinovni uzoq vaqt davom etishi bu usulning kamchiligi hisoblanadi. Ayniqsa resurs miqdori koʻp qurilmalar uchun bu usuldan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Maʼlumotni kechikib yetib kelishi uni zarurligi darajasini kamaytirib yuboradi va mahsulot sifatini tezkor boshqarishni qiyinlashtiriladi.

5.2. Qisqartirilgan sinov – qisqartirilga dastur boʻyicha amalga oshiruvchi sinov. Bu sinovlar darajasizlantirish jarayonini tezlantirish qoʻllanilmaydi, balki ishga sikllar orasini qisqartirish yoki vaqt boʻyicha ekspluatasiya (qayta ishslash) qilish ishlatiladi. Mahsulotni ish vaqtidagi tanaffuslari uni buzilishiga olib boruvchi jarayonlarga taʼsir qilmasa, shunda ishchi sikllarni qisqartirishga ruxsat beriladi. Vaqt boʻyicha ekspluatasiya qilish buzilish modeli asosida amalga oshiriladi. Sinov davomiyligini qisqartirish usullariga:

1. sinovni vaqt boʻyicha zichlashtirish (turib qolish boʼsh harakatlarni qisqartirish, mahsulotni toʼliq sutka davomida ishslash va hokazolar);
2. koʻp sonli mahsulotlarni bir vaqtning oʻzida sinash;
3. eng faol mahsulot – belgilangan sharoitning murakkab holatlarda uzluksiz ishlovchi maʼlumotni sinash. Qisqartirilgan sinovlarni amalga oshirish tamoyillari maʼlumot sifatiga va natijaning ishonchlilikiga taʼsir qiladi

5.3. Tezlashtirilgan sinovlar – normal sharoitga nisbatan ancha qisqa vaqtda obʼyekt xususiyatlarinig xarakteristikalari toʼgʼrisidagi zarur maʼlumotni olishni

ta'minlovchi usul va sharoitlarda amalga oshiriladi. Vaqt ni qisqartirish usuliga qarab, tezlashtirishning 3 xil yo'li belgilangan:

1- Mahsulotni ishslash rejimi ekspluatasiya hujjatida belgilangan normal sharoitga muvofiq bo'ladi va vaqt ni qisqartirish statistik modellardan foydalanib amalga oshiriladi.

2- Moddalashtirilgan sinovni amalga oshirib uni normal sharoit uchun qayta hisoblashni anglatadi, vaqt ni qisqartirish darajasizlantirish (eskirish) jarayoni intensivligini oshirish orqali erishiladi.

3- Ikkinci va birinchi yo'llardan aralashgan holda vaqt ni qisqartirish uchun faqat sinovni jadallashtirish yo'lidan foydalanish zarur.

5.4. Jadallashtirilgan sinov – tezlashtirilgan sinov bo'lib, buzilishni keltirib chiqaruvchi jarayonlar intensivligini oshirishga asoslangan. Eskirish jarayoni intensivligini oshirish uchun mahsulotga tezlashtiruvchi (jadallashtiruvchi) omillar (ta'sirlar) ta'sir ettiriladi.

Jaddallashtirilgan sinovlar samaradorligi tezlashish koeffisiyenti Ky bilan harakatlanadi. Bu koeffisiyent sinov rejimida eskirish jarayoni normal rejimda ishslashga nisbatan qancha marotaba tez amalga oshayotganligini bildiradi.

$k_y = \frac{T''}{T^\phi}$, bu yerda T'' , T^ϕ - mos holda normal ish rejimida va jadallashtirilgan sinovlardagi mahsulot ishonchlik xarakteristikasi baholanayotgan vaqtvari.

Bunda normal sinov rejimi deganda $\{y_1(t), y_2(t), \dots, y_n(t)\}$ ning biror bir tashkil etuvchisi texnik hujjatda belgilangan chagaraviy oraliqlardan chiqmaydigan rejim tushuniladi. Jadallashtirish rejimning bir yoki bir necha tashkil etuvchisini qattiqlashtirish orqali amalga oshadi. Bu esa mahsulotni chegaraviy bardosh qiymatiga yaqinlashtiruvchi jarayonni intensivlashishiga olib keladi. Mexanik qurilmalarni sinashda jadallashtirish uchun yuklash yoki atrof-muhit xarakteristikalari qattiqlashtiriladi, yani:

- yuklanish berish chastotasini oshirish;

- bosim kuchlanish va hakozo yuklanishlarni qattiqlashtirish;

- tashqi mexanik va iqlimiylar omillar (zarbalar, vibrasiya, harorat va hakozolar)ni qattiqlashtirish;

-ishchi muhit ta'sirini (agrisiv muhitlar, ediriluvchi zarrachalar va hakozo)larni qattiqlashtirish;

-ob'yektning asosiy sifat xarakteristikalariga qattiq (qaxratkich) ta'sir qiluvchi yuklanishlar spektorini hosil qilish amalga oshiriladi.

Jadallashtirilgan sinovlarni rejorashtirishning eng muhim bosqichlaridan biri – sinov rejimini tanlashdir. Jadallashtirilgan rejim mahsulotni normal ekspluatasiya rejimidan farq qilishi kerak, shu bilan birga shu ikkala rejim ma'lum shakilda ham sifat, ham miqdor jihatdan bog'langan bo'lishi kerak.

Buzulish yoki eskirish jarayonini har qanday intensivlanishi mahsulot ishga yaroqsizlanish jarayoninig haqiqiy ko'rinishini buzulishiga olib keladi. Jadallashtirilgan sinovlarni o'tkazishning murakkablik tomoni yana shundan iboratki, istalgan ob'yektning ekspluatasiya vaqtida ehtimol tabiatdagi yuklanishlar spektori bilan harakterlanishidir.

Mahsulotni jadallashtirilgan rejimda ishlashi, eskirishi va buzulish jarayonlarida ekspluatasiya sharoitida uchramaydigan holatlarni yuzaga keltirishi va buzulish tasviri sifatini o'zgartirib yuborishi mumkin. Bu holatda esa sifat ko'rsatkichlarini normal sharoitga o'tkazish faqat rasmiy harakatga aylanib qolishi va qo'pol holatliklarga olib kelishi mumkin. Mahsulot materiyalining ma'lum eskirish yoki buzulish qonuni doirasidagina rejimni jadallashtirishga ruxsat beriladi.

Jadallahgan sinovlarni o'tkazishga o'xshashlik nazariyasi usullari asos bo'ladi. Bu nazariyasi asoslari eksperimentni rejorashtirishda, tajriba natijalarini qayta ishslashda qo'llaniladi va olingan natijani qanday umumlashtirish va boshqa ob'yeqtarga ham tadbiq qilish usullarini o'rgatadi.

Jadallashtirilgan sinovlarda buzulishni yuzaga kelish jarayonini normalga moslashuvchanligini va mahsulotni jadallashtirilgan rejimda ishslashini ta'minlash kerak.

Vaqtning to‘g‘ri chiziqli funksiyasi hisoblangan darajasizlantirish (eskirish) jarayonini amalga oshirish uchun mahsulotni jadallahsgan rejimdan ishlash vaqtini ishlash vaqtini normal rejimdagi vaqtiga quyidagi bog‘liqlik orqali qayta hisoblanadi:

$$T^u = \frac{b^\phi}{b^u} T^\phi = k_y T^\phi,$$

Bu erda- T^u, T^ϕ - mahsulotninormal va jadallashtirilgan rejimlarda ish vaqtini; b^u, b^ϕ - normal va jadallahsgan rejimlarda buzulish tezligi qiymatlari; k_y - sinovni tezlashtirilganlik koeffisienti (qayta hisoblash koeffisiyenti).

Eskirish jarayoninig yarim tasodifiy amalga oshirilishi – to‘g‘ri chiziqli vaqt funksiyasi bo‘lmasa, unda bo‘laklab to‘g‘ri chiziqga keltirish usuli qo‘llaniladi. Mahsulotni jadallashtirilgan rejimdan normal rejimga qayta hisoblash quyidagi ifoda bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$T^u = \sum_{i=1}^m \frac{b_i^\phi}{b_i^u} T_i^\phi = \sum_{i=1}^m k_{yi} T_i^\phi,$$

bu yerda T_i^ϕ - jadallashtirilgan rejimda to‘g‘ri chiziqga keltirilgan uchastka uzinligi; b_i -i – chi to‘g‘ri chiziqga keltirilgan uchastkaning burchak koeffisiyenti.

Jadallashtirilgan sinovlar sinov vaqtini bir necha baravar qisqartirish imkonini beradi, lekin murakkab mahsulotlar uchun natija ishonchliligi kamayadi. Ishonchlilikning kamayishining sababi shuki, mahsulotni jadallahsgan rejimdagi ish natijasi (ya’ni kuchaytirilgan yuklanishdagi natijasi) mahsulotni normal ishslash rejimi, ya’ni nominal yuklanish sohasidagi rejimiga qayta hisoblanadi. Bunda mahsulotning turli uzellari uchun qayta hisoblash koeffisiyenti turlicha bo‘ladi, chunki aynan bir jadallashtiruvchi omil mahsulotni turli uzellar uchun turlicha ta’sir qiladi va ularni texnik holati o‘zgarish tezligi turlicha bo‘ladi.

6. Ta’sir turi bo‘yicha sinovlar quyidagicha turlarga ajratiladi:
 1. Mexanik – mexanik omillar ta’siriga sinovdan o‘tkazish;
 2. Iqlimiylar – iqlimiylar omillar (atmosfera bosimi, harorat, namlik, atmosfera yog‘ingarchiliklari, tuman, quyosh nuri, shamol, chang, qum va hakozolar ta’siriga sinash;

3. Termik - harorat omillari ta'siriga sinash;
 4. Radiasision – radiasiya omillari ta'siriga sinash;
 5. Elektr – elektr kuchlanishi, elektr toki va elektr maydoni ta'siriga sinash;
 6. Elektromagnit – elektromagnit maydon ta'siriga sinash;
 7. Magnitik – magnit maydon ta'siriga sinash;
 8. Kimyoviy – maxsus kimyoviy muhitlar ta'siriga sinash;
 9. Biologik – biologik omillar ta'siriga sinash.
7. Sinov ta'sirining natijasi bo'yicha sinovlar quyidagiga ajratiladi:
- 7.1. Putur etkazmaydigan – putur yetkazmaydigan nazorat usullarini qo'llab sinash. Ob'yeektni buzmaydigan yoki shikast yetkazmaydigan holda amalga oshiriladigan sinov, materiallar, detallar yoki mahsulotlar xarakteristikalari yoki xususiyatlarini uning ekspluatasiya mustahkamliliga salbiy ta'sir qilmay (mahsulot sifatini o'zgartirmay) o'lchash yoki aniqlashning barcha usullarining o'zida mujassamlashtirgan. Putur yetkazmay sinash orqali mahsulotning mustahkamliligi va uzoq mudatliligi haqida ma'lumot olib bo'lmaydi.
 - 7.2. Putur yetkazuvchi sinov – putur yetkazib nazorat qilish usullarini qo'llab sinash. Putur yetkazuvchi sinovlarning afzal tomoni shundaki, u mahsulot xususiyati haqida miqdoriy xarakteristika berish imkonini beradi. Har bir sinovda, odatda faqat bitta xarakteristika (masalan, materiallar uchun chidamlilik chegaraviy qiymati, qattiqlik va hakozo) namunalar, zagatovkalar, detallar, mahsulot, texnik tizim to'liqligi bu sinovdan o'tkazilishi mumkin. Putur yetkazuvchi sinovlar mahsulotning mo'ljallanganlik, mustahkamlik, texnologik ko'rsatkichlari qiymatini olish imkonini beradi. Putur yetkazuvchi sinovda detal mexanik yuklanish ostida buzuladi yoki ichki tomondan o'rganish uchun qirqib ikkiga bo'linadi. Mustahkamlik sinovlari ham putur yetkazuvchi hisoblanadi, chunki bu sinov natijasida o'rganilayotgan mahsulotning resursi (to'liq yoki qisman) sarf bo'ladi. Kelgusida ishlataladigan detallar putur yetkazuvchi sinovdan o'tkazilmaydi va putur yetkazuvchi sinovdan o'tkazilgan detallar yoki tizimlar sinovdan so'ng o'z mo'ljallanishi bo'yicha ishlatisfha yaroqsız bo'ladi. Mahsulotlarning maъlum qismi, tanlash asosida putur yetkazuvchi sinovga tadbiq

etiladi. Bu holda mahsulotning sifat ko'rsatkichlari mos statistik bahodan ajralishi mumkin, chunki tanlash miqdori cheklangan va tanlash tasodifiy amalga oshiriladi. Bu farqni hisobga olish uchun ishonchli ehtimollik tushunchasi kiritiladi. Ishonchli ehtimollik – bu baholanayotgan qiymatning haqiqiy qiymati yoki uni son qiymatli xarakteristikalarini ishonchli deb ataluvchi intervalda joylashish ehtimolidir.

7.3. Turg'unlik sinovlari:

Mustahkamlikka sinov – ob'yekt xususiyati xarakteristika qiymatini belgilangan qiymatdan chiqarib yuboruvchi yoki uni buzib yuboruvchi ta'sirning qiymatini aniqlash uchun o'tkaziladigan sinov.

Chidamlilik sinovi – mahsulotning unga ma'lum omillar ta'sir qilish vaqtida o'zining funksiyalarini bajarish va parametrлari qiymatini saqlay olish xususiyatini nazorat qilish uchun o'tkaziluvchi sinov.

8. Aniqlanadigan xarakteristikasi bo'yicha sinovlar quyidagi turlarga ajratiladi.

8.1. Mustahkamlik sinovi – belgilangan sharoitda ishonchlilik ko'rsatkichinig aniqlash yoki nazorat qilish uchun o'tkazuvchi sinov. Mustahkamlik sinovi qiymatni aniqlovchi va nazorat qiluvchi, hamda normal va jadallashtirilgan va hakozo bo'lishi mumkin.

8.2. Havosizlik sinovi.

8.3. Transportabellik (tashilishga) sinovi belgilangan sharoitlarda transportabellik ko'rsatkichini aniqlash yoki nazorat qilish uchun o'tkaziluvchi sinov.

8.4. Chegaraviy sinovlar – ob'yekt parametrlarinig chegaraviy ruxsat etilgan qiymatlari va ekspluatasiya rejimi orasidagi bog'liqligni aniqlash maqsadida o'tkaziluvchi sinov.

8.5. Texnologik sinov – mahsulotni ishlab chikarish jarayonida uning texnologikligini baholash maqsadida o'tkaziluvchi sinov.

9. Olinadigan ma'lumot bo'yicha «Tanlanma miqdori bo'yicha».

9.1. Guruhlar sinash – sifat ko'rsatkichini guruhlab aniqlash usuli bo'yicha otkaziluvchi sinov. Sinov natijalari tanlanmaga, partiyaga tegishli bo'ladi;

mustahkamlikning guruhli sinovi matematik statistika usullari bilan qayta ishlanganligi uchun, bu sinov uchun namunalar soni ko‘p bo‘lishi kerak. Natijani aniqligi va ishonchliligi yuqori bo‘lishi uchun har bir mahsulotlar soni ko‘p bo‘lishi kerak.

9.2. Individual sinov – sinov natijasi uzining alohida xususiyatiga ega aynan ma’lum bitta namunaga tegishli bo‘ladi.

10. Sinovni o‘tkazilish darajasi bo‘yicha – davlat sinovlari, mahkamalararo «korxonalararo» sinovlar, mahkamaviy sinovlarga ajratiladi.

10.1 Davlat sinovlari deb – belgilangan muhim mahsulot turlarini shu sinovlarni o‘tkazish huquqiga ega:

- davlat sinovlari bo‘yicha bosh tashkilot yoki
- davlat komissiyasi yoki sinovchi tashkilot tomonidan o‘tkaziluvchi qabul qilish sinovlariga aytiladi.

10.2. «Korxonalar» aro sinovlari – bu bir necha manfatdor vazirlik va «yoki» mahkami vakillaridan iborat komissiya tomonidan bajariluvchi sinov yoki bir necha mahkama birlikda ishlab chiqgan ob’yektning tarkibiy qismlarini qabul qilish uchun balgilangan mahsulot turlarini sinash.

10.3. Mahkamaviy sinov – manfatdor vazirlik yoki mahkamalar vakillaridan iborat komissiya tomonidan o‘tkaziluvchi sinov.

Nazorat savollari

1. O‘lhash usullari to‘g‘risida nimalar bilasiz?
2. Sinash va nazorat qilish haqida tushuncha bering?
3. O‘lhashlardagi muammolar to‘g‘risida ma’lumot bering?
4. O‘lhash, o‘lhash vositasi nima?
5. Zamonaviy o‘lhash vositalari, sinash va nazorat qilish usullari to‘g‘risida nimalar bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Demina L.N. Metodы i sredstva izmereniy, ispytaniy i kontrolya: Uchebnoye posobiye. - M.: NIYAU MIFI, 2010. - 292 s.
2. Sudarikova Ye. V. Nerazrushayushchii kontrol v proizvodstve: ucheb.

posobiye. Ch. 1.; GUAP. - SPb., 2007. - 137 s.: il.

3. Sibrinin B.P. Metodы i sredstva kontrolya kachestva. Metodicheskiye ukazaniya k vopolneniyu kursovogo proyekta.– Penza:PGU, kaf. MSK, 2005. – 27 s. (V pomosh studentu, seriya "Kachestvo", Vip. 7).

4. Ismatullayev P.R., Maksudov A.N., Abdullayev A.X., Axmedov B.M., A'zamov A.A. Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish. –T.: O'zbekiston, 2001. - 360 b.

4-mavzu. Intellektual va virtual o'lhash vositalari, ularning ishlash tamoyillari

Reja:

1. O'lhash o'zgartikchilari, datchiklar va ularning turlari.
2. Intellektual va virtual o'lhash vositalari, ularni ishlash prinsiplari bilan tanishish.
3. Intellektual o'lhash vositalarini amaliyotda qo'llash ahamiyati tahlili

Tayanch so'z va iboralar: o'lhash o'zgartikchilari, datchik, intellektual o'lhash vositasi.

4.1.O'lhash o'zgartikchilari, datchiklar va ularning turlari.

O'lhash o'zgartirgichi - o'lchanan qiymatni boshqa qiymatga yoki o'lhash signaliga o'tkazish uchun ishlatiladigan, ishlov berish, saqlash, keyingi o'zgartirish uchun qulay bo'lgan, ko'rsatuvchi va uzatuvchi, lekin operator tomonidan bevosita qabul qilinmaydigan, standartlashtirilgan metrologik xususiyatlarga ega texnik vosita. *O'lhash o'zgartirgichi* har qanday o'lhash moslamasining bir qismidir (o'lhash moslamasi, o'lhash tizimi va boshqalar) yoki ba'zi bir o'lhash vositasi bilan birgalikda ishlatiladi.

O'zgartirish tabiatи bo'yicha:

Analog o'lhash o'zgartikchi - bitta analog kattalikni (analog o'lhash signali) boshqa analog kattaligiga (o'lhash signali) o'zgartiradigan o'lhash vositasi;

Analog-raqamli o‘lhash o‘zgartkichi - bu analog o‘lhash signalini raqamli signalga aylantirish uchun mo‘ljallangan o‘lhash o‘zgartkichidir;

Raqamli-analogik o‘lhash o‘zgartkichi - raqamli signalni analog miqdoriga aylantirish uchun mo‘ljallangan o‘lhash o‘zgartkichi.

O‘lhash zanjirida:

Birlamchi o‘lhash o‘zgartirgichi - o‘lchanadigan fizik kattaliknga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan o‘lchov o‘zgartirgichi. Birlamchi o‘lhash o‘zgartirgichi – bu o‘lhash asbobi zanjiridagi birlamchi o‘zgartirgichidir;

Sensor - kostruksiyaviy izolyasiyalangan birlamchi o‘lhash o‘zgartirgichi;

Detektor - ionlashtiruvchi nurlanishni o‘lhash sohasidagi sensori.

Oraliq o‘lhash o‘zgartirgichi - birlamchi o‘zgartirgichidan keyin o‘lhash zanjirida joyni egallaydigan o‘lchov o‘zgartirgichi.

Boshqa belgilarga ko‘ra:

O‘zatuvchi o‘lhash o‘zgartirgichi - o‘lhash ma’lumotlari signalini masofadan uzatish uchun mo‘ljallangan o‘lhash o‘zgartirgichi;

Katta o‘lchovli o‘lhash o‘zgartirgichi - miqdor yoki o‘lhash signalining o‘lchamini belgilangan vaqtga o‘zgartirish uchun mo‘ljallangan o‘lchov o‘zgartirgichi.

Harakatlar prinsipiiga ko‘ra, o‘lhash o‘zgartirgichi generator va parametriklargaga bo‘linadi.

Datchik – tahlil qilinayotgan muhit ta’sirlarini qabul qilib, uni o‘lchovchi va aloqa kanali bo‘yicha axborotlarni uzatish uchun qulay parametriga o‘zgartirib beruvchi qurilma.

Qator hollarda datchiklarning funksiyalari ikkita alohida qurilmalar orqali amalga oshirish mumkin. Bularning birinchisi – nazorat-o‘lchov asboblari yoki birlamchi o‘zgartirgichlar deb ataluvchi, faqatgina o‘lhashlarni amalga oshiruvchi qurilmalar hamda ikkinchisi – o‘lchanayotgan kattalikni faqatgina o‘zgartiruvchi, o‘zgartkich deb nomlanadigan qurilmalardir. Masalan, pnevmoelektrik o‘zgartkich, faqatgina havo bosimini elektr toki kuchlanishiga o‘zgartirib beradi.

Xorijiy adabiyotlarda «datchik» atamasi o‘rnida ko‘proq «sensor» atamasi ishlatiladi (ingliz tilida «Sense» so‘zi sezgi, his-tuyg‘u, sezmoq, his qilmoq ma’nolarini bildiradi). Bizning adabiyotlarda «datchik» atamasining ekvivalenti bo‘lgan sezgir element, o‘lchash o‘zgartarkichi, o‘lchagich va shu kabi atamalar ishlatiladi.

O‘lchash o‘zgartirishlari o‘zida bir fizik kattalikning o‘lchamini u bilan funksional bog‘liq bo‘lgan boshqa fizik kattalikning o‘lchami bilan aks ettirishni namoyon etadi. O‘lchash o‘zgartirishlarining ishlatilishi ixtiyoriy o‘lchash qurilmalarini amaliy qo‘lashning yagona usuli hisoblanadi.

4.2. Intellektual va virtual o‘lchash vositalari, ularni ishlash prinsiplari

bilan tanishish.


Har bir datchik o‘lchangan miqdor va ushbu kirish miqdoridagi o‘zgarishlarga javoban chiqish paytida hosil bo‘lgan miqdor o‘rtasidagi bog‘liqlik bilan tavsiflanadi.

Datchikning statik va dinamik xususiyatlarini qo‘ydagicha.


Datchikning statik tavsifi deganda kirish va chiqish miqdorlarining barqaror holatdagi qiymatlari o‘rtasidagi munosabatni tushunish kerak. Datchikning dinamik xarakteristikasi deganda vaqtinchalik jarayon davomida uning kirish miqdorining birdaniga (bosqichma-bosqich) o‘zgarishiga javoban chiqish miqdorining harakati tushuniladi.

Agar datchikning statik xarakteristikasida bog‘liqlik faqat chiqish miqdori Y va kirish miqdori X o‘rtasida o‘zaro bog‘liq bo‘lsa, u holda vaqt parametri sensorning dinamik xarakteristikasida ishtirok etadi va bu xarakteristikaga $Y - Y(t)$ shaklining bog‘liqligi kiradi. Statik xarakteristikaga ko‘ra, kirish va chiqish miqdorlarining barqaror holatdagi qiymatlari o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mutanosib munosabati odatda qabul qilinadi. Biroq, bu har doim ham e’tiborga olinmaydi. Datchiklarga qo‘llaniladigan kirish va chiqish miqdorlarining barqaror holat qiymatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik egri chiziq deb ham ataladi.

Piezoelektrik o‘zgartkichlar kristallar, keramika yoki plyonkalarda piezoelektrik effektni ishlataladigan va mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantiradi yoki aksincha.



To‘g‘ridan-to‘g‘ri piezoelektrik effekt bilan piezoelektrik namunaning deformatsiyasi deformasiyalanadigan qattiq yuzalar o‘rtasida elektr kuchlanishining paydo bo‘lishiga olib keladi.




Fotoelektrik datchiklar - o‘lchanadigan parametrdagi o‘zgarishlar yorug‘lik nurlanishining intensivligiga ta’siridan foydalanishga asoslangan. Yorug‘lik manbalari odatda akkor lampalar, rentgen naychalari va radioaktiv moddalardir. Radiasion qabul qiluvchilar - fotoelementlar, ionlash kameralari, gazzaryadli hisoblagichlar.




Optik datchiklar - bu ko‘zga ko‘rinadigan, infraqizil va ultrabinafsha nurlanish diapazonida elektromagnit nurlanish ta’siri ostida yozuv yoki boshqaruv tizimining kirishiga bitta yoki bir qator signallarni qo’llashga qodir bo‘lgan kichik


o'lchamli elektron qurilmalar. Optik sensorlar noaniq va shaffof narsalarga, suv bug'iga, tutunga, ayerozollarga javob beradi.




Akustik datchiklar asosan sirt akustik to'lqinlar bilan ishlaydigan va ikkala oraliq va radio to'lqin chastotalari uchun o'tkazgichlarda tarmoqli filtri vazifasini bajaradigan qurilmalardir. Akustik datchiklar darajani, namlikni, haroratni va boshqa parametrlarni o'lhash uchun ishlatiladi. Ushbu texnologiyani sanoatda keng qo'llanilishining sabablari uning arzonligi, qurilmalarning ishonchliligi va sezgirligidir. Bundan tashqari, ularning ba'zilari quvvat manbalariga muhtoj emas.



Elektr bo'limgan o'zgartkichlar ko'pincha o'lchov qiymatining o'zgarishini chiziqli yoki burchak harakatiga o'zgartiradilar (manometrik prujinalar, diafragma asboblari).



Kimyoviy datchiklar tahlil qilingan namunani va uning maxsus tayyorgarligini olmasdan, datchiki singdirilgan muhitning (eritmaning) kimyoviy tarkibi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot beradi.



O'lchov tizimi (O'T) (GOST R 8.596 ga muvofiq) - o'lhash kanallarini tashkil etuvchi o'lhash, ulash, hisoblash qismlari va umuman ishlaydigan yordamchi asboblar (o'lhash tizimining qismlari):

- bu holatni tavsiflovchi ko‘p vaqt o‘zgaruvchan va keng taqsimlanadigan umumiy holatlarda o'lhash o'lhash o‘zgartirgichlaridan foydalangan holda ob'yekt holati to‘g‘risida ma'lumot olish;
- o'lchov natijalarini mashinada qayta ishlash;
- o'lhash natijalari va ularni qayta ishlash mashinalarining natijalarini ro‘yxatdan o‘tkazish va namoyish qilish;
- turli xil maqsadlar uchun ushbu ma'lumotlarni tizimning chiqish signallariga aylantirish.

4.3. Intellektual o'lhash vositalarini amaliyotda qo'llash ahamiyati tahlili.

Intelekt “fikrlash” tushunchasining ma’nosiga yaqin bo‘lgan o‘ziga xos kategoriya. Intellektualizasiya - bu odamning (jamiatning) intellektual mehnat faoliyati ulushining oshishiga olib keladigan bilimlarni doimiy ravishda boyitish jarayoni. Intellektual faoliyat mehnat turlaridan biri sifatida dunyo ob'yektlari haqida ma'lumotni aniqlashtirishga qaratilgan. Kompyuter va uning dasturiy ta’minotlari ma'lumot almashishni qo’llab-quvvatlash va rivojlantirishda ishtiroy etuvchi turli xil intellektual tizimlarni rivojlantirish uchun ma'lumotlarni to‘plash, keyinchalik tarkibiylashtirish va rasmiylashtirish vositasidir.

O'lchov tizimlarining ishlash sifatini yaxshilash bilan bog‘liq tadqiqotlarning muhim natiasi maxsus intellektual dptchiklar yaratishdir. Bunday datchiklarni takomillashtirishning an'anaviy yo‘nalishlari dizayn va apparat

elementlarini takomillashtirish orqali, shuningdek, o‘lhash prosyeduralarini rasmiy tavsiflash va tahlil qilish usullarini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Intellektual datchiklar sintezida analitik yondashuvning rivojlanishi datchikga kirish effektlarining tobora takomillashib boradigan statistik modellari asosida ma’lumotlarni optimallashtirish uchun algoritmlarni yaratishda yordam beradi. Raqobat qiluvchi strategiya sifatida sun’iy neyron tarmoqlariga asoslangan intellektual datchikni amalga oshirish usuli ko‘rib chiqiladi.

Texnik vositalarni kompyuterlashtirish mavhum fikrlashdan amaliy intellektga o‘tishni aniqladi. Shunga ko‘ra, o‘lchovlarni kompyuterlashtirish axborot o‘lhash texnologiyasi va metrologiyasida yangi yo‘nalish - intellektual o‘lchovlar va o‘lhash asboblarini yaratdi.

O‘lchovlarni intellektualizasiya qilish uchun quyidagi shartlar ajralib turadi: o‘lchovlarni kompyuterlashtirish, o‘lhash vositalarini qurish modulli prinsipiga o‘tish, o‘lchovlarni ishlab chiqilgan matematik qo‘llab-quvvatlashni yaratish.

Metrologik tahlilni o‘tkazish imkoniyati, shu qatorda tegishli matematik dastur - ob’yektlarning matematik modellari, sharoitlar, proseduralar va o‘lhash vositalari va o‘lchov natijalarining xato xususiyatlarini va o‘lchov vositalarining metrologik xususiyatlarini baholash algoritmlari mavjudligi bilan belgilanadi.

Hisoblash qismini o‘z ichiga olgan holda intellektual o‘lhash vositasini dasturiy ta’minotiga kiritilgan asboblar yordamida metrologik tahlil bajarilganda, o‘lchovlar avtomatik ravishda nazorat qilinadi, uning doirasida nafaqat kerakli hisob-kitob va simulyasiya bajarilishi mumkin, balki o‘rnatilgan ma’lumot moslamalari yordamida amalga oshirilgan metrologik tajriba, kalibratorlar va boshqalar kiradi.

Hozirgi vaqtda o‘lchov vositalarini intellektuallashtirish sohasidagi tadqiqotlar va ishlanmalar ikkita asosiy yo‘nalish bo‘yicha eng jadal rivojlanmoqda:

- 1) o‘lchov va o‘lhash vositalarini intellektualizasiya nazariyasi;
- 2) razvedka elementlari bilan o‘lhash vositalarini ishlab chiqish va ishlab chiqarish.

Kompyuterlarning yangi avlodi paydo bo‘lishi bilan fan va texnikaning barcha sohalarida nafaqat tubdan yangi muammolar echimi, balki oldingi an’anaviy muammolarni yangi, yaxshiroq darajada hal qilishda imkoniyatlar sezilarli darajada kengaydi, bu avvalo zarur va etarli darajada intellektual qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi.

Intellektual o‘lhash vositasi yoki tizim - bu operator, qaror qabul qiluvchi ishtirokisiz muammolarni yechishda aqli qo‘llab-quvvatlanadigan axborot kompyuter tizimidir.

Intellektuallashgan o‘lhash vositasi yoki tizim, bu operator - qaror qabul qiluvchi ishtirok etadigan muammolarni hal qilishda intellektual qo‘llab-quvvatlanadigan axborot kompyuter tizimidir. .

Intellektual qo‘llab-quvvatlovchi vosita yoki tizim mustaqil ravishda qaror qabul qila oladigan tizimdir.

Shu munosabat bilan *intellektuall o‘lchov tizimi* deganda biz quyidagi sharoitlarda qaror qabul qiladigan tizimni tushunamiz.

- a) o‘lchov ma’lumotlarini katta qatorini qayta ishlash va tahlil qilish zarurati;
- b) cheklangan ma’lumotlar yoki noaniqlik;
- c) ko‘p o‘lchovli makon;
- d) vaziyatni (rasmlar, vaziyatlar va boshqalar) tan olish zarurati;
- e) ob’yektlar (jarayonlar) hayot siklining turli bosqichlari - o‘lhash, loyihalash, ishlab chiqarish, foydalanish;
- f) muammoni hal qilishga ta’sir etuvchi dinamik, o‘zgaruvchan, barqaror bo‘lmagan faktlar;
- g) bilimlarni rasmiylashtirish va taqdim etish;
- h) moslashish, o‘z-o‘zini o‘qitish, o‘zini o‘zi tashkil etish va boshqalar.

Nazorat savollari

1. O‘lhash o‘zgartkichlari, datchiklar va ularning turlari to‘g‘risida nimalar bilasiz?
2. Intellektual o‘lhash vositalari, ularni ishlash prinsiplari to‘g‘risida nimalar bilasiz?

3. Intellektual o‘lhash vositalarini amaliyotda qo‘llash ahamiyati to‘g‘risida nimalar bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Demina L.N. Metodы i sredstva izmereniy, ispytaniy i kontrolya:Uchebnoye posobiye. - M.: NIYAU MIFI, 2010. - 292 s.
2. Sudarikova Ye. V. Nerazrushayushchii kontrol v proizvodstve: ucheb. posobiye. Ch. 1.; GUAP. - SPb., 2007. - 137 s.: il.
3. Dimov Yu.V. Metrologiya, standartizasiya i sertifikasiya: uchebnik. Izd-vo «Piter», SPb, 2013. –496 S.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot: Metrologiya sohasidagi asosiy tushuncha va atamalar, usullar va o‘lhash, sinash va nazorat vositalari.

Ishdan maqsad – Metrologiya sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini o‘rganish. Metrologiya sohasidagi asosiy tushuncha va atamalar bilan tanishish.

“Metrologiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni tuzilmasini qichqacha tahlili

Ma’lumki, 1993 yilning 28 dekabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ketma-ket uchta, ya’ni “Standartlashtirish to‘g‘risida”, “Metrologiya to‘g‘risida” va “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish” Qonunlari imzolangan edi. Bu qonunlarning hayotga tadbiq etilishi respublikamizdagи mavjud metrologiya xizmatini yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarilishiga asos bo‘ldi. Shulardan biri, ya’ni “Metrologiya to‘g‘risida” gi qonun ustida biroz to‘xtalib o‘tamiz.

Bu qonun respublikamizda metrologiyaning rivojlanishiga va metrologik ta’midot masalalarini hal etishning mutlaqo yangi bosqichiga olib kirdi.

“Metrologiya to‘g‘risida” gi qonun 5 bo‘limdan iborat bo‘lib, bu bo‘limlar 21 moddani o‘z ichiga olgan. Respublikamizda metrologiya xizmatini yo‘lga

qo‘yish va bunda jismoniy va yuridik shaxslarning ishtiroki va funksiyalari, bu boradagi javobgarliklar bo‘yicha keng ma’lumotlar berilgan.

Mazkur qonun quyidagi bo‘limlardan iborat:

- 1 bo‘lim. Umumiy qoidalar (1-4.1 moddalar).
- 2 bo‘lim. Fizik o‘lcham birliklari, ularni qayta hosil qilish va qo‘llash. (5-8 moddalar).

3 bo‘lim. O‘zbekiston Respublikasining metrologiya xizmatlari. (9-11 moddalar).

4 bo‘lim. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati. (12-19 moddalar).

5 bo‘lim. Metrologiya ishlarini moliyaviy ta’minalash. (20-21 moddalar).

1 bo‘lim quyidagi moddalardan iborat:

1-modda. Asosiy tushunchalar.

2-modda. Metrologiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlari.

Metrologiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va O‘zbekiston Respublikasining o‘zga konun hujjatlaridan iboratdir.

3-modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar.

Xalqaro shartnomada yoki bitimda O‘zbekiston Respublikasining metrologiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagidan o‘zgacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnomada yoki bitim qoidalari qo‘llanadi.

4-modda. Metrologiyaga oid faoliyatni davlat tomonidan boshqarish.

Metrologiyaga oid faoliyatni davlat tomonidan boshqarishni metrologiya bo‘yicha milliy organ - O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O‘zstandart»agentligi) amalga oshiradi. (O‘zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni tahriridagi qism).

4-1-modda. O‘lchashlarning yagonaligini ta’minalashga oid normativ hujjatlar. O‘zbekiston Respublikasining korxonalari, tashkilotlari, davlat boshqaruvi organlari, yuridik shaxslar birlashmali metrologiya soxasidagi davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tadbiq etiladigan doiradan tashqaridagi normalar va qoidalarni belgilaydigan, o‘lchovlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minalashga oid, “O‘zstandart” agentligi tomonidan tasdiqlangan normativ xujjalarni

aniqlashtiradigan va ularga zid bo‘lмаган норматив xujjatlarni o‘z vakolatlari doirasida ishlab chiqishlari mumkin.(O‘zR 25.04.2003 y 482-2-son Qonuni taxriridagi modda).

2 bo‘lim quyidagi moddalardan iborat:

5-modda. Fizik kattaliklarni o‘lchov birliklari.

O‘zbekiston Respublikasida Xalqaro o‘lchamlar tizimi (SI)ning fizik o‘lcham birliklarini belgilangan tartibda qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi.Fizik o‘lcham birliklarining nomi, belgisi, ularni yozish va qo‘llash qoidalari “O‘zstandart”ning taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiqlanadi.(O‘zR 25.04.2003 y 482-2-son Qonuni asosida o‘zgartirish kiritilgan)

6-modda. Fizik kattaliklar birliklarining etalonlari.

Etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va qo‘llash tartibini “O‘zstandart” belgilaydi (O‘zR 25.04.2003 y.482-2-son Qonuni asosida o‘zgartirish kiritilgan)

7-modda. O‘lhash vositalari.

Foydalanishda bo‘lgan o‘lhash vositalari o‘lchov natijalarining qonunlashtirilgan birliklarda belgilab qo‘yilgan aniqlikda bo‘lishini ta’minlashi va qo‘llash shartlariga mos kelishi lozim.

Texnika vositalarini o‘lhash vositalariga mansub deb topish mezonini “O‘zstandart” belgilaydi.(O‘zR 25.04.2003 y. 482-2-son Qonuni asosida o‘zgartirish kiritilgan)

8-modda. O‘lhashlarni bajarish uslubiyatlari.

O‘lchovlarni bajarish uslubiyotlari o‘lchov natijalarining xatoliklarini baholashni o‘z ichiga olishi va o‘lchov o‘tkazishning mavjud sharoitlarida belgilab qo‘yilgan aniqlikni ta’minlashi lozim. O‘lchovlar belgilangan tartibda attestasiya qilingan o‘lchovlarning bajarilish uslubiyotlariga muvofiq holda amalga oshirilishi lozim. (O‘zR 26.05.2000 y. 82-II-son Qonuni tahriridagi qism).

3 bo‘lim quyidagi moddalardan iborat:

9-modda. O‘zbekiston Respublikasi metrologiya xizmatining tuzilishi.

O‘zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati davlat metrologiya xizmatidan va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlaridan tarkib topadi.

10-modda. Davlat metrologiya xizmati.

«O‘zstandart»agentligi boshchilik qiladigan davlat metrologiya xizmatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxridagi davlat metrologiya xizmati organlari kiradi. (O‘zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni tahriridagi qism).

11-modda. Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari.

Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari zarurat bo‘lgan xollarda o‘lchovlarning yagona birligini ta’minlash bo‘yicha ishlarni bajarish vametrologiya nazoratini amalga oshirish uchun tuziladi.

4 bo‘lim quyidagi moddalardan iborat:

12-modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini o‘tkazish tartibi.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati davlat metrologiya xizmati organlari tomonidan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi.

13-modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati ob’yektlari.

Kuyidagilar davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratining ob’yektlari hisoblanadi: etalonlar, o‘lchov vositalari, moddalar va materiallar tarkibi hamda xossalaring standart namunalari, axborot-o‘lchov tizimlari, o‘lchovlarni bajarish uslubiyotlari, metrologiya normalari va qoidalarida nazarda tutilgan o‘zga ob’yektlar.

14-modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan doiralar.

15-modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati turlari.

16-modda. O‘lhash vositalarining turlarini tasdiqlash.

Ushbu Qonunning 14-moddasida ko‘rsatilgan doiralarda foyda-laniladigan, ishlab chiqarilishi va import bo‘yicha chetdan olib kelinishi lozim bo‘lgan o‘lchov vositalari davlat sinovlaridan (keyinchalik ularning turini tasdiqlash sharti bilan). yoki metrologik attestasiyadan o‘tkazilishi lozim.

17-modda. O‘lhash vositalarini tekshiruvdan o‘tkazish.(O‘zR 26.05.2000y 82-2-son Qonuniga muvofiq kiritilgan modda).

Tekshiruvdan o'tkazilishi lozim bo'lgan o'lchov vositalari turkumlarining ro'yxati «O'zstandart»agentligi tomonidan tasdiqlanadi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni tahriridagi qism).

18-modda. O'lhash vositalarini tayyorlash, realizasiya qilish va ularning ijarasi bilan shug'ullanish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatiga lisenziya berish.

Ushbu qonunning 14-moddasida ko'rsatilgan doirada ko'llanilishi mudjin bo'lgan o'lchov vositalarini tayyorlash, realizasiya qilish va ularning ijarasi bilan shug'ullanish qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan lisenziya asosida yuridik va jismoniy shaxslar to-monidan amalga oshiriladi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni tahriridagi modda).

18.1-modda. Metrologiya ishlari va xizmatlarini amalga oshirish xuquqi bilan ta'minlash uchun yuridik va jismoniy shaxslarni akkreditasiya kilish.

19-modda. Metrologiya normalari va koidalarini buzganlik uchun javobgarlik.

5 bo'lim quyidagi moddalardan iborat:

20-modda. Davlat tomonidan albatta moliyaviy ta'minlash.

21-modda. Metrologik ishlar va xizmatlar uchun xaq to'lash.

O'lchov vositalarini sinash, tekshiruvdan o'tkazish, o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini attestasiya kilish, normativ va texnik hujjatlarni metrologik ekspertiza kilish, texnik jihatdan asos-liligi hamda belgilangan metrologiya normalari va koidalariga muvofiqligini baholash, o'lchovlarning bajarilish sifatini baholash bo'yicha yuridik hamda jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan metrologiya ishlari va xizmatlari uchun, shuningdek metrologiya faoliyatining davlat tomonidan moliyalashtirish sohasiga kirmaydigan turlari uchun manfaatdor shaxslar tomonidan xak tuziladigan shartnomalarning shartlariga muvofiq to'lanadi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi modda).

Qonunda ko'rsatilganidek, o'lhash vositalarining davlat sinovlarini o'tkazish, ularning turlarini tasdiqlash va davlat ro'yxatiga kiritish "O'zstandart" agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunda yana bir masala - davlat ro‘yxati belgisini qo‘yish to‘g‘risida ham bayon etilgan. “Metrologiya to‘g‘risida” gi qonunda aytilishicha, tasdiqlangan o‘lchash vositalariga yoki ularning foydalanish hujjatlariga ishlab chiqaruvchi davlat ro‘yxati belgisi qo‘yilishi shart.

Ma’lumki, ishlab chiqarishdagi o‘lchash vositalarining holati va ularni vaqtiga vaqt bilan qiyoslashdan o‘tkazib turish har doim e’tiborda bo‘lmoqligi lozim. Ular bo‘yicha ro‘yxatlar tuziladi va o‘lchash vositalari turkumlarining ro‘yxati “O‘zstandart” agentligi tomonidan tasdiqlanadi. Ilmiy-tadqiqotlar bilan bog‘liq o‘lchash vositalari, asboblari, qurilmalari hamda o‘lchovlari “Metrologiya to‘g‘risida”gi qonunning 17-moddasi asosida “O‘zstandart” agentligining davriy ravishda qiyoslashdan o‘tkazilib turilishi lozim bo‘lgan o‘lchash vositalari guruhining ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, shu qonunning 7-moddasiga binoan, amaliy foydalanishda bo‘lgan o‘lchash vositalari belgilangan aniqlikda va foydalanish shartlariga mos holda, qonuniy birliklardagi o‘lchash natijalari bilan ta’minlashlari lozimligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

Metrologiya bo‘yicha assosiy atamalar va ta’riflar

Metrologiyada bot-bot ishlatiladigan ayrim tushunchalar quyidagilardan iborat:

Metrologiya – o‘lchashlar, ularning birlilagini ta’minlash usullari va vositalari, hamda kerakli aniqlikka erishish yo‘llari haqidagi fan.

Nazariy metrologiya – metrologiyaning fundamental asoslarini ishlab chiqish predmeti bo‘lgan sohasidagi metrologiya bo‘limi.

Qonunlashtiruvchi metrologiya – metrologiya bo‘yicha milliy idora faoliyatiga qarashli va birliklar, o‘lchash usullari, o‘lchash vositalari va o‘lchash laboratoriylariga davlat talablarini o‘z ichiga olgan metrologiya qismi.

Amaliy metrologiya – nazariy metrologiya ishlanmalarini va qonunlashtiruvchi metrologiya qoidalarini amaliy qo‘llanish masalalari bilan shug‘ullanuvchi metrologiya bo‘limi.

Yagona o‘lhash birligi - o‘lhashlarning natijalari qonunlashtirilgan birliklarda aks ettirgan va xatoliklari berilgan extimollikda ma’lum bo‘lgan o‘lhash xolati.

Kattalik – sifat jihatidan ajratilishi va miqdor jihatidan aniqlanishi mumkin bo‘lgan hodisalar, moddiy tizim, moddaning xossasidir.

O‘lchanadigan kattalik – o‘lhash vazifasining asosiy maqsadiga muvofiq o‘lchanishi lozim bo‘lgan, o‘lchanadigan yoki o‘lchangan kattalik.

Kattalik o‘lchami – muayyan miqdoriy ob’yekt, tizim, hodisa yoki jarayonga tegishli bo‘lgan kattalikning miqdoriy aniqlanganligi.

Kattalikning qiymati – kattalik uchun qabul qilingan birliklarning ma’lum bir soni bilan kattalikning o‘lchamini ifodalash.

Kattalikning sonli qiymati – kattalikning qiymatiga kiruvchi nomsiz son.

Parametr – berilgan kattalikni o‘lhashda yordamchi sifatida qaraladigan kattalik.

O‘lhash vositasi – metrologik tavsiflari me’yorlangan (MTM), o‘lchami (belgilangan xatolik chegarasi) ma’lum vaqt oralig‘ida o‘zgarmas deb qabul qilinadigan, kattalikning o‘lhash birligini qayta tiklaydigan va (yoki) saqlaydigan, o‘lhashlar uchun mo‘ljallangan texnik vosita.

Kattalik o‘lchovi – o‘lchov qiymatlari belgilangan birliklarda ifodalangan va zarur aniqlikda ma’lum bo‘lgan bir yoki bir nechta berilgan o‘lchamlarning kattaligini qayta tiklash va (yoki) saqlash uchun mo‘ljallangan o‘lhash vositasi.

Etalon (o‘lhashlar shkalasi yoki birligi etaloni) – kattalikning o‘lchamini qiyoslash sxemasi bo‘yicha quyi vositalarga uzatish maqsadida shkalani yoki kattalik birligini qayta tiklash va (yoki) saqlash uchun mo‘ljallangan va belgilangan tartibda etalon sifatida tasdiqlangan o‘lhashlar vositasi yoki o‘lhash vositalarining majmui.

Birlik etaloni - fizik o‘lcham birligini boshqa o‘lhash vositalariga o‘tkazish maqsadida uni qayta xosil qilish va saqlash uchun mo‘ljallangan o‘lhash vositasi.

Birlamchi etalon – birlikni mamlakatda (shu birlikni boshqa etalonlariga nisbatan) eng yuqori aniqlik bilan qayta tiklanishini ta'minlaydigan etalon.

Maxsus etalon – birlikning alohida sharoitlarda qayta tiklanishini ta'minlaydigan va bu sharoitlar uchun birlamchi etalon bo'lib xizmat qiladigan etalon.

Davlat etaloni – davlat hududida ushbu kattalikning boshqa barcha etalonlari bilan qayta tiklanadigan, birliklarning o'lchamlarini aniqlash uchun asos sifatida xizmat qilishi vakolatli davlat idorasining qarori bilan tan olingan etalon.

Ikkilamchi etalon – birlikning o'lchamini mazkur birlikning birlamchi etalonidan oladigan etalon.

Nusha-etalon – birlikning o'lchamini ishchi etalonlarga uzatish uchun mo'ljallangan ikkilamchi etalon.

Ishchi etalon – birlikning o'lchamini ishchi o'lhash vositalariga uzatish uchun mo'ljallangan etalon.

Xalqaro etalon – milliy etalonlar bilan qayta tiklanadigan va saqlanadigan birliklar o'lchamlarini muvofiqlashtirish uchun xalqaro kelishuv bo'yicha xalqaro asos sifatida qabul qilingan etalon.

Milliy etalon – mamlakat uchun boshlang'ich etalon sifatida xizmat qilishi rasmiy qaror bilan tan olingan etalon.

O'lhashlar yagonaligi – o'lhash natijalari rasmiylashtirilgan kattaliklar birliklarida ifodalangan va o'lhashlar xatoligi berilgan ehtimollik bilan belgilangan chegaralarda joylashgan o'lhashlar holati.

O'lhashlar yagonaligini ta'minlash – O'BT Qonunlar, shuningdek o'lhashlarning yagonaligini ta'minlashga qaratilgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjalarga muvofiq o'lhashlar yagonaligiga erishish va saqlashga qaratilgan metrologik xizmatlar faoliyati.

Metrologik xizmat – MX o'lhashlar yagonaligini ta'minlash ishlarini bajarish va metrologik tekshiruv va nazoratni amalga oshirish uchun qonunga muvofiq tashkil etiladigan xizmat.

Davlat metrologik xizmati – Mamlakatda o‘lchashlar yagonaligini ta’minlash bo‘yicha ishlarni mintaqalararo va sohalararo darajada bajaruvchi va davlat metrologik tekshiruvi va nazoratini amalga oshiruvchi metrologik xizmat.

Davlat boshqaruv idorasining metrologik xizmati – mazkur vazirlik (mahkama) doirasida o‘lchashlar yagonaligini ta’minlash ishlarini bajaruvchi va metrologik nazorat hamda tekshiruvini amalga oshiruvchi metrologik xizmat.

Yuridik shaxs metrologik xizmati – mazkur muassasa (tashkilot) da o‘lchashlar yagonaligini ta’minlash ishlarini bajaruvchi va metrologik tekshiruv hamda nazoratini amalga oshiruvchi metrologik xizmat.

Metrologiya bo‘yicha milliy idora – davlatda o‘lchashlar yagonaligini ta’minlash ishlariga rahbarlikni bajarishga vakolatli davlat boshqaruv idorasi.

Metrologik tekshiruv – o‘lhash jarayoni elementlarini me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlashni o‘z ichiga olgan vakolatli idoralar va shaxslar faoliyati.

Metrologik nazorat – o‘lhash jarayoni elementlarining holati, ishlatilishi va o‘rnatilgan tartibda metrologik qoidalar amalga oshirilganligini baholash uchun vakolatli idoralar va shaxslar faoliyati.

O‘lhash vositalarini tekshiruvdan o‘tkazish – o‘lhash vositalarining belgilab qo‘yilgan texnikaviy talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya xizmati idoralar (vakolat berilgan boshqa idoralar, tashkilotlar) tomonidan bajariladigan amallar majmui.

O‘lhash vositalarini kalibrlash – metrologik jihatlarning haqiqiy qiymatlarini va o‘lhash birliklarining qo‘llashga yaroqliligini aniqlash, hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriysi bajaradigan amallar majmui.

O‘zR25.04.2003 y 482-2-son Qonuniga muvofiq o‘n birinchi xatboshi chiqarib tashlangan.

O‘lhash vositalarini ishlab chiqish, yaratish (ta’mirlash, sotish, ijaraga berish) uchun lisenziya - davlat metrologiya xizmati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan, mazkur faoliyat turlari bilan shug‘ullanish xuquqini guvohlantiruvchi hujjat.

O‘lhash vositalarini metrologik attestasiya qilish – yagona namunalarda ishlab chiqariladigan (yoki O‘zbekiston xududiga yagona namunalarda olib kiriladigan) o‘lhash vositalarining xossalari sinchiklab tadqiq etish asosida ular qo‘llanish uchun xaqqoniy ekanligining metrologiya xizmati tomonidan e’tirof etilishi.

Metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriylarini akkreditasiya qilish – o‘lhashlarning yagonaligini ta’minlash ishlari akkreditasiya qilishni belgilangan soxada o‘tkazishga metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriylarining vakolatli ekanligining rasmiy e’tirof etilishi.(O‘zR 26.05.2000 y 82-2-sun Qonuni taxriridagi xatboshi).

O‘lhash vositalarini kalibrlash xuquqiga ega bo‘lishi uchun yuridik shaxslar metrologiya xizmatini akkreditasiya qilish - yuridik shaxslar metrologiya xizmatining belgilangan soxada o‘lhash vositalarini kalibrashdan o‘tkazishga vakolatli ekanligining rasmiy e’tirof etilishi.(O‘zR 26.05.2000 y 82-2-sun Qonuni taxriridagi xatboshi)

O‘lhashlarning bajarilish uslubiyatlarini metrologik attestasiya qilish – o‘lhashlarni bajarish uslubiyatlarining unga qo‘yilgan metrologiya talablariga mosligini baxolash, xamda tasdiqlash maqsadida tadqiqot o‘tkazish.(O‘zR 25.04.2003 y 482-2-sun Qonuni taxriridagi xatboshi)

O‘lhashlarning bajarilish uslubiyati – operasiyalar va qoidalar majmui bo‘lib, ularning bajarilish xatolari ma’lum bo‘lgan o‘lhash natijalari olishni ta’minlaydi.(O‘zR 25.04.2003 y 482-2-sun Qonuni taxriridagi xatboshi)

1-amaliy mashg‘ulot uchun topshiriq

1. Metrologiya sohasidagi boshqa qonunlar, qarorlar, farmoyishlar va me’yoriy xujjatlarni o‘rganish va to‘plash.
2. Metrologiya sohasidagi halqaro me’yoriy xujjatlarni o‘rganish.
3. O‘lhashlar birliligi va bu borada olibborilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot to‘plash.
4. O‘lhash usullari, sinash va nazorat vositalari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash.

5. Metrologiya sohasidagi halqaro va milliy atamalar va ularning ta’riflarini o‘rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Peregudov L.V., Saidov M.X., Fayziyev R.R., Ismatullayev F.R., Abidov O.S. Upravleniye kachestvom i konkurentosposobnostyu produksii. Tashkent, 2001.

2. Demina L.N. Metodы i sredstva izmereniy, ispytaniy i kontrolya:Uchebnoye posobiye. - M.: NIYAU MIFI, 2010. - 292 s.

3. Turayyev Sh.A., Boboyev G‘.G‘., Byekmurotov Ch.A. “Mahsulot sifat nazorati va sinov qurilmalari” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun uslubiy ko‘rsatmalar. –Toshkent: ToshDTU, 2014. 122 b.

4. Sudarikova Ye. V. Nerazrushayuščiy kontrol v proizvodstve: ucheb. posobiye. Ch. 1.; GUAP. - SPb., 2007. - 137 s.: il.

5. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, SMSITI, 2008 y. – 267 b.

6. Ismatullayev P.R., Axmedov B.M. i dr. Osnovy sistemy menedjmenta kachestva: Uchebnoye posobiye. Tashkent, 2009. – 208 s.

7. Abduvaliyev A.A. i dr. «Osnovy standartizasii, sertifikasii, metrologii i upravleniya kachestvom produksii». Uchebnoye posobiye. - Tashkent.: Izdatelstvo TGTU, 2002.- 287 s.

8. Sergeyev A.G. Latyshev M.V. Sertifikasiya. Uchebnoye posobiye. Moskva «Logos», 2000. – 248 s.

2- amaliy mashg‘ulot: O‘lhash nazariyasi, asosiy o‘lhash xatoliklari nazariyasi.

Mashg‘ulning asosiy maqsadi – O‘lhash jarayoni tahlili. O‘lhashda xatoliklarni kelib chiqishi va ularni bartaraf etish yo‘llari. Xatoliklarni hisoblash.

O‘lhash deb, shunday solishtirish, anglash, aniqlash jarayoniga aytildiki, unda o‘lchanadigan kattalik fizik eksperiment yordamida, xuddi shu turdagи, birlik sifatida qabul qilingan miqdori bilan o‘zaro solishtiriladi.

Bu ta’rifdan shunday xulosaga kelish mumkinki: birinchidan, o‘lhash bu har xil kattaliklar to‘g‘risida informasiya hosil qilishdir; ikkinchidan, bu fizik eksperimentdir; uchinchidan - o‘lhash jarayonida o‘lchanadigan kattalikning o‘lchov birligining ishlatilishidir. Demak, o‘lhashdan maqsad, o‘lchanadigan kattalik bilan uning o‘lchov birligi sifatida qabul qilingan miqdori orasidagi (tafovutni) nisbatni topishdir. Ya’ni, o‘lhash jarayonida o‘lhashdan ko‘zda tutiladigan maqsad, ya’ni izlanuvchi kattalik (bu shunday asosiy kattalikki uni aniqlash butun izlanishni, tekshirishni vazifasi, maqsadi hisoblanadi) va **o‘lhash ob’yekti** ishtirok etadi. O‘lhash ob’yekti (o‘lchanadigan kattalik) shunday yordamchi kattalikki, uning yordamida asosiy izlanuvchi kattalik aniqlanadi, yoki bu shunday qurilmaki, uning yordamida o‘lchanadigan kattalik solishtiriladi.

Shunday qilib, uchta tushunchani bir-biridan ajrata bilish kerak; o‘lhash, o‘lhash jarayoni va o‘lhash usuli.

O‘lhash - bu umuman har xil kattaliklar to‘g‘risida informasiya qabul qilish, o‘zgartirish demakdir. Bundan maqsad izlanayotgan kattalikni son qiymatini qo‘llash, ishlatish uchun qulay formada aniqlashdir.

O‘lhash jarayoni - bu solishtirish eksperimentini o‘tkazish jarayonidir (solishtirish qanday usulda bo‘lmisin).

O‘lhash usuli esa - bu fizik eksperimentning aniq ma’lum struktura yordamida, o‘lhash vositalari yordamida va eksperiment o‘tkazishning aniq yo‘li, algoritmi yordamida bajarilishi, amalga oshirilishi usulidir.

O‘lhash odatda o‘lhashdan ko‘zlangan maqsadni (izlanayotgan kattalikni) aniqlashdan boshlanadi, keyin esa shu kattalikning xarakterini analiz qilish asosida bevosita o‘lhash ob’yekti (o‘lchanadigan kattalik) aniqlanadi. O‘lhash jarayeni yordamida esa shu o‘lhash ob’yekti to‘g‘risida informasiya hosil qilinadi va nihoyat ba’zi matematik qayta ishlash yo‘li bilan o‘lhash maqsadi haqida yoki izlanayotgan kattalik haqida informasiya (o‘lhash natijasi) olinadi.

O‘lhash natijasi - o‘lchanayotgan kattalikning son qiymatini o‘lhash birligiga ko‘paytmasi tariqasida ifodalanadi.

X=n[x], bu yerda X - o'lchanadigan kattalik;

n - o'lchanayotgan kattalikning qabul qilingan o'lchov birligidagi son qiymati; [x] - o'lhash birligi

O'lhash jarayonini avtomatlashtirish munosabati bilan o'lhash natijalari o'zgarmasdan to'g'ridan-to'g'ri elektron hisoblash mashinalariga yoki avtomatik boshqarish tizimlariga berilishi mumkin. Shuning uchun, keyingi paytlarda, ayniqsa, kibernetika sohasidagi mutaxassislarda o'lhash haqidagi tushuncha quyidagicha ta'riflanadi.

O'lhash – bu izlanayotgan kattalik haqida informasiya qabul qilish va o'zgartirish jarayonidir. Bundan ko'zda tutilgan maqsad shu o'lchanayotgan kattalikning ishlatish, o'zgartirish, uzatish yoki qayta ishlashlar uchun qulay formadagi ifodasini ishlab chiqishdir.

O'lhash fan va texnikaning qaysi sohasida ishlatilishiga qarab u aniq nomi bilan yuritiladi: elektrik, mexaniq, issiqlik, akustik va x.k.

O'lhash tizimlari tahlili (MSA) o'lhash jarayonini puxta baholash bo'lib, odatda, bu o'lhash jarayonidagi o'zgarish komponentlarini aniqlashga intiluvchi maxsus mo'ljallangan tajribani o'z ichiga oladi.

Mahsulot ishlab chiqaruvchi jarayonlar o'lchov va ma'lumotlar olish jarayonida o'zgarishi mumkin bo'lganidek, u ham o'zgarishlarga ega bo'lishi va noto'g'ri natijalar berishi mumkin. O'lhash tizimini tahlil qilish sinov usulini, o'lhash vositalarini va tahlil qilish uchun ishlatiladigan ma'lumotlarning yaxlitligini ta'minlash uchun o'lhash olish jarayonini (odatda sifatli tahlil) va mahsulot yoki jarayon haqida qarorlar qabul qilish uchun o'lhash xatoliklarining oqibatlarini tushunish uchun baholaydi.

O'lhash tizimining tahlili quyidagilarni hisobga oladi:

- To'g'ri o'lhash va yondashuvni tanlash
- O'lhash qurilmasini baholash
- Proseduralar va operatorlarni baholash
- Har qanday o'lhash o'zaro ta'sirini baholash

- Alovida o'lhash qurilmalari va / yoki o'lhash tizimlarining o'lhash xatoligini hisoblash
- O'lhashda xatoliklarni kelib chiqishiga sabab sifatida quyidagi omillarni o'z ichiga olishi mumkin:
 - Jihozlar: o'lhash, kalibrlash, fiksasiya qilish qurilmasi;
 - Odamlar: operatorlar, o'qitish, ta'lim, san'at, g'amxo'rlik;
 - Jarayon: sinov usuli, spesifikasiya;
 - Namunalar: materiallar, sinov buyumlari (ba'zan "qismlar" deb ataladi), namuna olish rejasi, namuna tayyorlash;
 - Atrof-muhit: harorat, namlik, kondisioner, shart –sharoit;
 - Menejment: o'quv dasturlari, metrologiya tizimi, odamlarni qo'llab-quvvatlash, sifatni boshqarish tizimini qo'llab-quvvatlash.

O'lhash xatoliklari turli sabablarga ko'ra turlicha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Bu sabablar qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- o'lhash vositasidan foydalanishda uni sozlashdan yoki sozlash darajasini siljishidan kelib chiquvchi sabablar;
- o'lhash ob'yektini o'lhash joyiga (pozisiyasiga) o'rnatishdan kelib chiquvchi sabablar;
- o'lhash vositalarining zanjirida o'lhash ma'lumotini olish, saqlash, o'zgartirish va tavsiya etish bilan bog'liq sabablar;
- o'lhash vositasi va ob'yektiga nisbatan tashqi ta'sirlar (temperatura yoki bosimning o'zgarishi, elektr va magnit maydonlarining ta'siri, turli tebranishlar va hokazolar) dan kelib chiquvchi sabablar;
- o'lhash ob'yektining xususiyatlaridan kelib chiquvchi sabablar;
- operatorning malakasi va holatiga bog'liq sabablar va shu kabilar.

O'lhash xatoliklarini kelib chiqish sabablarini tahlil qilishda eng avvalo o'lhash natijasiga salmoqli ta'sir etuvchilarini aniqlash lozim bo'ladi.

O'lhash xatoliklari u yoki bu xususiyatiga ko'ra quyida keltirilgan turlarga bo'linadi:

I. O'lhash xatoliklari ifodalanishiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

Absolyut (mutlaq) xatolik. Bu xatolik kattalik qanday birliliklarda ifodalanayotgan bo'lsa, shu birlikda tavsiflanadi. Masalan, $0,2 \text{ V}$; $1,5 \mu\text{m}$ va h.k. Mutlaq xatolik quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta = A_x - A_{ch} \approx A_x - A_o;$$

bunda, A_x - o'lhash natijasi;

A_{ch} - kattalikning chinakam qiymati;

A_o - kattalikning haqiqiy qiymati.

Absolyut xatolikni teskari ishora bilan olingani tuzatma (- popravka) deb ataladi.

$$-\Delta = \delta;$$

Odatda, o'lhash asboblarining xatoligi keltirilgan xatolik bilan belgilanadi.

Absolyut xatolikni asbob ko'rsatishining eng maksimal qiymatiga nisbatini prosentlarda olinganiga keltirilgan xatolik deb ataladi.

$$\beta_k = \frac{\Delta}{A_{x \max}} \cdot 100\%;$$

2. Nisbiy xatolik - absolyut xatolikni haqiqiy qiymatga nisbatini bildiradi va foiz (%) da ifodalanadi:

$$\beta = [(A_x - A_o)/A_o] \cdot 100 = (\Delta/A_o) \cdot 100\%.$$

II. O'lhash sharoiti tartiblariga ko'ra xatoliklar quyidagilarga bo'linadi:

1. **Statik xatoliklar** - vaqt mobaynida kattalikning o'zgarishiga bog'liq bo'lmanган xatoliklar. O'lhash vositalarining statik xatoligi shu vosita bilan o'zgarmas kattalikni o'lhashda hosil bo'ladi. Agar o'lhash vositasining pasportida statik sharoitlardagi o'lhashning chegaraviy xatoliklari ko'rsatilgan bo'lsa, u holda bu ma'lumotlar dinamik sharoitlardagi aniqlikni tavsiflashga nisbatan tadbiq etila olmaydi.

2. **Dinamik xatoliklar** - o'lchanayotgan kattalikning vaqt mobaynida o'zgarishiga bog'liq bo'lgan xatoliklar sanaladi. Dinamik xatoliklarning vujudga kelishi o'lhash vositalarining o'lhash zanjiridagi tarkibiy elementlarning inersiyasi

tufayli deb izohlanadi. Bunda o'lchash zanjiridagi o'zgarishlar oniy tarzda emas, balki muayyan vaqt davomida amalga oshirilishi asosiy sabab bo'ladi.

III. Kelib chiqishi sababi (sharoitiga) qarab:

- asosiy;
- qo'shimcha xatoliklarga bo'linadi.

Normal (graduirovka) sharoitda ishlataladigan asboblarda hosil bo'ladigan xatolik asosiy xatolik deyiladi. Normal sharoit deganda temperatura $20^{\circ}\text{S} \pm 5^{\circ}\text{S}$ havo namligi $65\% \pm 15\%$, atmosfera bosimi (750 ± 30) mm.sim.ust., ta'minlash kuchlanishi nominalidan $\pm 2\%$ o'zgarishi mumkin va boshqalar.


Agar asbob shu sharoitdan farqli bo'lgan tashqi sharoitda ishlatilsa, hosil bo'ladigan xatolik qo'shimcha xatolik deyiladi.

IV. Mohiyati, tavsiflari va bartaraf etish imkoniyatlariga ko'ra:

1. Muntazam xatoliklar;
2. Tasodifiy xatoliklar;
3. Qo'pol xatoliklar yoki yanglishuv.

Muntazam xatolik deb umumiyligi xatolikning takroriy o'lchashlar mobaynida muayyan qonuniyat asosida hosil bo'ladigan, saqlanadigan yoki o'zgaradigan tashkil etuvchisiga aytildi.

Umumiyligi xatolikni quyidagicha tasvirlashimiz mumkin:



5.1. расм
Ўлчаш хатоликлари

Bunda:

Δ_m – muntazam xatolik

Δ_t – tasodifiy xatolik

Δ_q – qo‘pol xatolik

Muntazam xatoliklarning kelib chiqish sababları turli tuman bo‘lib, tahlil va tekshiruv asosida ularni aniqlash va qisman yoki butkul bartaraf etish mumkin bo‘ladi. Muntazam xatoliklarning asosiy guruhlari quyidagilar hisoblanadi:

- Uslubiy xatoliklar;
- Asbobiy (qurilmaviy) xatoliklar;
- Sub’yektiv xatoliklar.

O‘lhash usulining nazariy jihatdan aniq asoslanmaganligi natijasida uslubiy xatolik kelib chiqadi.

O‘lhash vositalarining konstruktiv kamchiliklari tufayli kelib chiqadigan xatolik asbobiy xatolik deb ataladi. Masalan: asbob shkalasining noto‘g‘ri graduirovkalanishi (darajalanishi), qo‘zg‘aluvchan qismning noto‘g‘ri mahkamlanishi va hokazolar.

Sub’yektiv xatolik - kuzatuvchining aybi bilan kelib chiqadigan xatolikdir.

Umuman, muntazam xatolikni yo‘qotish yo‘li bir aniq ishlab chiqilmagan. Lekin, shunga qaramay, muntazam xatolikni kamaytirishni ba’zi bir usullari mavjud.

7. *Xatoliklar chegarasini nazariy jihatdan baholash*, bu uslub o‘lhash uslubini, o‘lhash vositalarining xarakteristikalarini, o‘lhash tenglamasini va o‘lhash sharoitlarini analiz qilishga asoslanadi. Masalan: o‘lhash asbobining parametrlari yoki tekshirilayotgan zanjirning ish rejimini bilgan holda biz uning tuzatmasini (xatoligi) topishimiz mumkin. Xatolik, bunda, asbobning iste’mol qiluvchi quvvatidan, o‘lchanayotgan kuchlanishning chastotasini oshishidan hosil bo‘lishi mumkin.

8. *Xatolikni o‘lhash natijalari bo‘yicha baholash*. Bunda o‘lhash natijalari har xil prinsipdagi usul va o‘lhash apparatusidan (vositalaridan) olinadi. O‘lhash natijalari orasidagi farq - muntazam xatolikni xarakterlaydi. Bu uslub yuqori aniqlikdagi o‘lhashlarda ishlatiladi.

9. *Har xil xarakteristikaga ega bo‘lgan, lekin bir xil fizikaviy prinsipda ishlaydigan apparatura yordamida o‘lchash usuli.* Bunda o‘lchash ko‘p marotaba takrorlanib, o‘lchash natijalari muntazam statistika usuli yordamida ham ishlanadi.

10. *O‘lchash apparaturasini ishlatalishdan oldin sinovdan o‘tkazish.* Bu usul ham aniq o‘lchashlarda ishlatiladi.

11. *Muntazam xatoliklarni keltirib chikaruvchi sabablarni yo‘qotish yo‘li.* Masalan: tashqi muhit temperaturasi o‘zgarmas qilib saqlansa, o‘lchash vositasini tashqi maydon ta’siridan himoyalash maqsadida ekranlashtirilsa, manba kuchlanishi turg‘unlashtirilsa (stabillashtirilsa) va h.k.

12. *Muntazam xatolikni yo‘qotishning maxsus usulini qo‘llash:* o‘rin almashlash (o‘rindoshlik), differensial usuli, simmetrik kuzatishlardagi xatoliklarni kompensasiyalash usuli.

2-amaliy mashg‘ulot uchun topshiriq

1. O‘lchash nazariyasini tahlili bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash (xamma o‘z sohasi bo‘yicha ma’lumotlarni to‘playdi).

2. O‘lchash jarayonida unga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risida mahlumotlar to‘plash va hisobot topshirish.

3. Xatoliklar va ularni kelib chiqish sabablari va bartaraf etish imkoniyatlari bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash va hisobot topshirish.

4. O‘lchash vositalarini xatoliklarini hisoblash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Peregudov L.V., Saidov M.X., Fayziyev R.R., Ismatullayev F.R., Abidov O.S. Upravleniye kachestvom i konkurentospособностю produksii. Tashkent, 2001.

2. Turayyev Sh.A., Boboyev G‘.G‘., Byekmurotov Ch.A. “Mahsulot sifat nazorati va sinov qurilmalari” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun uslubiy ko‘rsatmalar. –Toshkent: ToshDTU, 2014. 122 b.

3. Sudarikova Ye. V. Nerazrushayuшиy kontrol v proizvodstve: ucheb. posobiye. Ch. 1.; GUAP. - SPb., 2007. - 137 s.: il.

4. Gissin V.I. Upravleniye kachestvom produksii: Uchebn. posobiye- Rostov

n/D: Feniks, 2000. – 256 s.

5. Ismatullayev P.R., Maksudov A.N., Abdullayev A.X., Axmedov B.M., A'zamov A.A. Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish. –T.: O'zbekiston, 2001. - 360 b.
6. Axmedov B.M., Ismatullayev P.R., Turayev Sh.A. Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish asoslari: 5521600 - "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" va 5524300 - "Mahsulot sifati menejmenti (mahsulot turlari bo'yicha)" yo'nalishlari bakalavriat talabalari uchun o'quv qo'llanma. O'zR OO'MTV; TDTU. - Toshkent, 2007. -233 B.
7. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008 y. – 267 b.
8. Ismatullayev P.R., Axmedov B.M. i dr. Osnovy sistemy menedjmenta kachestva: Uchebnoye posobiye. Tashkent, 2009. – 208 s.
9. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Djabbarov R.R., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh. Osnovy standartizasii, metrologii, sertifikasii i upravleniya kachestvom. Uchebnoye posobiye, Tashkent, NIISMS, 2007. – 555 s.
10. Ponomarev, S.V. Istorija standartizasii i sertifikasii: uchebnoye posobiye / S.V. Ponomarev, Ye.S. Miščenko. – Tambov: Izd-vo Tamb. gos. texn. un-ta, 2009. – 92 s.
11. Pikula N.P. Metrologiya, standartizasiya i sertifikasiya: uchebnoye posobiye / N.P. Pikula, A.A. Bakibayev, O.A. Zamarayeva, Ye.V. Mixeyeva, N.N. Chernyshova; Nasionalnyy issledovatelskiy Tomskiy politexnicheskiy universitet. – Tomsk: Izd-vo Tomskogo politexnicheskogo universiteta, 2010. – 185 s.
12. Dimov Yu.V. Metrologiya, standartizasiya i sertifikasiya: uchebnik. Izd-vo «Piter», SPb, 2013. –496 S.

3- amaliy mashg‘ulot: O‘lchash usullari va vositalari, o‘lchash natijalarini qayta ishlash qoidalari, o‘lchash xatoliklarni baholash.

Ishdan maqsad – O‘lchash natijalarini qayta ishlash. Xatoliklar bo‘yicha xisoblash ishlarini olib borish. Noaniqlik tushunchasi tahlili. Qiyoslash va kalibrlash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish.

Masalaning qo‘yilishi

Mashg‘ulot vazifalari:

- O‘lchash natijalarini qayta ishlash bo‘yicha nazariy bilimlarni mustahkamlash;
- Xatoliklar bo‘yicha xisoblash ishlarini olib borish;
- Noaniqlik tushunchasini tahlil qilish;
- Qiyoslash va kalibrlash bo‘yicha nazariy bilimlarni mustahkamlash.

O‘lchash natijalarini qayta ishlash

I. Nazariy qism

Agar o‘lchashda sodir bo‘ladigan xatolik (Gauss qonuni) normal qonun bo‘yicha taqsimlanadi yoki o‘zgaradi desak, u holda uni matematik tarzda quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$y(\delta) = \frac{1}{\sigma \sqrt{2\pi}} \cdot e^{-\frac{\Delta X_i^2}{2\sigma^2}}, \quad (1.1)$$

bu yerda: $u(\delta)$ - tasodifiy xatolikning o‘zgarish ehtimolligi (taqsimlanishi); σ -o‘rtacha kvadratik xatolik; ΔX_i -tuzatma, yoki $\Delta X_i = \bar{x}_i - x_i$ bo‘lib; x_i - alohida o‘lhashlar natijasi, \bar{x}_i - esa o‘lchanadigan kattalikning ehtimollik qiymati yoki uning o‘rtacha arifmetik qiymatidir ye = 2,72-natural logarifm asosidir.

O‘lchanadigan kattalikning o‘rtacha arifmetik qiymati quyidagicha hisoblab topiladi


$$\bar{x}_i = \frac{X_1 + X_2 + X_3 + \dots + X_n}{n}, \quad (1.2)$$

bu yerda X_1, X_2, \dots, X_n lar alohida o‘lchashlar natijasi; n -o‘lchashlar soni. o‘rtacha kvadratik xatolik quyidagi ifoda bo‘yicha topiladi

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n \Delta X_i^2}{n - 1}} \quad (1.3)$$

2.1-chizmada o‘rtacha kvadratik xatolikning har xil qiymatlarida tasodify xatolikning o‘zgarish egri chiziqlari ko‘rsatilgan. Grafikdan ko‘rini turibdiki, o‘rtacha kvadratik xatolik qanchalik kichik bo‘lsa, xatolikning kichik qiymatlari shunchalik ko‘p uchraydi; demak, o‘lhash shunchalik yuqori aniqlikda olib borilgan hisoblanadi.

O‘lhash natijalarini qayta ishlashdan maqsad, o‘lchanadigan kattalikning haqiqiy qiymatini topish va uni o‘lchanadigan kattalikning asli qiymatiga yaqinlashish darajasini aniqlashdir. Bu esa ehtimollar nazariyasi tushunchalariga asoslanib baholanadi; ya’ni, ishonchli interval va uni xarakterlovchi ishonchli ehtimollik qabul qilinadi. Odatda ishonchli interval ham, ishonchli ehtimollik ham konkret o‘lhash sharoitiga qarab tanlab olinadi. Masalan, o‘rtacha kvadratik xatolik bo‘lgan tasodify xatolikning normal qonun bo‘yicha taqsimlanishida (o‘zgarishida) ishonchli interval $+3\sigma \div -3\sigma$ gacha, ishonchli ehtimollik esa $0,9973$ qiymatda qabul qilinishi mumkin $1 - 0,9973 = 0,027 \approx 1/370$. Bu degan so‘z, 370 tasodify xatolikdan bittasi, o‘zining absolyut qiymati bo‘yicha 3σ dan katta bo‘ladi. Shuning uchun 3σ eng yukori tasodify xatolik deb yuritiladi va 3σ dan kichik bo‘lgan xatolikni o‘tkinchi xatolik deb hisoblab, o‘lhash natijalarini qayta ishlashda isobga olinmaydi.



2.1-rasm

O'lhash natijasining aniqligini baholashda ko'pincha ehtimollik xatolikdan foydalaniladi. Ehtimollik xatolik esa shunday xatolikki, unga nisbatan qandaydir kattalikni takror o'lchagandagi tasodifiy xatolikning bir qismi ehtimollik xatolikdan ko'p, ikkinchi qismi esa mutlaq qiymati bo'yicha undan kam bo'ladi. Bundan chiqadiki, ehtimollik xatolik ishonchli intervalga teng bo'lib, bunda ishonchli ehtimollik $P=0,5$ ga teng bo'ladi [1,2].

Tasodifiy xatolik normal qonun bo'yicha taqsimlanganda, ehtimollik xatolik (ε) quyidagicha topilishi mumkin.

$$\varepsilon = \frac{2}{3} \sigma_n = \frac{2}{3} \sqrt{\frac{\sum_{I=1}^n (\bar{X}_I - X_i)^2}{n(n-1)}}, \quad (1.4)$$

bu yerda $\sigma_n = \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$ - o'rtacha arifmetik qiymat bo'yicha o'rtacha kvadratik xatolikdir.

Ehtimollik xatolik bu usulda ko'pincha, o'lhashni bir necha o'n, hattoki yuz marotaba takrorlash imkoniyati bo'lgandagina aniqlanadi.

Amalda o'lhashni juda ko'p marotaba takrorlash imkoniyati blmaydi, bunday holda ehtimollik xatolik Styudent koeffisiyenti yordamida aniqlanadi. Bu holda o'lchanadigan kattalikning haqiqiy qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblab topiladi

$$X = \bar{X}_i \pm t_n \sigma_n,$$

bu yerda t_n Styudent koeffisiyenti bo‘lib, uni maxsus jadvaldan (I-jadval) o‘lhashlar soni va qabul qilingan ishonchli ehtimollik qiymatlariga qarab olinadi.

Shunday qilib:

I. O‘rtacha kvadratik xatolik o‘lchanadigan kattalikning haqiqiy qiymatini istalgan uning o‘rtacha arifmetik qiymati atrofida bo‘lishi ehtimolligini topishga imkon beradi.

2. $n \rightarrow \infty$ bo‘lganida $\sigma_n \rightarrow 0$ yoki o‘lhash sonini oshirish bilan $\sigma_n \rightarrow 0$ ga intilib boradi. Bu esa o‘z navbatida o‘lhash aniqligini istagancha oshirish (ko‘tarish) mumkin degan xulosaga kelmaslik kerak; chunki o‘lhash aniqligi tasodifiy xatolik sistematik xatolikka tenglashguncha oshadi. Shuning uchun ham tanlab olingan ishonchli interval va ishonchli ehtimollik qiymatlari bo‘yicha kerakli o‘lhashlar sonini aniqlash mumkinki, bu esa tasodifiy xatolikning o‘lhash natijasiga ham ta’sir ko‘rsatishini ta’minlasin. Buning uchun 2-jadvaldan foydalanish mumkin bo‘lib, bunda intervallar o‘rtacha kvadratik xatolikning ulushlarida berilgan va o‘lhash natijalarining nisbiy xatoligi quyidagicha hisoblanadi:

$$\varepsilon = \frac{\Delta X}{X} \cdot 100 \% ,$$

bu yerda:

$$\Delta X = t_n \sigma_n$$

III. Ishning tartibi

1. O‘lhash natijalarini qayta ishlash usullari bilan tanishish.
2. Tasodifiy va sistematik xatoliklar, ularning hosil bo‘lishi, yo‘qotish usullari bilan tanishish.
3. O‘rtacha arifmetik, o‘rtacha kvadratik xatolik, ishonchli interval, ishonchli ehtimollik tushunchalari bilan tanishish.
4. Ishga oid asboblar, impulslar generatori (IG), raqamli chastotomerlarning tuzilishi, ishslash prinsipi va ularning texnik ma’lumotlari bilan tanishish.
5. O‘lhash natijalarini Gauss qonuni bo‘yicha qayta ishslash.
6. Xatolikning Gauss qonuni bo‘yicha o‘zgarish egri chiziҳini chizing.

IV. Ish bo'yicha ko'rsatmalar

1. X_i - ni aniqlash uchun impulslar generatorida ma'lum chastota beriladi va shu chastota ma'lum vaqt oralihiда (masalan I_s yoki $0, I_c$) 100 marotabagacha o'lchanadi.

2. O'lhash natijalarini yuqorida, ishning nazariy qismida, berilgan usul yordamida qayta ishlanadi.

3. Normal qonun bo'yicha tasodifiy xatolikning o'zgarish egri chizihiini qurish uchun X o'qiga ΔX_i , ya'ni o'lchanadigan kattalikni uning o'rtacha qiymatidan qanchaga farq kilishini; U o'qiga esa $U(\delta)$ qo'yiladi.

1-jadval. Styudent koeffisiyentlari

n	P						
	0,6	0,7	0,8	0,9	0,95	0,98	0,99
2	1,38	2,0	3,1	8,3	17,7	31,8	63,7
5	0,94	1,2	1,5	2,1	2,8	3,7	4,8
10	0,88	1,2	1,4	1,8	2,3	2,8	3,3
20	0,86	1,1	1,3	1,7	2,1	2,5	2,9
40	0,85	1,2	1,3	1,7	2,0	2,4	2,7
60	0,85	1,0	1,3	1,7	2,0	2,4	2,7
120	0,85	1,0	1,3	1,7	2,0	2,4	2,6

2-jadval

ε	R			
	0,7	0,9	0,95	0,99
1.0	3	5	7	11
0.5	6	13	18	31
0.4	8	19	27	46
0.3	13	32	46	76


0.2	29	70	99	171
0.1	169	223	397	169

3-jadval. O‘lhash natijalarining tahlili

Nº	X_i	\bar{X}_i	$\bar{X}_i - X_i$	$(\bar{X}_i - X_i)^2$	$\sum_{i=1}^n (\bar{X}_i - X_i)^2$	σ	σ_n	X	U

O‘lhashlar noaniqligining baholashga bag‘ishlangan xalqaro va hududiy hujjatlardagi ma’lumotlar tahlil asosida o‘rganildi, jumladan, noaniqlikni taqdim etish uchun o‘lhashlar noaniqligining quyidagi turlari mavjudligi, xususan, standart noaniqlik (hisoblash usuliga ko‘ra A va B turi), jamlangan standart noaniqlik, kengaygan noaniqlik va ifodalash usuliga ko‘ra nisbiy noaniqlik. 1-rasmda o‘lhash noaniqliklarini usullar va ifodalash uslublariga ko‘ra klassifikasiyasi keltirilgan.

- Standart noaniqlik – bevosita o‘lhashlar natijalarining noaniqligi bo‘lib, o‘rta kvadratik chetlanish orqali ifodalanadi.
- A turdagи standart noaniqlik – ushbu noaniqlik ko‘p marotabali o‘lhashlarning natijalarini statistik usullar asosida hisoblanib aniqlanadi.
- B turdagи noaniqlik biron-bir aprior ma’lumotlardan foydalananib hisoblanadi. Quyidagilar aprior ma’lumot bo‘lishi mumkin:
 - tenglamaga kiritilgan kattaliklarning dastlabki o‘lhashlardagi berilganlari;
 - o‘lhash vositalarini attestatlash, kalibrlash yoki qiyoslash bo‘yicha berilganlar;
 - ma’lumotnomada berilganlar va konstanta va b.q. noaniqligi;
 - Jamlangan standart noaniqlik (U_c) – bu bevosita bo‘lmagan o‘lhashlar natijalarining standart noaniqligi. U bevosita bo‘lmagan o‘lhash natijalari dispersiyasining fizik ma’nosini bildiradi va boshqa fizik kattaliklarning (argumentlar) dispersiyasi (standart noaniqliklarning kvadratlari) orqali hisoblanadi.



1-rasm. O'lashlari noaniqligining klassifikasiyasi.

- Kengaygan noaniqlik (U) – ushbu kattalik intervalni aniqlaydi. Interval chegarasida bo‘lgan bevosita bo‘lmagan o‘lchashlarning natijalari yetarlicha asos bilan o‘lchangan kattalikka qo‘sib yozib qo‘yilishi mumkin. Kengaygan noaniqlik jamlangan noaniqlik orqali hisoblanadi.

IEC 60359 standartda boshqa yana o‘lchashlar noaniqligi bilan bog‘liq bo‘lgan to‘rtta termin qo‘llanilgan: “asosiy instrumental noaniqlik”, “absolyut instrumental noaniqlik”, “ishchi instrumental noaniqlik” va “noaniqlik chegarasi”.

O‘lchashlar noaniqligini metrologiyaning turli darajadagi ishlarida baholashda turli xalqaro, hududiy tashkilotlarning tavsiyalaridan foydalaniladi (1-jadval).

Xalqaro miqyosda o‘lchashlar noaniqligi “O‘lchashlar noaniqligini ifodalash bo‘yicha qo‘llanma GUM” asosida baholanadi. Hududiy tashkilotlarning o‘lchashlar noaniqligini baholash bo‘yicha talablari GUM qo‘llanmaga asoslanadi.

1-jadval.

Qo‘llanma va tavsiyalar	
xalqaro darajada	hudud darajasida
GUM, ISO/IEC 17025, ISO 10012, ILAC-G17	EA-04/02, EA-04/16, EURACHEM/CITAC Guide QUAM-P1, RMG 43

ISO/IEC 17025 standartining 5.4.6 punktida akkreditlangan sinash laboratoriylarida o‘lchashlarning noaniqligini o‘lchash vositalarining muvofiqlik sertifikati yoki kalibrlash bayonnomasida ko‘rsatilishi talab qilinadi. ILAC-G17 hujjat o‘lchashlar noaniqligi konsepsiysi sinashlarda ISO/IEC 17025 standarti talablari asosida qo‘llanilishining tafsilotiga bag‘ishlangan. ISO 10012 xalqaro standartlarga muvofiq o‘lchashlar noaniqligi o‘lchashning har bir jarayoni uchun baholanishi kerak.

Kalibrlash laboratoriylarida o‘lchashlar noaniqligini baholash masalalari EA-04/02 hujjatda reglamentlangan bo‘lib, ushbu hujjat GUM talablari asosida ishlab chiqilgan. Hujjat, kirish kattaliklari bilan, masshtabli koeffisiyentlar bilan,

effektiv erkinlik darajalari bilan bog‘liq bo‘lgan korrelyasiyalangan o‘lchashlar noaniqligini baholash bo‘yicha konkret misollar keltirilgan.

EA-04/16 qo‘llanma ushbu hududiy tashkilot tomonidan akkreditlangan laboratoriyalarda o‘lchashlar noaniqligini aniqlash va baholash masalalariga bag‘ishlangan.

Analitik laboratoriyalarni akkreditlash bo‘yicha Yevropa tashkiloti EURACHEM/CITAC Guide QUAM-P1 qo‘llanmasi o‘lchashlar noaniqligini baholash bo‘yicha to‘rtta bosqichni o‘z ichiga olgan:

- o‘lchanayotgan kattalik tafsiloti;
- noaniqlik manbalarini aniqlash;
- noaniqlikni tashkil etuvchilarining miqdoriy hisoblari;
- umumiy noaniqlikni aniqlash

RMG-43 (davlatlararo tavsiyalar) tavsiyalari GUM qo‘llanmani qo‘llash bo‘yicha keng tarqalgan bo‘lib, uning asosiy masalalari bo‘lib:

- GUM qo‘llanmaning asosiy talablarini va tavsiyalarini ifodalash hamda amaliy jihatdan qo‘llash;
- o‘lchashlar aniqligini bayon qilinishidagi ikkita yondashuvning qiyosiy tahlili;
- metrologiya bo‘yicha asos normativ hujjatlar va GUM qo‘llanmada foydalilanilgan o‘lchash natijalarining ifodalanishining o‘zaro muvofiqligini namoyish qilish.

Quyida “O‘lchashlar noaniqligini ifodalash bo‘yicha qo‘llanma” (“Qo‘llanma”) tahlilini keltiramiz. Qo‘llanma quyida keltirilgan xalqaro tashkilotlar tomonidan 1993 yilda tayyorlangan:

- BIPM (O‘lchov va tarozilarining xalqaro byurosi)
- IEC (Xalqaro elektrotexnik komissiya)
- IFCC (Klinik ximianing xalqaro federasiyasi)
- ISO (Standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilot)
- IUPAC (Toza va amaliy ximianing xalqaro ittifoqi)
- OIML (Qonuniy metrologiyaning xalqaro tashkiloti)

O‘lchash natijalarining xatoliklarini taqdim etish va baholash bo‘yicha xalqaro birlilikdagi yondashuv masalasi dolzARB masala hisoblanadi. Ushbu dolzarblikni hisobga olib, o‘lchov va tarozilarning xalqaro komiteti (MKMV) 1978 yilda ushbu muammoni o‘lchov va tarozilarning xalqaro byurosiga (MBMV) Milliy metrologik laboratoriyalari bilan birgalikda o‘rganib chiqish uchun topshirdi.

O‘lchov va tarozilar xalqaro byurosining ishchi guruhi o‘lchashlarning noaniqliklari bo‘yicha bajarilgan ishlar hisoboti asosida INC-1 (1980) “Eksperimental noaniqliklarni ifodalash” nomli tavsiyani tayyorladi. Ushbu tavsiya O‘lchov va tarozilarning xalqaro komiteti tomonidan ma’qullandi va tasdiqlandi. INC-1 (1980) tavsiyalariga asoslangan “Qo‘llanma” o‘lchashlarning noaniqligini ifodalash va baholash qoidalarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, metrologiya, standartlashtirish, kalibrlash va laboratoriyalarni akkreditlash xizmatlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan. Ushbu qo‘llanmaning tamoyillari o‘lchashlarning keng spektrida foydalanish uchun mo‘ljallangan. Ma’lumki, amalda normativ hujjatlarda “o‘lchashlar noaniqligi” tushunchasidan foydalanilmaydi. Ularda “xatolik” va “xatolik xarakteristikasi” tushunchalari mavjud. Shunday qilib, “Qo‘llanma” va mavjud normativ hujjatlar tizimi orasida qarama-qarshiliklar mavjud. Xususan, “Qo‘llanma”da mumkin qadar “xatolik” va “xatolik tavsifi”, “o‘lchanadigan kattalikning asl (chinakam) qiymati” tushunchalarini foydalanish o‘rniga qarab ularning o‘rniga “noaniqlik” va “o‘lchanadigan kattalikning baholangan qiymati”, hamda xatoliklarni namoyon bo‘lish xarakteriga ko‘ra “tasodifiy” va “muntazam” deb tasniflashdan “o‘lchashlarning noaniqliklarini baholash usuliga ko‘ra” (A turi – matematik statistika usullari bilan va B turi bo‘yicha – boshqa usullar bilan) deb tasniflashga o‘tish ma’qulroqligi ko‘rsatilgan.

Quyidagilar Qo‘llanmaning maqsadi bo‘lib hisoblanadi:

- o‘lchashlarning noaniqliklari to‘g‘risidagi hisobotni qanday tuzish to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan to‘liq ta’minlash;
- o‘lchash natijalarini xalqaro miqyosda solishtirish asoslarini taqdim etish;

- o‘lhashlarning noaniqliklarini ifodalash va baholash uchun barcha o‘lhash turlariga va o‘lhashlarda foydalaniladigan barcha ma’lumot turlariga universal usul taqdim etish;

2003 yilda davlatlararo standartlashtirish bo‘yicha Tavsiyalar RMG 43-2001 “O‘lhashlarning noaniqliklarini ifodalash bo‘yicha qo‘llanma”ning qo‘llanilishi amalga kiritildi. Ushbu tavsiyalar o‘lhash natijalarini baholash usullariga taalluqli bo‘lib, “Qo‘llanma”dan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalarga ega bo‘lib, o‘lhash natijalarini xatoliklar va o‘lhashlar noaniqliklaridan foydalanib o‘lhash natijalarini taqdimot qilish shakllarining muvofiqligini ko‘rsatadi. Qo‘llanma, o‘lhashlarning aniqlik xarakteristikalarini o‘lhash xatoliklarining ko‘rsatkichlarida emas, balki o‘lhashlar noaniqliklarining ko‘rsatkichlarida ifodalashni tavsiya qiladi. O‘lchanadigan kattalikning “asl qiymati” tushunchasi o‘rniga “baholangan qiymat” tushunchasi kiritilgan.

O‘lhashlarning noaniqliklari konsepsiyasining paydo bo‘lishining sabablari juda ko‘p bo‘lib, ular quyidagilarga asoslangan:

- o‘lhashlarning yangi (noan’anaviy) sohalarining (psixologiya, sosiologiya, medisina va b.) paydo bo‘lishi va ularda metrologiyaning an’anaviy (kattalik, o‘lchov birligi, o‘lchov, etalon, o‘lhash xatoligi) postulatlari ishlamasligi.
- yangi ilmiy yo‘nalishlarning ta’siri (kibernetika, axborot nazariyasi, matematik statistika va b.). Ularda noaniqlik tushunchasi salmoqli rol o‘ynaydi. Bu xuddi risoladagidek noaniqlikn keng talqin qilinishi bilan bog‘liq bo‘lib, masalan, o‘lhash natijasi o‘lchanayotgan kattalikning qiymatini ifodalashiga shubhalanishni bildiradi.
- o‘lchanadigan kattalikning asl (chinakam) qiymati bo‘yicha xatolik tushunchasi ma’nosini yo‘qotadi, chunki, xatolikni hisoblab bo‘lmaydi.
- sistematik va tasodifiy xatoliklarni alohida baholash va ular uchun turli xarakteristikalardan foydalanish (ishonch chegaralari va o‘rta kvadratik chetlanish) xatoliklarning yuqori baholanishiga sabab bo‘ladi.
- o‘lhash natijalarining xarakteristikalarini uchun umum qabul qilingan va qo‘llanilishida sodda bo‘lgan universal uslubiyotning zarurligi.

Qo'llanmada “o'lhash xatoligi” tushunchasi o'rniga “o'lhash noaniqligi” tushunchasi kiritilgan. Bunda o'lhash noaniqligi ikki xil ma'noda talqin qilinadi:

- keng ma'noda, o'lhash natijasining ishonchliligiga nisbatan shubhalanish sifatida. Masalan, o'lhash natijalariga barcha tuzatishlar kiritilgandan keyin kattalikning o'lchanigan qiymatining aniqligiga nisbatan bo'lgan shubha.
- tor ma'noda, o'lhashlar noaniqligi shunday parametr sifatida tushuniladiki, bu parametr o'lhash natijasi bilan bog'liq bo'lib, qiymatlarning sochilishini xarakterlab, ularning o'lchanigan kattalikka asosli ravishda qo'shib yozib qo'yilishi tushuniladi.

Ushbu konsepsiyada o'lhashlar noaniqligi aynan tor ma'noda tushuniladi.

Umuman olganda, o'lhash noaniqligi – parametr bo'lib, bu parametr o'lhash natijasi bilan bog'liq holda qiymatlarning dispersiyasini (sochilishini) xarakterlaydi, ular o'lchanadigan kattalikka asosli ravishda qo'shib yozib qo'yilishi mumkin. Shuni aniq tasavvur qilish kerakki, o'lhashlarning noaniqligi bu noan'anaviy tushunchadagi ishonch intervali emas (berilgan ishonchi ehtimolligida). Ehtimollik bu yerda ishonch o'lchovini xarakterlaydi, hodisalar chastotasini emas. O'lhashlarning noaniqligi odatda ko'p tashkil etuvchilarga ega bo'ladi. Ularning ayrimlari o'lhashlar qatorlari natijalarining statistika taqsimotidan baholanishi va eksperimental standart chetlanishlar bilan baholanishi mumkin. Boshqa tashkil etuvchilar ehtimolliklarning taxmin qilingan taqsimotlari bilan tajriba yoki boshqa ma'lumotlar asosida baholanadi. Ular, undan tashqari standart chetlanishlar bilan xarakterlanishi mumkin.

O'lhash natijalarining noaniqligi o'lchanadigan kattalik qiymatini aniq bilmaslikni ifodalaydi. U hatto ma'lum sistematik xatoliklarga tuzatishlar kiritilgandan keyin ham o'lchanadigan kattalikning noaniqliklari oqibatidagi faqat “baho” ekanligini va bu noaniqliklarning tasodifiy effektlar va sistematik xatoliklarga bo'lgan natijaning noto'g'ri tuzatilishi natijasida kelib chiqadi.

Noaniqlikning ikki xilda baholanishi kiritilgan:

- A turdag'i baholash – bu noaniqlikni kuzatuвлar qatorlarini statistik tahlil yo'li bilan baholash usulidir;

- B turdag'i baholash – kuzatuvlar qatorini statistik tahlildan boshqa usullarda baholash usulidir.

A va B turlarga tasniflashning maqsadi noaniqliklarning tashkil etuvchilarini baholashning ikkita turli usulda baholashni ko'rsatishdir.

A turdag'i standart noaniqlik – ehtimollikning zichlik funksiyasidan olinadi.

B turdag'i standart noaniqlik – hodisaning ro'y berishiga bo'lgan ishonchga asoslangan ehtimolliklar zichligining taxmin qilingan funksiyasidan olinadi. Bu ehtimollik ko'pincha sub'yektiv ehtimollik deb nomlanadi. Ko'pchilik hollarda, Y o'lchanadigan kattalik bevosita o'lchanmaydi, balki m – boshqa o'lchanadigan X_1, X_2, \dots, X_m kirish kattaliklari deb nomlangan kattaliklarga funksional bog'liqlik orqali bog'liqdir.

$$Y = f(X_1, X_2, \dots, X_m), \quad (2.1)$$

bu yerda Y – chiqish kattaligi bog'liq bo'lgan X kirish kattaliklarning o'zları o'lchanadigan kattalik sifatida qaraladi.

O'z navbatida ular boshqa kattaliklarga tuzatma va sistemaning effektlarga bo'lgan tuzatish koeffisiyentlari. Bu esa f murakkab funksional bog'lanishiga olib keladi va ularni aniq yozib bo'lmaydi. Undan tashqari, f ni eksperimental aniqlash mumkin yoki u algoritm sifatida mavjud bo'lishi va sonli amalga oshirilishi mumkin.

O'lchanayotgan Y kirish kattaligining bahosini, y sifatida baholangan, yuqorida keltirilgan tenglamadan x_1, x_2, \dots, x_m kirish baholaridan X_1, X_2, \dots, X_m kattaliklarning qiymatlari uchun olinadi. Chiqish bahosi y o'lchash natijasi hisoblanib, quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$y = f(x_1, x_2, \dots, x_m). \quad (2.2)$$

A turdag'i standart noaniqlik u_a ko'pkarrali o'lchashlarning natijalari bo'yicha baholanadi, bunda uni hisoblash uchun dastlabki berilganlar bo'lib ularning natijalari X_{i1}, \dots, X_{in_i} , bu yerda $i=1, \dots, m$, n_i - i -inchি kirish kattaligining

o‘lhashlar soni. Kirish kattaligining i -inchi yagona o‘lchanishining standart noaniqligi $u_{A,i}$ – quyidagi ifodadan hisoblanadi:

$$u_{A,i} = \sqrt{\frac{1}{n_i - 1} \sum_{q=1}^{n_i} (x_{iq} - \bar{x}_i)^2}, \quad (2.3)$$

bu yerda $\bar{x}_i = \frac{1}{n_i} \sum_{q=1}^{n_i} x_{iq}$ – i -inchi kirish kattaligining o‘rta arifmetigi.

i -inchi kirish kattaligini o‘lhashning standart noaniqligi quyidagi ifodadan aniqlanadi va bunda natija o‘rta arifmetik sifatida aniqlanadi.

$$u_A(x_i) = \sqrt{\frac{1}{n(n-1)} \sum_{i=1}^n \sum_{q=1}^{n_i} (x_{iq} - \bar{x}_i)^2}. \quad (2.4)$$

B turdagи standart noaniqlik x kattalikni baholash uchun foydalaniladi, u takroriy kuzatishlar natijasida olinmagan. U bilan bog‘liq bo‘lgan baholangan standart noaniqlik $u_B(x_i) = x$ ning kutilishi mumkin bo‘lgan o‘zgaruvchanligiga asoslangan barcha qulay axborotlarga asoslangan ilmiy mulohazalar bazasida aniqlanadi. Bunday axborotlar fondi o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- dastlabki o‘lhashlarga doir berilganlar;
- tajribalar natijasida olingan ma’lumotlar yoki mos keluvchi material va asboblarning xulqi va xossalariiga oid ma’lumotlar;
- tayyorlovchining spesifikasi;
- qiyoslash, kalibrlash, asbob to‘g‘risida tayyorlovchining ma’lumotlari, sertifikatlar va shunga o‘xshashlar to‘g‘risida ma’lumotlar;
- noaniqliklar.

B turdagи noaniqlik uchun sub’yektiv ehtimollik nazariyasining apparati qo‘llaniladi: ehtimollik ishonch o‘lchovini xarakterlaydi, hodisalar chastotasini emas. B turdagи noaniqliknı aniqlashda foydalaniladigan berilganlarning noaniqligi to‘g‘risida aprior ma’lumotdan keng foydalaniladi.

B turdag'i noaniqlik berilgan bo'lishi mumkin, masalan, xuddi ayrim karrali standart chetlanishlar kabi, 90, 95 yoki 99 foiz ishonch darajasiga ega bo'lган interval kabi. Agar boshqa hech narsa ko'rsatilmagan bo'lsa, unda noaniqlikn'i hisoblash uchun normal taqsimotdan foydalanilgan deb taxmin qilish mumkin. Shuning uchun standart noaniqlikn'i keltirilgan qiymatni normal taqsimot koeffisiyentiga bo'lib aniqlash mumkin.

Ko'pincha, X ta'sir etuvchi omil bilan bog'liq bo'lган standart noaniqlikn'i baholashga to'g'ri kelib, uning qiymati berilgan $x-\Delta$ dan $x+\Delta$ gacha chegaralarda joylashgan bo'ladi. X kattalik to'g'risida mavjud ma'lumotlar bo'yicha X ning berilgan chegaralar ichida bo'lishi mumkin bo'lган qiymatlari uchun ehtimollikning ayrim aprior taqsimotini qabul qilish kerak. Shundan keyin standart noaniqlik Δ ni k koeffisiyentga bo'lib topiladi, ushbu koeffisiyent qabul qilingan taqsimot funksiyasiga bog'liq bo'lib:

$$u(x) = \Delta/k . \quad (2.5)$$

Bunda quyidagilar nisbatan tipik hodisa bo'lib hisoblanadi:

- faqat chegaralar ma'lum bo'lib, ularda X , ya'ni 2Δ qiymat bo'lishi mumkin
- x_{mol} – qiymati va chegaralari ma'lum, odatda simmetrik, yo'l qo'yiladigan qiymatlar $\pm\Delta$;
- interval $(x_{mol}-\Delta_p)$ ma'lum bo'lib, p ehtimollikning berilgan qismini egallaydi.

Birinchi holda, tekis taqsimot taqsimot tahlil qilinganda k koeffisiyentning qiymati simmetrik chegaralar uchun $\sqrt{3}$ deb qabul qilinishi mumkin.

Ikkinchi holda, x_{mol} qiymati ma'lum bo'lган hol uchun, X ning x_{mol} yaqinida bo'lish ehtimolligi $x_{mol}\pm\Delta$ chegarasi yaqinida bo'lishdan ko'proq bo'ladi. Ya'ni, ehtimollikning uchburchakli taqsimotini tekis (to'g'ri burchakli) va normal taqsimot orasidagi o'rta deb qabul qilish mumkin. k koeffisiyentning qiymati ushbu holda $\sqrt{6}$ ga teng bo'ladi.

Uchinchi holda, ehtimollikning taqsimoti normal deb olinadi va k koeffisiyentning qiymati berilgan ehtimollikka bog'liq bo'ladi. Masalan, $p=0,99$ uchun $k=2,58$.

Noaniqlikni B turi bo'yicha baholash an'anaviy statistik yondashuv ramkasidan tashqariga chiqish va zaruriy statistik axborotlarni olish qiyinlashgan yoki mumkin bo'lмаган hollarda noaniqliklarning tashkil etuvchilarining qiymatini topish imkonini beradi.

Jamlangan standart noaniqlik turi mavjud bo'lib, bu o'lhash natijasining standart noaniqligidir. Bunda natija boshqa kattaliklar qatorining qiymatlaridan olinadi. Baholangan standart chetlanish, chiqish bahosi yoki o'lhash natijasi y bilan bog'liq bo'lsa, jamlangan standart noaniqlik deyiladi va $u_c(y)$ ko'rinishda belgilanadi. Korrelyasiyalanmagan kirish baholanish uchun jamlangan standart noaniqlik quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$u_c(y) = \sqrt{\sum_{i=1}^m \left(\frac{\partial f}{\partial x_i} \right)^2 u^2(x_i)} . \quad (2.6)$$

Ushbu ifodadan u noaniqlik A-turi bo'yicha ham B-turi bo'yicha ham aniqlanishi mumkin. Jamlangan standart noaniqlik baholangan standart chetlanishni ifodalaydi va qiymatlarning sochilishini xarakterlaydi, ular o'lchanayotgan Y kattalikka yetarlicha asos bilan qo'shib yozib qo'yilishi mumkin. Jamlangan noaniqlikning o'lhash natijalarining noaniqligini ifodalash uchun foydalanishi mumkin bo'lishi bilan bir qatorda, ayrim hollarda, masalan savdoda yoki sog'liq va xavfsizlikka doir o'lhashlarda noaniqlikka chegara (o'lchov) berish kerak. Bu o'lchov chegarasida o'lchanayotgan kattalikning taqsimlanadigan qiymatlarining katta qismi joylashgan bo'ladi. Buning uchun kengaygan noaniqlik tushunchasidan foydalaniladi.

Kengaygan noaniqlikdan savdodagi, sanoatdagi, tartibga soluvchi aktlarda, sog'lijni va xavfsizlikni saqlashdagi o'lhash natijalarining noaniqligini ifodalash uchun noaniqlikning qo'shimcha o'lchovi sifatida foydalaniladi.

Kengaygan noaniqlik U jamlangan standart noaniqlikni $u_c(y)$ qamrov koeffisiyentiga k ko'paytirish orqali olinadi:

$$U = ku_c(y). \quad (2.7)$$

Unda o‘lchash natijasi $Y = y \pm U$ ifodalanadi. Bu, Y kattalikka qo‘sib yoziladigan qiymatning afzalroq bahosi bo‘lib y hisoblanishini bildiradi. $y-Y$ dan $y+Y$ gacha bo‘lgan interval kutilganidek, qiymatlar taqsimotining ko‘p qismiga ega bo‘lib, ularni hech ikkilanmasdan Y ga qo‘sib yozib qo‘yish mumkin.

Ishonch oralig‘i (interval) va ishonch darajasi (ehtimollik) tushunchalari statistikada intervalga quyidagi shartda qo‘llaniladi: agar, noaniqlikning barcha tashkil etuvchilari A turdagি baholanishdan olingan bo‘lsa, ya’ni, kuzatishlarning natijalariga statistik ishlov berilgan bo‘lsa.

Ushbu konsepsiyada “interval” so‘zini modifikasiyalash uchun “ishonch” so‘zi, U orqali aniqlanadigan intervalga havola qilinganda ishlatilmaydi. “Ishonchli daraja” atamasi ham ishlatilmaydi, uning o‘rniga “ishonch darajasi” atamasini ishlatish afzalroq hisoblanadi. U interval, o‘lchash natijalari doirasida, berilgan deb qaraladi va ehtimollik p taqsimotining ko‘proq qismiga ega bo‘lib, natija bilan hamda uning to‘liq standart noaniqligi bilan xarakterlanadi. Shunday qilib, p berilgan interval uchun “ehtimollik qamrovi” yoki “ishonch darajasi” bo‘lib hisoblanadi.

U interval bilan bog‘liq bo‘lgan p ishonch darajasi ko‘rsatilishi va baholanishi lozim, $u_c(y)$ ni o‘zgarmas kattalikka ko‘paytirish hech qanday natija bermasa ham, mavjud bo‘lgan ma’lumotni yangi ko‘rinishda ifodalarydi. Shuni e’tiborga olish kerakki, p ishonch darajasi y va $u_c(y)$ larning ehtimollik chegarasining chegaralanganligi holda, $u_c(y)$ ni o‘zining noaniqligi tufayli, noaniq bo‘lib qoladi. Qamrov koeffisiyentining k qiymati $y-Y$ dan $y+Y$ gacha interval talab qiladigan ishonch darajasi bilan aniqlanadi, odatda, 2 dan 3 gacha bo‘lgan qiymatlarga ega bo‘ladi. Ushbu koeffisiyent bu diapazon chegarasidan tashqariga ham chiqishi mumkin. Amplituda k koeffisiyent bilan berilgan ishonch darajasi bilan bog‘liqligini amalga oshirish juda qiyin. Lekin, ehtimolliklarning taqsimoti normal taqsimotga yaqin bo‘lsa, unda $k=2$ deb qabul qilinishi 95% ga teng bo‘lgan ishonch darajali intervalni beradi, $k=3$ bo‘lganda ishonch darajasi 99% bo‘lgan intervalni beradi deb taxmin qilish mumkin. Taqsimotni tekis deb olinganda qamrov koeffisiyenti 1,65 va 1,71 qiymatlarga ega bo‘ladi.

O‘lhash natijalari va ularning noaniqliklarining keltirilishi, “kam ma’lumot bergandan ko‘ra ko‘proq ma’lumot berish afzalroq” tamoyilidan kelib chiqadi.

Masalan, quyidagilar keltirilishi zarur:

- o‘lhash natijalari va uning noaniqliklarini eksperimental kuzatuvlar va kirish ma’lumotlarini hisoblash uchun foydalaniladigan usullar tafsilotini yozish;
- noaniqlikning barcha tashkil etuvchilarini sanab o‘tish va ularning qanday baholanganligini ko‘rsatish;
- berilganlar tahlilini shunday tarzda keltirish kerakki, taqdim qilingan hisoblashlarni oson takrorlash mumkin bo‘lishi;
- tahlilda foydalanilgan barcha tuzatishlar va konstantalar va ularning manbalarini berilishi zarur.

Noaniqlikning manbalari

O‘lhashlarning noaniqligini baholashga kirishishdan oldin dastlab, noaniqlikning mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan manbalarining ro‘yxatini tuzish zarur. Ushbu ro‘yxatni tuzishni oraliq kattaliklardan natijani hisoblash uchun foydalaniladigan asosiy ifodadan, ya’ni o‘lhashning matematik modelidan boshlash qulayroq. Ushbu ifodadagi barcha parametrlar o‘z noaniqliklariga ega bo‘lishi mumkin va shuning uchun ular noaniqlikning potensial manbalari bo‘lib hisoblanadi. Undan tashqari ifodaga kirmagan boshqa o‘lchanadigan kattalikning qiymatini topish uchun foydalaniladigan hamda natijaga ta’sir ko‘rsatadigan parametrlar bo‘lishi mumkin (masalan, ekstraksiya vaqtini va harorat). Noaniqlikning yashirin manbalari ham bo‘lishi mumkin. Barcha bu manbalar ro‘yxatga kiritilgan bo‘lishi kerak. Noaniqlikning asosiy manbalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: spesifikasiya, modellashtirish, usul, o‘lhash vositalari, atrof-muhit, operator va o‘lhash ob’yekti.

Noaniqlikning alohida tashkil etuvchilarini miqdoran tavsiflash uchun ularni alohida qarab chiqish kerak. Noaniqlikning individual tashkil etuvchilarini aniqlash uchun bir nechta umumiyl usullar mavjud.

- kirish kattaliklarini eksperimental o‘zgartirish;


- texnik hujjatlardagi ma'lumotlardan foydalanish. Masalan, o'lhash va kalibrlash sertifikatlari;
- oldingi tajriba v imitasion modellashtirish tajribalaridan kelib chiqadigan mulohazalardan foydalanish;

Quyida noaniqlikning alohida tashkil etuvchilarini qarab chiqamiz.

1. O'lchanadigan kattalikning spesifikasiya noaniqligi;

O'lchanadigan kattalikning o'lchami o'lhash ob'yeqtiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi ta'sirlarning parametrlariga bog'liq. Shuning uchun o'lhashga bo'lgan korrektiv yondashuv o'lchanadigan kattalikning dastlabki tafsilotini (spesifikasiyasini) talab qiladi.

O'lchanadigan kattalikni to'liq bo'lman spesifikasiyasini muvofiq keladigan noaniqlikning paydo bo'lishiga olib keladi. Ma'lumki, o'lhashning maqsadi bo'lib o'lchanadigan kattalikning (sonli) qiymatini aniqlash hisoblanadi. O'lchanadigan kattalikning tafsiloti (spesifikasiysi) o'z ichiga o'lhashlarni o'tkazish vaqtini ularni o'tkazish sharoitlariga doir ko'rsatmalarini oladi. O'lhashlarni o'tkazish sharoitlari, ta'sir etuvchi kattaliklarning birlashmasi ko'rinishida ko'rsatiladi, ya'ni o'lhash predmeti bo'lib hisoblanmagan, lekin natijaga ta'sir ko'rsatadigan kattaliklar ko'rsatiladi, masalan o'lhash vositalarining harorati. O'lchanadigan kattalikning tashqi ta'sir parametrlariga bog'liqligi ta'sir funksiyasi vositasida tavsiflanadi. Ta'sir funksiyasi eksperimental aniqlanishi yoki algoritm sifatida mavjud bo'lishi va sonli qo'llanilishi kerak.



2-rasm. O'lchashlar noaniqligining manbalari.

Ta'sir etuvchi kattaliklarning noadekvat aniqlanishi birgina kattalikni turli laboratoriyalarda o'tkazilgan o'lchash natijalarining mos kelmasligiga olib kelishi mumkin. Masalan, o'lchanadigan kattalik P -quvvat bo'lsa, quyidagi ifoda bilan beriladi:

$$P = f(V, R_0, \alpha, t) = \frac{V^2}{R_0 [1 + \alpha(t - t_0)]}, \quad (2.8)$$

bu yerda: V – kirish kattaligi;

t_0, R_0, α va t – ta'sir etuvchi kattaliklar.

Y o'lchanadigan kattalik bog'liq bo'lgan ta'sir etuvchi kattaliklarning o'zları boshqa kattaliklarga bog'liq bo'lishlari mumkin, tuzatma va tuzatish ko'effisiyentlarni sistematik effektlarga qo'shgan holda, bu esa f funksional bog'lanishni murakkablashuviga olib keladi; buni esa hech qachon aniq yozib bo'lmaydi. Shuning uchun, agar ta'sir funksiyasi funksional bog'lanishni o'lchash natijasini talab qilingan anqlikda topish darajasiga modellashtira olmasa, u holda buni bartaraf qilish uchun unga qo'shimcha kirish kattaliklari ulangan bo'lishi kerak. Keltirilgan misolda o'lchash anqligini oshirish uchun qo'shimcha kirish

kattaliklari kerak bo‘lishi mumkin. Ular rezistor bo‘yicha haroratni notejis taqsimlanishini, qarshilikning bo‘lishi mumkin bo‘lgan nochiziqlik harorat koeffisiyenti va qarshilikning atmosfera bosimiga bog‘liq bo‘lib qolishini hisobga olish kerak. Amaliyotda o‘lchanayotgan kattalikning spesifikasiyasi o‘lchashning talab qilinayotgan aniqligiga bog‘liq. O‘lchanayotgan kattalikni talab qilingan aniqlikka nisbatan yetarlicha to‘liq aniqlash o‘lchash bilan bog‘liq bo‘lgan barcha amaliy maqsadlar uchun uning qiymati yagona bo‘lishi uchun zarur.

2. Modellashtirish xatoliklari.

Inson tafakkurida o‘lchash ob‘yekti to‘g‘risidagi tasavvur ayrim modellar tarzida asoslanadi. Modellar parametrлarning birlashmasi bo‘lib tavsiflanadi. Modellar bo‘yicha aniqlanadigan kattaliklar real ob‘yektlarning xossalaridan doim farq qiladi, chunki model originalning absolyut nusxasi bo‘la olmaydi. Ushbu farq, o‘lchanadigan kattalik modelining noadekvatligiga bog‘liq bo‘lgan noaniqlik bilan ifodalanadi. Ko‘pchilik hollarda ishlab chiqilgan fizik nazariya yetarlicha yaxshi modellarni qurish imkonini beradi. Bu modellar turli omillarning o‘lchash natijalariga bo‘lgan ta’sirini tavsiflaydi. Masalan, haroratning hajm va zichlikka bo‘lgan ta’siri yaxshi o‘rganilgan.

Ushbu hollarda noaniqlik mavjud o‘zaro nisbatlardan noaniqliklarning tarqalish usullari yordamida hisoblanishi va baholanishi mumkin. Boshqa vaziyatlarda eksperimental ma’lumotlar bilan birlashtirilgan nazariy modellardan foydalanish zarur bo‘lib qolishi mumkin. Masalan, analitik o‘lchash natijasi olinadigan hosilaning olinishi, o‘zining qanchadir vaqtida davom etishi uchun alohida funksiyaga bog‘liq bo‘lsa, u holda vaqt bilan bog‘liq bo‘lgan noaniqlikning baholanishi talab qilinishi mumkin. Buni reaksiya o‘tishi uchun sarflangan vaqt ni o‘zgartirish orqali qilish mumkin. Modelning real ob‘yektga mos kelmasligi o‘lchashlarga (aprior) modellashtirish noaniqligi deb nomlangan noaniqlikni keltirib chiqaradi.

Modelning murakkabligi va uning real ob‘yektga adekvatlik darajasi quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- o‘lchash ob‘yektining xossalari va turi;

- o‘lhashning maqsadi va talab qilingan aniqlik;
- ob’yekt to‘g‘risidagi ma’lumot, o‘lhashlarni bajarayotgan metrologning malakasi.

Modelni yaratish jarayonida paradoksal vaziyat paydo bo‘ladi. Izlanayotgan kattalikni o‘lhashni amalga oshirishda uning xossalari to‘g‘risida aprior ma’lumotga ega bo‘lish zarur bo‘lib, ular asosida o‘lhash modeli o‘rnataladi. Bu xossalari esa faqat ob’yektni eksperimental o‘rganish jarayonida aniqlanishi (o‘lchanishi) mumkin. Shuni ta’kidlash lozimki, o‘lhash natijalarida farqning bo‘lmasligi har doim ham tanlangan modelning to‘g‘riligini kafolatlamaydi. Tanlangan modelni eksperimental tekshirish, to‘g‘ri rejalahtirilgan o‘lhashlarni bajarish uslubiyoti qo‘llanilgan holdagina ishonchli bo‘ladi.

3. Uslubiy noaniqliklar.

O‘lhash usuli deyilganda, umumi shaklda tavsiflangan va o‘lhashlarni bajarishda foydalaniladigan tadbirlarning mantiqiy ketma-ketligi tushuniladi. O‘lhash usulining nomukammalligi uslubiy xatoliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ularning farqli xususiyati shundaki, ular o‘lchanadigan ob’yektning matematik va imitasion modelini yaratish yo‘li bilan aniqlanishi mumkin. Shunday modelni yaratib, uning parametrleri aniqlangandan keyin o‘lhashning uslubiy xatoligini, xarakteri bo‘yicha sistematik bo‘lgan xatolikni baholash mumkin. Uslubiy xatolikning bahosidan o‘lhash natijasiga tuzatma sifatida foydalanish mumkin. Bartaraf qilinmagan sistematik xatoliklarning standart chetlanish uslubiy noaniqlikning bahosi hisoblanadi.

Uslubiy noaniqliklarning ayrimlarini qarab chiqamiz. O‘lhash vositasining o‘lhash ob’yektiga ko‘rsatadigan ta’sirini baholashni ichki qarshiligi R_i bo‘lgan kuchlanish manbaiga kirish qarshiligi R_{kir} bo‘lgan voltmetrni ulash misolida tadqiq qilamiz. Ushbu holda, voltmetrning ko‘rsatishi U o‘lchanadigan elektr yurituvchi kuch E bilan quyidagi munosabat orqali bog‘langan (o‘lhashning to‘g‘rlanmagan natiasi):

$$U = \frac{R_{\text{kup}}}{R_i + R_{\text{kup}}} \cdot E . \quad (2.9)$$

Ushbu munosabatdan ko‘rinib turibdiki, o‘lchashning to‘g‘rilangan qiymatini olish uchun voltmetr ko‘rsatishini

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriq

1. Har bir tinglovchi o‘z sohasidan kelib chiqib o‘lhashlar o‘tkazadi va ularni qayta ishlaydi.
2. Har bir tinglovchi o‘z sohasidan kelib chiqib o‘lhashlar o‘tkazadi va ularni xatoliklarini hisoblaydi va baholaydi.
3. Noaniqliqlar va ularning turlari bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash.
4. O‘lhash vositalarini qiyoslash va kalibrlash bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash va ularning farqlarini tahlil qilish.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Peregudov L.V., Saidov M.X., Fayziyev R.R., Ismatullayev F.R., Abidov O.S. Upravleniye kachestvom i konkurentospособностю produksii. Tashkent, 2001.
2. Demina L.N. Metodы i sredstva izmereniy, ispytaniy i kontrolya: Uchebnoye posobiye. - M.: NIYAU MIFI, 2010. - 292 s.
3. Turayyev Sh.A., Boboyev G‘.G‘., Byekmurotov Ch.A. “Mahsulot sifat nazorati va sinov qurilmalari” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun uslubiy ko‘rsatmalar. –Toshkent: ToshDTU, 2014. 122 b.
4. Sudarikova Ye. V. Nerazrushayuščiy kontrol v proizvodstve: ucheb. posobiye. Ch. 1.; GUAP. - SPb., 2007. - 137 s.: il.
5. Axmedov B.M., Ismatullayev P.R., Turayev Sh.A. Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish asoslari: 5521600 - "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" va 5524300 - "Mahsulot sifati menejmenti (mahsulot turlari bo‘yicha)" yo‘nalishlari bakalavriat talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. O‘zR OO‘MTV; TDTU. - Toshkent, 2007. -233 B.
6. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, SMSITI, 2008 y. – 267 b.

V. KEYSLAR BANKI

1-Keys: O‘lchash vositasi nima?

O‘lchashlar uchun qo‘llaniladigan va me’yorlangan metrologik xossalarga ega bo‘lgan texnikaviy vositaga aytildi.

Keysni amalga oshirish bosqichlari

Bosqichlar	Topshiriqlar
1-bosqich	Taqdim etilgan aniq vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Muammoli vaziyat mazmuniga alohida e’tibor qarating. Muammoli vaziyat qanday masalani hal etishga bag‘ishlanganligini aniqlang.
2-bosqich	Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlang. O‘z fikringizni guruh bilan o‘rtoqlashing. Muammoni belgilashda isbot va dalillarga tayaning. Keys matnidagi hech bir fikrni e’tibordan chetda qoldirmang.
3-bosqich	Guruh bilan birgalikda muammo yechimini toping. Muammoga doir yechim bir necha variantda bo‘lishi ham mumkin. Shu bilan birga siz topgan yechim qanday natijaga olib kelishi mumkinligini ham aniqlang.
4-bosqich	Guruh bilan birgalikda keys yechimiga doir taqdimotni tayyorlang. Taqdimotni tayyorlashda sizga taqdim etilgan javdalga asoslaning. Taqdimotni tayyorlash jarayonida aniqlik, fikrning ixcham bo‘lishi tamoyillariga rioya qiling

2-Keys: O‘zbekiston Respublikasi o‘lchashlar birliliginin ta’minalash tizimining tashkiliy asosini ko‘rsating?

Davlat metrologiya xizmati va mahkamalar, birlashmalar, tashkilotlar va muassasalar metrologik xizmatlari.

Keysni amalga oshirish bosqichlari

Bosqichlar	Topshiriqlar
1-bosqich	Keys bilan tanishib chiqing. Muammoli vaziyat mazmuniga alohida e’tibor qarating. Muammoli vaziyat qanday masalani hal etishga bag‘ishlanganligini aniqlang.
2-bosqich	O‘lchashlar birliligi davlat tizimi bilan tanishing. O‘lchashlar birliligini ta’minalash tizimini maqsad va vazifalarini aniqlang. Ushbu tizimdagи muammolar va ularning yechimlarini aniqlang.
3-bosqich	O‘lchashlar birliligi davlat tizimidagi muammolarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlang. Ular bir nechta bo‘lishi mumkin. Yuqoridagi holat uchun sabab bo‘lgan faktorni aniqlang va muammo yechimini izlang. Topgan yechimni

	asoslang va aynan shu vaziyatga sabab bo‘lganligini misollar yordamida izohlang.
4-bosqich	Keys yechimi bo‘yicha o‘z fikr-mulohazangizni yozma ravishda yoriting va taqdim eting.

KEYSLI VAZIYATLAR

(O‘quv mashg‘ulotlarida foydalanish uchun tavsiya etiladi)

1-Keys: Tajribaga asosan Toshkentda og‘zi ochiq idishda suvning qaynash temperaturasi 98,3°S-98,8°S. Buni qanday tushuntirish mumkin?

Sizning fikringizcha bu muammoni hal qilishning qanday yo‘li yoki yo‘llari mavjud? O‘z fikringizni bildiring.

2-keys: Italian olimi G.Galileyning “Har doim ham aniq o‘lchamang, har doim sifatli o‘lchang” degan gaplarining ma’nosini tushuntirib bering.

Bu masalani tushuntirib berish kerak?

3 -Keys: Ta’mirlash vaqtida almashtiriladigan avtomobil qismlari o‘lchamlarining aniqligini ishlash vaqtida uning ishonchliliga ta’sirini izohlang.

Aniqlik bo‘yicha tushunchalarini izohlang? Aniqlikni hisoblash bo‘yicha, o‘z mulohazalarining bayon qiling.

4-Keys: Standartlashtirish ob‘yekti sifat ko‘rsatkichlarining haqiqiy qiymatlarining me’yoriy qiymatlardan chetlanishlarining mavjudligini amaliyotchi tomonidan taklif etilgan dastlabki ma’lumotlardan foydalanib aniqlang.

Standartlashtirish ob‘yekti sifat ko‘rsatkichlarining haqiqiy qiymatlarining me’yoriy qiymatlardan chetlanish, ya’ni yuqorida bayon qilingan muammolarning yechimi bormi? O‘z fikringizni izhor qiling.

5-Keys: O‘lhash asboblarining aniqlik sinfini aniqlash va o‘lhash natijalarini qayta ishlash usullarini ishlab chiqish bo‘yicha tahlil o‘tkazing.

Ushbu masalaning yechimini toping.

6-Keys: O‘lhashlarni olib borishda turli omillar ta’sir qiladi. Bu esa o‘lhashlarning aniqligiga ta’sir qiladi. Turli xil sharoitlarda laboratoriya, ko‘chma (ochiq joyda, tog‘ cho‘qqilarida va x.o) o‘lhashlarga ta’sir qiluvchi omillarni ta’sirini kamaytirish yo‘llari bo‘yicha fikr bildiring.

Bu muammoni yechish yo'llari bo'yicha o'z mulohazalaringizni bayon qiling.

7-Keys: O'lchash, sinash ishlarida ayrim o'lchash vositalari yetishmasligi mumkin. Ushbu holatda qanday yo'l tutasiz?

Bu muammolarning yechimi bormi? Agar yechimi bor deb hisoblasangiz o'z fikringizni bayon qiling.

VII. GLOSSARIY

Atama	Ta’rifi
O’lhash usuli	fizik eksperimentning aniq ma’lum struktura yordamida, o’lhash vositalari yordamida va eksperiment o’tkazishning aniq yo‘li, algoritmi yordamida bajarilishi, amalga oshirilishi usulidir.
O’lhash vositasi	o’lhashlar uchun qo’llaniladigan va me’yorlangan metrologik xossalarga ega bo’lgan texnikaviy vositaga aytildi.
O’lhash vositalarini qiyoslash	metrologik idora tomonidan o’lhash vositalari xatoliklarini aniqlash va uning qo’llashga yaroqliliginibelgilashga aytildi.
Ýlhash vositalarini sinash	belgilangan proseduraga muvofiq o’lhash vositalarining bir yoki bir necha tavsiflarini aniqlashdan va tasdiqlashdan iborat texnikaviy operasiya.
Sinov yoki qiyoslash laboratoriyasini akkreditlash	laboratoriya muayyan akkreditlash sohasida o’lhash vositalarini qiyoslash, metrologik attestatlash, muayyan yo‘nalishda sinash yoki muayyan xillarini sinashni amalga oshirish xuquqiga ega ekanligini rasmiy tan olish.
Akkreditlash mezonlari	akkreditlash bo‘yicha idora tomonidan foydalaniladigan va akkreditlovchi laboratoriya javob berishi kerak bo’lgan talablar majmuasi.
Laboratoriyanı akkreditlash bo‘yicha ekspert	laboratoriyanı akkreditlashga oid barcha yoki ba’zi vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs (mutaxassis).
Fizik kattalikning birligini qayta tiklash (birligini qayta tiklash)	milliy birlamchi etalon yordamida fizik kattalik birligini moddiylashtirish bo‘yicha operasiyalar to‘plami.
Birlikning o’lchamini uzatish	metrologik tobe bo‘lgan o’lhash vositasi saqlayotgan birlik o’lchamini, etalon qayta tiklaydigan yoki u saqlaydigan birlikning o’lchamiga solishtirish chog‘ida amalga oshiriladigan keltirish.
Akkreditlash tizimi	akkreditlashni o’tkazish uchun proseduralar va boshqaruvning o‘z qoidalariga ega bo’lgan tizim.
Akkreditlash	prosedura bo‘lib, uning vositasida vakolatli idora shaxs yoki idoraning muayyan ishni bajarish huquqiga ega ekanligini rasmiy tan oladi.
Akkreditlash bo‘yicha idora	akkreditlash tizimini boshqaruvchi va akkreditlashni o’tkazuvchi idora.
Inspeksiya tekshiruvi	sertifikatlashtirish va akkreditlashda o’rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlashtirilgan mahsulot, sifat yoki ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari, sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralar, sinov laboratoriyalari (markazlari) ning faoliyatini takroriy baholash prosedurasi.
Sinash	o’rnatilgan proseduraga muvofiq bir yoki bir nechta tafsilotlar (xarakteristikalar) ni aniqlash.
Tahlil	ko‘rilayotgan ob’yektning yaroqliligi, adekvatliligi (aynan bir xilligi), natijaviyligini aniqlash yoki belgilangan maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyat.

O'lash	bu umuman har xil kattaliklar to‘g‘risida informasiya qabul qilish, o‘zgartirish demakdir. Bundan maqsad izlanayotgan kattalikni son qiymatini qo‘llash, ishlatish uchun qulay formada aniqlashdir.
O'lash jarayoni	bu solishtirish eksperimentini o‘tkazish jarayonidir (solishtirish qanday usulda bo‘lmisin).
Uslubiyat (metodika)	faoliyatni rasmiy amalga oshirish yo‘lidir.
Aralashgan usul	bu bir vaqtning ichida ham birgina ko‘rsatkichidan, ham kompleks ko‘rsatkichlardan foydalanib mahsulotning sifati baholanadi.
Statistik usul	mahsulotning sifatini baholashda matematik statistika usullaridan foydalaniлади.
Organoleptik usul	tovar sifati xid, ko‘rish, eshitish, ta’m orqali aniqlanadi.
Tajriba usul	tovarning kimyoviy tarkibi, fizikaviy, mikrobiologik, texnologik xususiyatlarini aniqlanadi.
Sosiologik usul	xaridorlar fikriga qarab aniqlanadi. Mahsulotlarni sifati sotish ko‘rgazmalari, xaridorlar konferensiyalari anketalar tarqatish yo‘li bilan aniqlanadi.
Ekspert usul	7 kishidan kam bo‘lмаган yuqori malakali mutaxassis-ekspertlardan-tovarshunos, dizayner, konstrukturlardan tashkil topadi va ularning fikri bo‘yicha sifatga baho beriladi.
Putur yetkazmaydigan tekshiruv usiliyati (NDT procedure):	o‘rnatilgan me’yoriy hujjatlarga muvofiq holda maxsus vazifadarni bajarish uchun putur yetkazmaydigan tekshiruvning texnik usullaridan foydalanganda rioya qilinishi lozim bo‘lgan, barcha asosiy parametrlar hamda usullarning tavsifi.
Sinov	buyumning xususiyatlarini miqdoriy va (yoki) sifat xarakteristikalarini uni ishlashi, ta’sir qilishi sifatida tajriba yo‘li bilan aniqlashga aytildi [GOST 16 504-81]. o‘rnatilgan jarayonga mos holda mahsulot, jarayon yoki xizmatni bir yoki bir necha xarakteristikasini aniqlash yo‘lidagi texnik operasiyadir.
Solishtirish sinovlari	xarakteristikalari bo‘yicha o‘xshash yoki bir xil ob‘yektlarini ularning xususiyatlarini sinash maqsadida bir xil sharoitda sinash.
Aniqlash sinovi	obekt xarakteristikasini avval maъlum bo‘lмаган qiymatlarini belgilangan aniqlik va (yoki) ishonchlilik bilan, zarurat bo‘lganda esa tasodifiy kattalik taqsimlanish qonuniy qiymati bilan aniqlash sinovi.
O‘lchamga yetkazish sinovlari	mahsulotni ishlab chiqish jarayonida unga kiritilayotgan o‘zgarishlar uni belgilangan sifat ko‘rsatkichi qiymatlariga yetishi uchun qanday ta’sir qilganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan sinovlar.
Dastlabki sinov	tajribaviy ilk namunalarni va (yoki) ilk partiya mahsulotni qabul qilib olish sinovlariga topshirish mumkinligini aniqlash maqsadida sinashdir.
Qabul qilish va topshirish sinovlari	ilk namunani mahsulotni seriyali ishlab chiqarishga qo‘yishga va (yoki) mo‘ljallanganligi bo‘yicha qo‘llashga yaroqliliginini aniqlash maqsadida sinash.
Malakaviy sinov	korxonani muayyan mahsulotni belgilangan hajmda

	ishlab chiqarishga tayyorligini baholash maqsadida mahsulotning birinchi sanoat ishlab chiqarish partiyasini sinash.
Taqdim etishdan oldingi sinov	ishlab chiqaruvchi korxona texnik xizmati tomonidan mahsulotni buyurtmachiga, istemolchiga yoki boshqa qabul qilib olish idorasiga taqdim etishdan oldin o'tkaziladigan sinov.
Qabul qilish	topshirish sinovni qabul qilib olish sinovida mahsulotning nazorat sinovidir.
Davriy sinov	me'yoriy texnik hujjatda belgilangan hajm va vaqtida ishlab chiqarilayotgan mahsulotni nazorat sinovi, bunda mahsulot sifatining turg'unligi va uni ishlab chiqarish mumkinligi tekshiriladi.
Inspeksion sinov	maxsus vakolatki idora tomonidan belgilangan turdag'i ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni tanlab sinovdan o'tkazish, bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining turg'unligi nazorat qilinadi.
Mahsulot turi sinovi	ishlab chiqarilayotgan mahsulot konstruksiyasiga, xususiyatiga, yoki texnologik jarayoniga kiritilgan o'zgarishni samarali va maqsadga muvofiq bo'lganligini tekshirish maqsadida sinash.
Attestasion sinov	mahsulot sifat darajasi bo'yicha attestasiyadan o'tayotgan payitdagi sinov.
Putur yetkazuvchi sinov	putur yetkazib nazorat qilish usullarini qo'llab sinash.
Sinov uskunasi (SU)	sinov sharoitlarini yaratish uchun texnik qurilma.

VII. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

Maxsus adabiyotlar

1. Peregudov L.V., Saidov M.X., Fayziyev R.R., Ismatullayev F.R., Abidov O.S. Upravleniye kachestvom i konkurentosposobnostyu produksii. Tashkent, 2001.
2. Demina L.N. Metody i sredstva izmereniy, ispytaniy i kontrolya:Uchebnoye posobiye. - M.: NIYAU MIFI, 2010. - 292 s.
3. Turayyev Sh.A., Boboyev G.G., Byekmurotov Ch.A. "Mahsulot sifat nazorati va sinov qurilmalari" fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun uslubiy ko'rsatmalar. –Toshkent: ToshDTU, 2014. 122 b.
4. Sudarikova Ye. V. Nerazrushayushchuy kontrol v proizvodstve: ucheb. posobiye. Ch. 1.; GUAP. - SPb., 2007. - 137 s.: il.
5. Gissin V.I. Upravleniye kachestvom produksii: Uchebn. posobiye- Rostov n/D: Feniks, 2000. – 256 s.
6. Varakuta S.A. Upravleniye kachestvom produksii.- M.Izdatelstvo RIOR. 2004. -109 s.
7. Aristov O.B. Upravleniye kachestvom. Uchebnoye posobiye dlya VUZov- M.: INFRA, 2004. -240 s.
8. Sibrinin B.P. Metodi i sredstva kontrolya kachestva. Metodicheskiye ukazaniya k vopolneniyu kursovogo proyekta.– Penza:PGU, kaf. MSK, 2005. – 27 s. (V pomosh studentu, seriya "Kachestvo", Vip. 7).
9. Ismatullayev P.R., Maksudov A.N., Abdullayev A.X., Axmedov B.M., A'zamov A.A. Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish. –T.: O'zbekiston, 2001. - 360 b.
10. Axmedov B.M., Ismatullayev P.R., Turayev Sh.A. Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish asoslari: 5521600 - "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" va 5524300 - "Mahsulot sifati menejmenti (mahsulot turlari bo'yicha)" yo'nalishlari bakalavriat talabalari uchun o'quv qo'llanma. O'zR OO'MTV; TDTU. - Toshkent, 2007. -233 B.

11. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, SMSITI, 2008 y. – 267 b.
12. Ismatullayev P.R., Axmedov B.M. i dr. Osnovы sistemy menedjmenta kachestva: Uchebnoye posobiye. Tashkent, 2009. – 208 s.
13. Abduvaliyev A.A. i dr. «Osnovы standartizasii, sertifikasii, metrologii i upravleniya kachestvom produksii». Uchebnoye posobiye. - Tashkent.: Izdatelstvo TGTU, 2002.- 287 s.
14. Sergeyev A.G. Latyshev M.V. Sertifikasiya. Uchebnoye posobiye. Moskva «Logos», 2000. – 248 s.
15. Abduvaliyev A.A., Alimov M.N., Boyko S.R., Miragzamov M.M., Sabirov M.Z. Osnovы standartizasii, sertifikasii i upravleniya kachestvom. Uchebnoye posobiye. Tashkent. Iz-vo «Fan va texnologiya» 2005 g. –s 535.
16. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Djabbarov R.R., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh. Osnovы standartizasii, metrologii, sertifikasii i upravleniya kachestvom. Uchebnoye posobiye, Tashkent, NIISMS, 2007. – 555 s.
17. Ponomarev, S.V. Iстoriya standartizasii i sertifikasii: uchebnoye posobiye / S.V. Ponomarev, Ye.S. Miщуenko. – Tambov: Izd-vo Tamb. gos. texn. un-ta, 2009. – 92 s.
18. Pikula N.P. Metrologiya, standartizasiya i sertifikasiya: uchebnoye posobiye / N.P. Pikula, A.A. Bakibayev, O.A. Zamarayeva, Ye.V. Mixeyeva, N.N. Chernyshova; Nasionalnyu issledovatelskiy Tomskiy politexnicheskiy universitet. – Tomsk: Izd-vo Tomskogo politexnicheskogo universiteta, 2010. – 185 s.
19. Artemyev B.G., Yurin A.I. Osnovы sertifikasii. Uchebnoye posobiye - Moskovskiy gosudarstvennyu institut elektroniki i matematiki. M., 2011. - 73 s.
20. Dimov Yu.V. Metrologiya, standartizasiya i sertifikasiya: uchebnik. Izd-vo «Piter», SPb, 2013. –496 S.

IV. Internet saytlar

1. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim

vazirligi

2. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
3. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyoNET
5. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi